



# SAMOLYOT CHIPTASI

TURK YOZUVCHILARINING SARA HIKOYALAR TO'PLAMI

• JAHON ADA • TURKUMIDAN •

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

# SAMOLYOT CHIPTASI

*Hikoyalar*



ZIYOB NASHRI

Toshkent  
**2022**

UO'K 821.512.161-32

KBK 84(5Turk)

P 70

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Erkin A'zam, Xurshid Do'stmuhammad,  
Suvon Meliyev, Shuhrat Sirojiddinov, Dilmurod Quronov,  
Nurboy Jabborov, Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,  
Abdurahmon Jo'rayev**

Tarjimonlar:

**Miraziz A'ZAM va b.**

**Boyqurt, Faqir.**

P 70      **Samolyot chiptasi.** [Matn]: hikoyalari / Faqir Boyqurt; tarjimonlar: Miraziz A'zam va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022. – 160 b.

ISBN 978-9943-8520-5-1

Ushbu kitobda turk adabiyotining yirik namoyondalarini eng sara hikoyalari jamlangan. Qardosh turk xalqining mahorat bilan tasvirlangan ichki kechinmalari, dard-u azobi, qolaversa, jo'shqin hayoti o'zbek kitobxonini ham ta'sirlantirmasdan qolmaydi. Voqealar kishida go'yoki uzoq bir o'zga yurtda emas, aksincha o'z makonida sodir bo'lgan muammolar haqida hikoya qilayotgandek taassurot uyg'otadi. Bir so'z bilan aytganda, kitobxon hikoyalarni o'qir ekan, uzoq vaqt ta'sirlanib yurishi, shubhasiz.

Kitob keng ommaga mo'ljallangan.

**UO'K 821.512.161-32**

**KBK 84(5Turk)**

Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/7 - 204

ISBN 978-9943-8520-5-1

© Miraziz A'zam va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2022.

## NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingylliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termizi, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nighoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'sak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganları, xorij mutafakkirları yozgan asarlarni tarjima qilganları bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimmi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuq'i yi nazarlari bo'lgan.

Biz bugun, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasiniz izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalarini bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarurdir.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jiddlikda Ch. Dikkens, L. N. Tolstoy, A. Dyuma, N. V. Gogol, O.de Balzak, A. P. Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G. G. Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Dundar Alp, Dino Butssati, R. Akutagava, I. Bunin, K. Chandr, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga tuyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jiddlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiyy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar tomonidan o'girilgan asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijod namunalari ham o'rinni oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalarini ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jiddlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy mezonlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jiddligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagи juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar degan umiddamiz.

Yaratgan Allah ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, joy-najon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

**Aziz NESIN**

### **IBRATLI TASODIF**

Buni bizga o'qituvchimiz gapirib bergan. O'sha o'qituvchimizning bir qarindoshi bиринчи яхон уруши ўйларда армийада оғитсер бўлиб хизмат қилган екан. О'sha одам кунлардан бирда чо'лда кетаятуб қизиқ бир воqeанing гувоҳи бўлибди. Tipratikan bilan yo'g'on bir ilon „jang“ qilishayotgan екан. Hujum qilayotgan, асосан, tipratikan bo'lib, u nuqul hamla qilar, har hamla qilganida o'tkir tikanlarini ilonning tanasiga sanchib olarkan. Ilon chetroqqa o'rmalab qochmoqchi bo'lsa, yugurib oldidan chiqar, yana nayzasini suqib-suqib olaverarkan. Oxiri ilon shu darajada abgor bo'libdiki, qimirlashgayam holi qolmabdi. Tipratikan yana hujumga shaylanib turganini ko'rib, оғитсер qo'lidagi tayog'i bilan uni bir-ikki marta tushiribdi.

Tipratikan til tortmay o'libdi, tayoq ham qars etib sinibdi. Ofitser yo'l-yo'lakay singan tayog'ini o'ynab, o'zi turgan chodirga yetib olibdi. Oradan ancha vaqt o'tgach, tashqari chiqib qarasa, boyagi yo'g'on ilon chodirning оstonasida tasmadek cho'zilib o'lib yotganmish. Ustida singan tayoq bo'lagi.

O'qituvchimiz shu воqeани аytib bergach, бизга bunday degan edi:

– Tanasi ilma-teshik bo'lib ketan bir ilonning yaxshilikka yaxshilik qaytarish niyatida shuncha yo'l bosib, tayoqning singan uchini sudrab kelishi aslida aql borvar qilmaydigan narsa. Lekin bu bo'lgan voqea. Qolaversa, buni ibratli tasodif desa ham bo'ladi.

*Turk tilidan  
Miad HAKIMOV tarjimasi*

## MASXARABOZ

Bemor doktorga o'z dardini to'kibdi:

– Doktorbey, tobim yo'q. Hayotdan zavq ololmayapman. Iztiroblarimni unutolmay qiyalyapman. Ishtaham yo'q. Tomog'imdan qil o'tmaydi. Ko'z oldimdan och-yalang'och insonlar ketmaydigan bo'ldi. Tonggacha uxlolmay ular bilan birga sov-qotib chiqaman. Jinoyat haqidagi xabarlarni o'qiganda o'sha jinoyatda mening ham aybim yo'qmikan, deb o'yga tolaman. Qotil tutgan pichoqning soipi qo'llimni kuydurayotgandek bo'laveradi. Otilgan har bir o'q mening qalbimga sanchilgandek azoblanaman. Jamiyatdagi barcha ayb, jinoyat va gunohlarni ortmoqlab ketayotgandek his qilaman. Kulishni tamoman unutib yubordim. Doktorbey, menga yordam bermasangiz holim xarob – deya shikoyat qilibdi.

Doktor bemorni tekshirgandan so'ng, yelkasiiga qo'lini qo'yib deraza oldiga olib boribdi. Par-dani tortib barmog'i bilan ko'cha betidagi afishani ko'rsatibdi. Unda sirk masxarabozining rasmi bor ekan. Doktor o'sha masxarabozga ishora qilib:

– Azizim, – debdi. – Anavi masxarabozni ko'rapsizmi? Har kuni oqshomda ajoyib tomoshalar ko'rsatmoqda. Sizga tavsiyam, o'sha tomoshaga boring, barcha iztiroblaringizni unutasiz, maza

qilib kulib dam olasiz. Dilingiz yayraydi. Kasallik-dan ham asar qolmaydi.

Bemor boshini egibdi va chuqur bir uh tortgan-dan keyin debdi:

– Doktorbey, o'sha masxaraboz, menman!

*Turk tilidan  
Ma'rufjon YO'L DOSHEV tarjimasi*

## **JO'ROVOZ BO'LIB**

O'sha paytlarda Istanbulda hovli-joyimiz bo'l guchi edi. Besh tanobcha yerimiz ham bor. Uy-dagi mushuk bilan kuchukcha birga katta bo'lganliklari uchun judayam inoq edi. Tomorqaga sabzavot ekib, bir chekkasida tovuq boqardik. Yana bir eshagimiz bo'lib, men uni Chalabiy deb chaqirardim. Jonivor nihoyatda yuvosh edi. Ku-chukcha bilan mushuk ikkovi Chalabiyning us-tiga chiqib olib, o'sha yerda tong ottirgan paytlari ko'p bo'lgan. Ba'zan kuchukchaning Chalabiy bilan o'ynashgisi kelib qolar, shunda u yugurib borib, naq g'ajib tashlamoqchi bo'lganday akillay boshlardi. Chalabiyning esa parvoysi palak edi.

Tovuqlar kurk bo'lib, jo'ja ochadigan payt keldi deguncha osmonda kalxatlar izg'ib qolardi. Ma-bodo birorta kalxat jo'jaga chang solmoqchi bo'lib yerga sho'ng'isa bormi, ona tovuq darhol qanot-larini kerib, patlarini hurpaytirib olar, bolalarini xatardan ogoh qilmoqlik uchun qaqillagan ovoz chiqarardi. Buni eshitib, jo'jalar pana joylarga qo-chib qolishardi.

Mushuk bilan kuchukcha qayerda bo'lmasin, tovuqning nolasini eshitishlari bilanoq darhol yordamga yetib kelishardi. Jo'jalarga ozor berish uyoqda tursin, ikkoviyam ularni onalari bilan bir

safda turib kalxatlardan himoya qilishardi. Bir tomondan ona tovuq qaqillaganicha yer bag'irlab uchib yurgan kalxatga qarab sapchisa, ikkinchi tomondan mushukcha miyovlab, kuchukcha qat-tiq vovullardi. Xullas, tovuq, mushuk va it baravariga jo'r bo'lib, kalxat hujumini daf qilishardi. Sheriklarining ovozini eshitgan Chalabiy boyoqish biror xatar borligini sezardi-yu, ammo bir oyog'i zanjir bilan qoziqqqa bog'lab qo'yilganligi uchun bor kuchi bilan hangrab yuborardi.

Bir kuni yana hovlini tovuqning qaqillashi-yu mushukning miyovlab, itning vovullashi tutib ketdi. Chalabiy ham turgan joyida hangrab yubordi. Bir payt qarasam, Chalabiy oyog'idagi zanjirni shildiratib shu tomonga qarab irg'ishlab kel-yapti. Zanjirning bir uchida temir qoziq. Bildimki, qoziqni bir amallab sug'urib qochgan.

Chalabiy sheriklarining yoniga yetib kelgach, ikkala qulog'ini ding qilib, kallasini osmonga ko'tardi-da, tepada aylanib yurgan kalxatga qarab shunday bir bo'kirib yubordiki, asti qo'yaving. Eshagimizning bunaqa hangraganini shu vaqtgacha hecham eshitmagan edim.

## **IDOL BRANSKI**

Mashinada Yevropadan Turkiyaga qaytayotib, Yugoslaviya orqali o'tadigan bo'ldik. Belgradga ya-qinlashib qolgan edik, yo'l chetida joylashgan bir xo'jalikka ko'zimiz tushdi. Surishtirib bilsak, bu yerda zotli itlar yetishtirisharkan. Uning egasi bir yugoslav bo'lib, o'zi shu sohada mutaxassis ekan. Xo'jalikni aylanib chiqdik. Har xil toifali yuzlarcha itlarni ko'rdik. Bitta kuchukcha bizga ma'quil tushib, uni sotib olmoqchi bo'ldik. Egasi uni tug'ilganiga endi yigirma kun bo'lganini, o'zi esa Londonda bo'lib o'tgan ko'rikda bиринчи о'rinni olgan Idol Branski laqabli itning surriyoti ekanini aytdi. Xullas, ikkinchi Idol Branskini sotib oldik. Bizga kuchukcha bilan birga uning nasl-nasabi yozilgan guvohnomani ham berishdi.

Kuchukchani uyga olib keldik. Oyim uni uy ichida saqlashga ko'nmadni. Noiloj hovlidagi katakka qamab qo'yidik. Idol Branski yonidan jilishimiz bilan shunaqayam uvvos ko'tardiki, asti qo'yaverasiz. Tuni bilan goh chiyillab, goh uvullab chiqdi. Na o'zi orom oldi, na bizga va na qo'shnilariga tinchlik berdi. Ertasi kuni toza boshimiz qotdi. Kun bo'yи uning yonidan jilmadik. Kechasi yana halovat bo'lmasligi aniq edi.

Yaqin tanishlarimizdan biri maslahat berdi:

– Qo'ng'iroqli soat bor-ku, shuni to'rvaga solib, yoniga qo'yinglar-chi, g'ingshimasa kerak.

Aytganini qildik. Idol Bransking akillashi tindi. Tuni bilan churq etgani yo'q. Erta bilan uyg'on-gach, o'lib-netib qolmadimikin, degan xavotirda katagiga borib asta mo'raladik. Soat solingan to'r-vaga boshini qo'yib, tinchgina uxlayotgan ekan.

Shundan keyin har kuni kechqurun buni tak-rorlab turdik. Kechalari tortqilab o'ynardi. Bora-bora Idol Branski ulg'ayib, soatsiz uxlaydigan bo'ldi. Bir kuni bizga maslahat bergen o'sha tanishimizdan buning sababini so'radik. U o'zi bu ishni qilib ko'rmaganini, lekin bir kitobda shu haqda o'qiganini aytdi. Kitobda yozilishiga ko'ra, kuchuk bolasi soatning tigirlashini onasining yurak urishiga o'xshatar ekan. Ma'lumki, kuchuk bolachalari, odatda, onasining qorniga boshini qo'yib yotadi. Demak, Idol Branski soat solingan to'r-vaga boshini qo'yib uxlashining sababi ham shunda.

*Turk tilidan  
Miad HAKIMOV tarjiması*

## **AGAR...**

Qadrli do'stim, Bahri Filfil! Maktub yo'llab meni eslaganining uchun sendan minnatdorman. Ushbu senga, pochtada yo'qolib qolmasa, yo'llayotgan maktubim agar senzuradan o'tsa, agar xat tashuvchi manzilingni to'g'ri o'qiy olsa, agar ya-shayotgan uying musodara qilinmasa yoki xo'jayin seni uydan haydab chiqarmasa, umid qila-manki, albatta, senga yetib boradi.

Azizim, Bahri Filfil! Maktubingda qachon uylanishim haqida so'rabsan. Agar qaylig'im ish topa olsa, agar xo'jayin unga tegajoqlik qilganida o'jarlik qilgani uchun ishdan haydab yubormasa, agar maoshimizga loyiq kvartira topa olsak, agar ba'zi zarur uy jihozlarni xarid qila olsak, agar bosh vazirimiz va'da qilgan iqtisodiy yuksalish ro'y berib, esimni taniganimdan beri gapiriladigan turmush darajamiz yaxshilanib, maoshim oshsa, agar o'n yildan buyon uylanishimni kutayotgan qaylig'imning sabr-toqati tugamasa, agar meni ta'qib ostiga olishmassa, uzoqroqqa badarg'a qilishmasa, ishdan haydashmasa, yaqin kunlarda, albatta, uylanaman.

Sevikli Bahri Filfil! Maktubingda Sayfi xolamning sog'lig'ini so'rabsan. Agar u yettinchi doktori tavsiya qilgan dorini topa olsa, agar kasal-

xonada bo'sh joy bo'lib, uni operatsiya qilishsa, agar u operatsiyadan tirik chiqsa, agar u batamom sog'ayib ketishi uchun Yevropaga borib davolanishga pul topa olsa, agar u tushgan kema cho'kib, yonib ketmasa, boshqa mamlakatga qochmasa, musodara qilinmasa, agar bojxonadan o'tganda xolamizning sog'ligi yanada og'irlashmasa yoki uning jamadonidan eriga sovg'a uchun olgan galstukni topishib, kontrabandada ayblashib, qamab qo'yishmasa, agar u bularning hammasiga bardosh berib, tirik qolsa, tez kunlarda, albatta, sog'ayib ketadi.

Qadrdonim, Bahri Filfil!

Maktubingda komandamizning bu mavsumdagi ahvoli bilan qiziqibsan. Agar o'yin paytida komandamiz darvozasi kichrayib qolsa, agar o'yinchilarimiz ko'zini quyosh qamashtirmasa, agar raqib darvozasi tomon kuchli shamol tursa, agar muxlislar tinimsiz qiyqirib, raqib komanda o'yinchilarining o'takasini yorishsa, agar ularga so'ta va temir kosov, shisha otib, birortasini mayib qilishsa, agar har bir uchrashuv oldidan o'yinchilarimiz aziz avliyolarning qadamjolarini ziyorat qilib, bundan quvvat olsa, komandamiz, albatta, champion bo'ladi. Maktubingda hol-ahvolimiz bilan qiziqibsan. Agar yomg'irdan so'ng radio, telefonlar buzilmasa, gaz berkilib qolmasa, agar elektr o'chib, suv quvurlari yorilib, transport izdan chiqmasa, agar buning kasofatidan nonning narxi ko'tarilmasa, turmushimiz juda farovon bo'lishi aniq. Sen yana amakimning ishlari bilan qiziqibsan. Agar amakim Anqaraga esonomon yetib borib, pora, tanish-bilish va qing'ir

yo'llar bilan ishini ijobiy hal etsa, agar maktab-dan o'rtog'i unga tavsiyanoma bersa, agar ana shu tavsiyaga ko'ra, bankdan qarz olib, savdo do'koni osganidan keyin aqldan ozib qolmasa, yaqin kunlar ichida uning ishlari ham, albatta, yurishib ketadi.

Qimmatli, Bahri Filfil!

Sen yana kichkina Jengizning o'qishini so'rabsan. Agar ularning sinfida bu yil ham o'tgan yillardiday to'qsonta bola o'qimasa, agar mashg'ulotlar uch smenada o'tmasa, agar darslar o'qituvchi yetishmasligidan yo'qqa chiqmasa, agar qayta imtihon topshirish yoki yomon baholar bilan sinf dan sinfga ko'chishga ruxsat bo'lsa, yoki vazirlik buning uchun yana imtiyozlar joriy qilsa, bolakayning o'qishi joyida bo'ladi. Og'aynim, Bahri Filfil! Iltimos qilgan narsangni surishtirib, aniqladim. Menga aytishdiki, agar tepakallarning boshidan jingalak soch o'sib chiqsa, ho'kizlar majnuntol shoxlariga uya qo'ysa, agar qora tanlilar oq tanliga aylansa, agar quyoshning yuziga loy chaplansa, agar mushuklar kir yuvsa, agar osmonga narvon bilan chiqishsa, agar tuyaning dumি yerga tegsa, sening iltimosing qondirilar ekan.

Qadrdonim, Bahri Filfil, javobingga mushtoq bo'lib, seni o'pib qolaman.

*Turk tilidan  
Mehmon ISLOMQULOV tarjimasi*

## BORIGA BARAKA

Uning taksiga o'tirmaganiga to'rt yildan oshgandi. Ammo bugun o'tirishga to'g'ri kelib qoldi. Zarurat yuzasidan.

Uylanmoqchi bo'lgan qizi bilan birga edi. Qatorlashib turgan mashinalar orasidan eng eski-sini tanlashdi. Eshagiga yarasha tushovi – yangi mashinaning kira haqi ham o'ziga yarasha bo'lishi ma'lum. Ularning baxtiga haydovchi ham keksaroq ekan. Albatta, tajribali haydovchi insofliroq bo'ladi. Ular mashinaga o'tirishdi. Haydovchi hisoblagichni ishlatib qo'ydi.

U ko'z qiri bilan hisoblagichni kuzatib borardi: 60–65–70–75...

- Bugun ob-havo ajoyib-a?
- Ha... To'g'ri... Ajoyib... 105–110–120... Tik-tak, tik-tak, tik-tak.

Hisoblagich tinimsiz ishlardi.

Qiz so'rab qoldi:

- Sizga bir nima bo'ldimi? O'ylanib qoldingiz.
- E yo'-o'q... Hech nima bo'lgani yo'q. Xudo haqqi hech narsa bo'lmedi...
- Lekin tashvishga tushib qoldingiz.
- Bilmadim. Ho-ho! Aksincha. – Men judayam xursandman. Ho-ho! 255, tik-tak, 360, tik-tak...
- Biz shu yerda tushib qolamiz, janob haydovchi!

Qizga bilintirmay hisoblagichga birrov qarab qo'ydi – 395 kurush haq yozilgandi. Darhol xayolida hisoblab chiqdi. Hay, boringki to'rt lira (bir lira 100 kurushga teng) bo'lsin. Ikki barobar qilib to'laydi – sakkiz lira. Yoningda ayol kishi bo'lganda ular doimo ko'proq so'raydi. Hay mayli, o'n lira bera qoladi!

– Qancha berishim kerak sizga, janob haydovchi!

– Boriga baraka-da, beyafandim.

– Yo'q, bunaqasi ketmaydi. Ayting, qancha bo'ladi?

– E nimalar deyapsiz, azizim, bu axir mashinaku, ot emas, tuya emas, qancha bersangiz shuncha bo'ladi-da.

– Yo'-o'q! O'tamizda xafagarchilik bo'lmasligi kerak!

– Hay, bir nima beraqoling endi. Men oz ekan, ko'p ekan deb o'tirmayman. Menga baribir!

– Yo tavba! Men siz uchun nima oz-u nima ko'pligini qayerdan bilaman?

– Men sizga bir nima deyolmayman. Boriga baraka.

Dunyoda shunaqa yumshoqko'ngil, insofli, yaxshi odamlar ham bor-a! Agar unga o'n lira berса kamlik qilmasmikin? Shuncha masofani bosib o'tishdi. Harqalay, ko'proq bergани ma'qul. Yo'nallishli taksilarda buncha joygacha olti yarim lira olishadi.

– Og'ayni, meni ortiqcha qiynama. Iltimos, aytaqol, qancha xohlaysan?

– Siz ortiqcha tashvishlanmang, beyafandim.

Boriga baraka. Men ochko'z odam emasman. Axir,

viloyat Akm

INV № 2023/7-204

men „Oz berding, ko‘p berding“ deya olarmidim?  
Berganiningizga shukur qilib ketaveraman!

– Yaxshi, ammo belgilangan narx yo‘qmi? Men qancha berishim lozimligini qayerdan bilaman?

– Siz ham, afandim, xom sut emgan bandasiz. Biz ancha masofani bosib o‘tdik. Boriga baraka qilamizda endi.

U oz berib qo‘yishdan emas, yanglishib ko‘proq bervorishdan qo‘rqardi. Mayli, nima bo‘lsa bo‘lar! Borini peshonasidan ko‘raveradi.

U hamyonidan o‘n liralik tangalar va yana ikki yarim lira chiqarib, haydovchiga uzatdi:

– Marhamat, oling!

Ikki yarim lirani u haydovchining xushmu-malaligi, ochko‘z bo‘magani va har ikki gapining birida „Boriga baraka“ deb turgani uchun, mukofot tariqasida ustiga qo‘sib berayotgandi. Albat-ta, ortiqchasi bilan to‘layotgandi, ammo unga buning ahamiyati yo‘q edi. Bugun sevgilisining qo‘lini so‘ramoqchi edi. Bunaqa kunda tantilik qilsa arziydi.

Haydovchi qo‘lidagi pulni sanab ko‘rdi:

– Bu nimasi?

– O‘n ikki yarim lira.

– Siz aqldan ozdingizmi, afandim? – deya tu-toqdi haydovchi. – Shunday bemahalda-ya?!

Qiz gapga aralashdi:

– Bundan ikki kun oldin shuncha masofaga yetti yarim lira beruvdik.

Haydovchi pullarni yigitning yuziga otib yubordi:

– Choychaqang o‘zingga buyursin!

Pullar haydovchi bilan boyoqish yigitning o‘rtasidagi yerda sochilib yotardi.

– E uyat-e! Hech bo'lmasa qizingdan uyalsang bo'lardi!

Yigit yana ikki yarim lira qo'shib uzatdi. Haydovchi battar jazavaga tushdi:

– Sen nima, menga sadaqa beryapsanmi? Keragi yo'q! Odamda insof bo'lishi kerak! Men uni oliyhimmat odam deb „Boriga baraka“ desam-u, u bo'lsa...

Yigitcha haydovchining ovozi o'chishi uchun bor davlatini berishga tayyor edi. Qizining oldida sharmanda qildi-ya. U yana besh lira chiqardi. Haydovchi hamon javrardi:

– Yana yoniga qizini o'tqazib olganiga o'laymi! Oliyjanob odam deb o'ylabman. To'qimtabiat ekansan-ku!.. Agar „Boriga baraka“ degan bo'lsam, bu menga sadaqa bersayam bo'laveradi degani emas-ku! Men o'z haqimni talab qilyapman, o'z haqimni! Tushunyapsanmi?! Mabodo haydovchi yerda sochilib yotgan pullarni olmay jo'navorsa nima bo'ladi? Yigit hamyonidan yana besh lira chiqardi va yerdagi pullarga qo'shib haydovchiga uzatdi. U pulni oldi. Gazni bosdi. Mashina silji-yotganda haydovchi yana qichqirib qoldi:

– Albatta, men o'zim aybdorman. Bunaqalarni mashinaga o'tqazish kerak emas! Odamning ola-si ichida bo'larkan-da. Men uni oliyhimmat odam deb o'ylab „Boriga baraka“ deb o'tiribman. U esa meni chuv tushirmoqchi bo'ldi. Hozirgi odamlar shunaqa aynib ketgan! Yigit bilan qiz shahar chetidagi yemakxonaga kirishdi. Shu tobda yigitning ichiga qil sig'masdi. Kallasida hali-hamon haydovchining boyagi shang'illashi aks-sado berib turardi. Agar u ko'proq berolganda edi! Qancha lozim bo'lsa shuncha berardi-da!

- Nima deding?
- Atrofimizdagi manzara chiroyli ekan deyapman, – dedi qiz.
- Sen ayt-chi, o'zingga qancha kerak?
- Men... tushunmadim!..
- Nega endi o'zingga qancha kerakligini to'ppato'g'ri aytib qo'ya qolmaysan? Qiz keskin yuzini o'girdi va orqasiga qaramay tepalikdan pastga chopib ketdi. Jon-jahdi bilan bu yerdan uzoqlashdi. Hammasi tamom bo'ldi.

*Shodmon OTABEK tarjimasi*

## **SHAFQATLI IT**

Uyimiz katta yo'l yoqasida bo'lguchi edi. Qish kunlaridan birida ikkinchi qavatdagi deraza yonida gazeta o'qib o'tirardim, oldimda esa qahva. Shu payt ko'cha tomondan ingillagan ovoz eshitildi. Shunday ayanchli, shunday g'amnok ediki, gazetani ortiq o'qiyolmadim. Eshikni ochsam, jingala-jingala oq junli daydi bir kuchukcha turibdi. Meni ko'rishi bilan jonholatda ingray boshladi. Allaqayeri og'riyotganini sezdim. Tumshug'ini os-tonaga qo'yib, iltijo bilan ko'zimga tikildi. Darrov yerdan ko'tarib olib, uyoq-buyog'iga razm solib ko'rdim. Bir oyog'i lat yegan bo'lsa kerak, qonayotgan ekan. Yaralangan joyini yaxshilab yuvib, dori surtdim, keyin oyog'ini taxtakachlab, mahkam bog'lab qo'ydim. Anchagacha ingillab yotgach, keyin tinchib qoldi. Qorni to'ygach, uyuga ketdi.

Oradan o'n besh kuncha vaqt o'tgach, taxtakachni olib tashladim. Boyoqish ikki-uch kun cho'loqlanib yurdi, keyin yarasi butunlay bitib ketdi. Ko'hlikkina, sho'xroq kuchukcha ekan, uyichi bilan hammamiz unga qattiq bog'lanib qoldik. Lekin u ko'chaga o'rgangani uchun hamisha uydan qochish payida bo'lar, bunday paytlarda esa uni ko'cha-ko'ydan tutib olib, joyiga qaytarardik.

Kunlardan birida itimiz yo'qolib qoldi. Shuncha qidirsak ham topilmadi. Ko'p afsuslandik, lekin iloj qancha edi.

Kelasi yil yana o'shanday qish kunlaridan birida erta bilan deraza yonida qahva ichib o'tirsam, to'satdan ko'cha tomondan vovullagan ovoz keldi. Negadir bu tovush tanishdek tuyuldi.

Darhol pastga tushib, eshikni ochdim. Ha, xuddi o'zi... Meni ko'rishi bilan it dumini likillatib, sakrashga tushdi. Yonidagi sap-sariq bahaybat sherigi tinmay ingillardi. Yaqiniga borib qarasam, bir oyog'i singan ekan. Ha, oradan bir yil o'tgandan so'ng o'sha daydi itimiz mendan najot istab yarador sherigini oldimga boshlab kelibdi.

## CHEGARA USTIDAGI UY

Yangi uyga ko'chib kelganimizning ikkinchi kuni edi. O'ng tomonimizda bir qo'shni bor. Yo'limiz ularning uyi oldidan o'tadi. Deraza yoniga o'tirib olgan bir keksa kishi bizga qarab: – Bu uyga ko'chib kelmasangiz yaxshi bo'lardi, – dedi.

Qariyaga jahl bilan e'tiroz bildirdim:

– Odatda, bir kirachi endi ko'chib kelganida qo'ni-qo'shni kelib, yangi uy qutlug' bo'lsin, deydilar. „Kelmasangiz yaxshi bo'lardi“ deganingiz nimasi? Qo'shniga ham shunday deydilarmi?

Qariya pinagini ham buzmadi:

– Menden aytish, – dedi, – u uyga o'g'ri kiradi, shuning uchun gapirdim. Qiziq, bizning uyga kiradi-yu, boshqalarnikiga kirmaydimi? Yuragim siqilib, sigaret olish uchun burchakdagi do'konga kirdim.

– G'alati odamlar bor-da, bilib-bilmay valdirayverishadi, dedim.

– Tinchlikmi? – dedi baqqol menga o'girilib.

– Uyimizning yonida bir ezma chol bor. Uylarining yonidan o'tayotsam, „Sizning uyingizga o'g'ri kiradi, ko'chib kelmasangiz yaxshi bo'lardi“, deydi-da.

– To'g'ri aytipti, – dedi baqqol, – ko'chib kelma ganingiz yaxshi edi.

Lom-mim demay do'kondan tashqariga chiqdim. O'sha kuni oqshomgacha o'zimni qo'ygani joy topolmadim. Kechqurun chap tomonimizdag'i qo'shnilar tanishgani kirishdi. Yarim kechasi chiqib ketayotib:

– Bu uy yaxshi-yu, ammo o'g'ri kiradi, – deyishdi.

Bu gapni eshikdan chiqayotganda aytganlari uchun: „Nega bizning uyg'a kirgan o'g'ri siznikiga kirmaydi?“ – deb so'rolmadim.

Yuragim siqilganini sezgan xotinim meni tinch-lantirishga urindi:

– Qo'yaver, hammasi bo'lмаган gap. Hozir ijara-raga beruvchilar uydan chiqarishning ming xil yo'lini topganlar. Demak, bu ham bir yo'li. Uyg'a o'g'ri kiradi deb qo'rqtib, bizni uydan chiqarmoq-chilar. Uyning ijara haqi arzon bo'lganligi uchun yo o'zlar ko'chib kirishadi, yoki bir tanishlarini olib kelishadi.

Biroz xotirjam bo'ldim. Ammo kechasi baribir ko'zimga uyqu kelmadı. Uchrashuv tayinlagan odamday o'g'ri ana keladi, mana keladi deb kutib yotdim. Endi ko'zim ilingan ekan, tigirlagan tovushdan sakrab turib ketdim. Yostiqning ostidan to'pponchamni olib:

– Qimirlama, bo'lmasa otib tashlayman, – deya qorong'ilikka qarab baqirdim. Uyg'a endi ko'chib kelganligimiz uchun elektr tugmasini topolmay qoldim. Uni qidirib u devordan bu devorga yopishaman. Shu payt oyoqlarimga nimadir ilashdiyu gursillab yerga ag'anadim. O'g'ri chalgan bo'lsa kerak deb ham xayol qildim. Naq qornini mo'ljal-lab o'qlarni bo'shatardim-u, ammo yiqlganimda

o'zim bir tomonga, to'pponcha esa boshqa tomon-  
ga uchib ketgan ekan...

– Ha-ha-ha, – qorong'ilikdan etni jimirlatadi-  
gan qahqaha yuksaldi.

– Ablah, sen bilan sichqon-mushuk o'yini  
o'ynayapmizmi, mard bo'sang qarshimga chiq, –  
deya baqirdim.

– Har holda, elektr tugmasini qidirayotgandin-  
giz, shekilli. Eshikning o'ng tomonida. Yangi ija-  
rachilar hamisha uni topguncha shunday qiyinali-  
shadi.

Ovoz qorong'ilikdan kelardi.

– Qo'lga tushsang, nima qilishimni bilasan-  
mi? – deya baqirdim.

– Bilmayman, – dedi qorong'ilikdagi odam, –  
agar ruxsat etsangiz, elektrni yoqib, sizga yordam  
qilay.

Shu payt elektr tugmasining „chiq“ etgan ovozi  
eshitildi, xona yorishdi. Men yiqilganda stolning  
tagiga kirib ketgan ekanman, xotnim esa kara-  
votning ostiga berkinibdi. Qarshimda mendan ikki  
baravar qomatli, barvasta odam turar edi. Agar  
o'rnimdan tursam, uni qo'rqitolmasligimga ko'zim  
yetdi. Yotgan joyimdan ovozimni yo'g'onlashtirib:

– Sen kimsan? – deya so'radim.

– O'g'riman.

– Menga qara, boshimni qotirma. Sen o'g'ri  
emassan. Men o'g'riman deb bizni qo'rqitib, uy-  
dan chiqarmoqchisan. Ko'zimga bir qara-chi...

– O'g'rimanmi, yo'qmi, hozir ko'rasan, – dedi u.  
So'ngra otasining uyiga kirgandek uyoq-buyoqni  
titib, kerakli narsalarni yig'ishtirib ola boshladi.  
Bu ish orasida o'zicha gapirib ham qo'yardi:

– Demak siz bu xonani yotoqxona qilibsiz-da, oldingi ijarachilar bu yerni mehmonxona qilishgandi. Undan oldingilari esa...

– Menga qara, – dedim, – sen o‘g‘rilik qilayapsan, ammo men ustingdan shikoyat qilaman.

– Istanasang otangga shikoyat qil, lekin menden salom aytishni ham unutma.

– Ammo men politsiyaga borgunimcha sen qo‘chib ketasan-da.

– Qochmayman.

– Baribir qochasan. Uyda bor-yo‘q narsani to‘plab juftakni rostlaysan. Shuning uchun avval seni bog‘lab, keyin politsiyaga boraman. Shu payt xotnim bor ovozi bilan baqirdi:

– Yordam beringlar!..

Mahalla ahli go‘yo eshikning tagida poylab turgandek bir pasda uyni to‘ldirdilar. Qo‘shnilar beparvogina:

– E, bu uyga yana o‘g‘ri kiribdi-da, – deyishdi. Ba‘zilari esa:

– Ko‘raylik-chi, qaysisi ekan, – deya bir-birlaridan so‘ray boshlashdi.

Qo‘shnilarning ichida o‘g‘rini taniganlar, u bilan hol-ahvol so‘rashganlar ham bo‘ldi. O‘g‘ri esa shovqin-suronga e‘tibor ham bermay uyoq-buyoqni kavlashtirish bilan band edi.

– Qani qo‘shnilar, yordam beringlar, bu o‘g‘rini boylaylik. Borib politsiyaga xabar beraman, – dedim. Qo‘shnilardan biri:

– Xohishingiz, ammo bekorga ovora bo‘layapsiz-da, – deb qoldi.

Qayerga ko‘chib kelib qoldik o‘zi, deya ensam qotdi. Xotnim kir yoyadigan iplarini olib keldi.

O'g'ri ham hech qarshilik ko'rsatmadı. Uning qo'l-oyog'ini yaxshilab bog'lab, bir xonaga kiritib qo'ydk. Ustidan qulfladik. Shu zahoti politsiya bo'limiga chopdik. Xotinim barcha voqeani komissarga gapirib berdi. Komissar uyning manzilini so'radi. Aytdik.

– Ha, o'sha uymi? – dedi.

– Ha, o'sha uy, – dedim.

– Afsuski, biz u uyga aralasholmaymiz, chunki u bizning hududimizdan tashqarida, – dedi komissar.

– Xo'sh, biz nima qilaylik? O'g'rini bekorga bog'lab keldikmi?

– Bir uy yuqorida yashaganingizda bizning hududga kirardi. U paytda biz aralashardik.

– Yuqoridagi uy bo'sh emas ekan-da, ne qilaylik, – dedi xotinim achinish bilan.

Ma'lum bo'lishicha, bizning uyimiz ikki politsiya bo'limi hududining naq chegarasida joylashgan ekan.

– Sizning uyingiz boshqa bo'limga qaraydi, – dedi komissar.

U aytgan bo'lim anchagina uzoq ekan. Biz u yerga borguncha tong otdi. Bo'limdagilarga voqeani tushuntirdik. Uyimizning manzilini so'ralar. Aytdik.

– Ha... O'sha uymi? – dedi bir politsiyachi.

– Ha, o'sha uy, – dedim.

– Bir uy pastda bo'lganida biz qarardik. Sizing uyingiz bizning hududdan tashqarida. Shu payt xotinim tilga kirdi:

– Bechora odamni rosa qisib bog'lagan edik, holi nima bo'ldi ekan...

– Bizning uyimiz qaysi hududga kiradi, – deb so'radim politsiyachidan.

– Sizning uyingiz jandarma hududiga kiradi, u yerga politsiya aralasha olmaydi. Siz jandarma bo'limiga boring, – deb maslahat berdi politsiyachi. Yana yo'lga chiqdik.

– Kel, avval uyga borib, o'g'riga bir qaraylik, o'ldimi-qoldimi? – dedi xotinim.

Chindan ham, qisib bog'laganimiz uchun qoni aylanmay o'lib qolsa, nima bo'ladi? O'g'ri ushlaymiz deb, qotil bo'lib qolmaylik. Uyga bordik. O'g'ri qanday bog'lagan bo'sak, shunday turardi.

– Qalaysan? – dedim.

– Yaxshiku-ya, ammo qornim ochdi, – dedi. Xotinim o'g'riga ovqat uzatdi. Aksiga olib uyda fagat loviya bor ekan. O'g'ri esa loviya yemas mish. Xotinim qassobdan go'sht olib kelib pishirdi. Uni o'g'rining oldiga qo'yib, jandarma bo'limiga shikoyat qilish uchun jo'nadik. Borib bo'lgan voqealarni tushuntirdik. Jandarma bo'limi boshlig'i uying manzilini so'radi. Biz aytdik.

– Ha... U uymi? – dedi.

Bizning uyimiz hammaga otning qashqasidek ma'lum edi.

– Sizning uyingizga jandarma aralashmaydi, politsiya qaraydi, – dedi jandarma bo'limi boshlig'i.

– Nimalar deyapsiz, afandim, – deya e'tiroz bildirdim. – Politsiyaga borsak, jandarma qaraydi, deydi, jandarmaga kelsak, politsiya qaraydi, deysizlar. Axir, bizning uyga qaraydigan odam bormi? Jandarma bo'limi boshlig'i bir xarita chiqardi.

– Qarang, – dedi u, – xaritani tushunasizmi? Bu 140-raqamli gorizontal chiziq. Bu yer suv bo-

simi minorasi. Bu yer esa 208-raqamlı tepe. Jandarma hududi chegarasi mana shu yerdan o'tadi. Agar siz o'tirgan uy ikki metr shimoli g'arbda qurilganida jandarma hududiga kirardi.

– Iye, bor-yo'g'i ikki metr ekan-ku. Nima qiladi bizning uygaga ham qarasangiz?

– Nima qilishini siz emas, biz yaxshi bilamiz. (Xaritadan ko'rsatdi.) Qarang, sizning uyingiz bu yerdan. Jandarma bilan politsiya hududlarining naq chegarasi ustida. Tushundingizmi? Bizning hududga uyingizning hovlisidan ikki yarim metrcha kirgan, ammo o'g'rilik hovlida sodir etilmagan.

Yana politsiya bo'limiga ketishdan boshqa chora qolmagan edi.

– Avval bir uygaga borib, o'g'rini ko'raylik. Xudo asrasin, u o'lib-netib qolsa, boshimiz baloga qoladi-ya, – dedi xotinim tashvish bilan. Uyga jo'nadik.

Borib o'g'rige:

– Qalaysan? – dedim.

– Ichim kuyib ketayapti, tezroq suv bering, – dedi u.

Suvni ichib bo'lib tilga kirdi:

– Menga qarang. Siz mening erkimni bo'g'ayapsiz. Bunga haqqingiz yo'q. Bu yerdan qutulsam, sizni sudga beraman.

– Xo'sh, nima qilaylik, inim, – dedim unga. – Uyimizning qaysi hududga kirishini aniqlay olma-dik. Shikoyatimizni qabul qilishmayapti. Shunday joyga ham uy qurishadimi? Naq chegaraning ustida tiklashipti.

– E... Men aytmadimmi? Siz meni qo'yib yuboring. Bo'lmasa, erkimni bo'g'ganingiz uchun mah-

kamaga bersam, ovorayi sarson bo'lasiz, – dedi o'g'ri.

– Kechqurungacha ruxsat ber, – dedim unga yalingandek. – Yana bir marta politsiyaga borib kelaylik...

– Istagan joyingizga boring. Bu ish nima bilan tugashini yaxshi bilamiz. Avval uyning qaysi mintaqaga kirishi hal etilishi kerak. Yo bo'lmasa, hududlar chegarasi o'zgartirilishi lozim. U paytgacha yetti qovun pishig'i bor...

Yana politsiya bo'limiga bordik. Komissar ham bir xarita ko'rsatdi.

– Qarang, – dedi u, – jandarma hududi chegarasi bu yerda. Hovli jandarmaga qaraydi... Uyning bir qismi bizda, bir qismi jandarmada.

– Yotoqxona sizning mintaqangizga kirar ekan. O'g'rilik yotoqxonada bo'ldi-ku, – dedim.

– To'g'ri, – dedi komissar, – ammo buni isbotlash lozim. Qolaversa, o'g'ri yotoqxonaga uchib kirma-gandir, albatta, hovlidan kirgan. Hovli esa jandarma hududida... Albatta, bu birinchi voqeа emas. Bu masala muhokama qilinayapti. Ko'raylik-chi, uyingizni qaysi mintaqaga kiritishsa, shunga qarab ish yuritamiz. Uyga qaytdik. O'ng tomondagи qo'shni uyning derazasidan yana o'sha keksa kishi bizga gap qotdi:

– Hamdardlik bildiraman, uyingizga o'g'ri kipti.

– Ha, kirdi, – dedim.

– U uyda hech bir ijarchi o'tirmaydi, shuning uchun arzonga berishadi. Uy egasi o'zi yashay olmaydi, xaridor ham topolmaydi. Uyini buzib, ikki metr ichkariga olmoqchi edi. O'shanda to'la bir

mintaqaga kirar edi. Ammo sizni topgach, ijaraga beripti. Cholning xotini ham gapga aralashdi:

– Albatta, ayb sizda emas, uy egasida. Uy qu-rayotganda suvi, elektri, gazi va tashqi ko'rinishini o'ylashadi-yu, qaysi hududga kirishini hech hisobga olishmaydi. Odam naq chegara ustida ham uy quradimi? Bir yillik ijara haqini oldindan to'laganimiz uchun hech qayerga ketolmasdik. Uyga kirdik. O'g'ri ham biz bilan dasturxonga o'tirdi. Kechki ovqatni birgalikda tanovul qildik. So'ngra u o'rnidan turib, bizga yuzlandi:

– Hozircha siz bilan xayrлаshaman. Albatta, yana kelaman, – dedi.

Shundan beri to'rt-besh o'g'ri uyimizning doimiy mehmonlariga aylandi. Mahallada ularni hamma taniydi. Hatto ular bilan hamkorlik ham qildik. Boshqa, notanish o'g'rilardan uyimizni birgalikda qo'riqlayapmiz. Ko'raylik-chi, nima bo'lar ekan? Yo shartnomamiz bitguncha uyda olti o'g'ri bilan sakkiz kishi bo'lib yashab turamiz, yoki bizning uyni biror mintaqaga kiritishar. U paytda o'g'rilarni topa olsak, mintaqasiga qaraydigan polit-siya bo'limiga shikoyat qilamiz. Bir-birimizga shu qadar o'rgandikki, shikoyat ham ayb bo'lsa kerak... Chunki uyning ayrim xarajatlarini ular ko'tarishayapti.

*Turkchadan  
Nosir MUHAMMAD tarjimasi*

## **YASHASIN QASHSHOQLIK!**

Bank degani zap rohatijon narsa-da: uy-joy deysanmi, pul, yutuq, maosh deysanmi – hammasi shundan chiqadi. Bas, shundoq bo'lgandan keyin ro'zg'orda yuz lira qoqishtirgin-da, darrov oborib bankka qo'y. Omading kelmay, pulingga yutuq chiqmay qolishi ham mumkin, mabodo shundoq bo'lganda ham sendan nima ketadi? Ha-qing kuymaydi, bankda turaveradi, baribir foizini qurtdek qilib sanab olaverasan. Bu gaplarning yolg'oni yo'q. Men ham bir necha yildan beri yuz lira to'plab, bankka qo'yay deymanu, ammo ilojini topolmay xunobman. Kamarni qattiqroq tortib, zo'rg'a besh-o'nta tanga yig'ib qo'ysam, lop etib bir ishkali chiqadi-yu, pul jonivor shunga sarflanib ketadi. Nazarimda, bu pul degani go'yo bir-biri bilan kelishib olgan-u, mening cho'ntagimda yuz lira bo'lib jamlanmaslikka qattiq qasam ichgan.

Pul o'jarlik qilaverganidan keyin men ham bo'sh kelmay qo'ydim, xullas, bir amallab yuz lira yig'dim. Ne hasratda yig'gan pulimdan yana ajrab qolmay, degan xavotirda pulni darrov oborib bankka qo'ymoqchi bo'lgan edim, kechikibman, bankda ish vaqtி tugab qolibdi.

Yuragim taka-puka: qo'limdagi pul hozir simobday erib, bir zumda g'oyib bo'ladiqanday.

Shundoq bo'lsa ham, boshim osmonga yetgan, vaqtim chog'. Naq boshiga davlat qushi qo'ngan odamning o'ziman.

Pulchamni yostiqning tagiga qistirib, o'runga yotdim. Ko'zimga uyqu kelmaydi. Qoyilma-qom qilib yuz lirani to'plaganman-da, shuning uchun o'zimga o'zim aql sotaman: bir narsaga qattiq kirishsang, albatta, shuni qilar ekansan. Gap istakda qolgan. „Kam pul topaman!“ yoki „Turmushimning mazasi yo'q, hamma yoq qim-matchilik“ degan bahonalar bekorchi gap. Axir, yuz lira to'play oldim-ku! Bundan chiqdi, agar istasam ikki yuz, besh yuz, ming, boring-chi, o'n ming lira ham to'plashim mumkin. Ha, shunday! Shundan keyin shirin xayollarga berilib keta-man. Mana, ming lira o'n mingga, o'n mingi yuz mingga, yuz mingi esa yuz millionga chiqadi. Jamiki nol raqamlarini bir safga tizaman-da, tim qorong'ida ularni o'ng tomondan uchta-uchta qilib chiqaman, keyin baland ovoz bilan deyman: „Yuz million, bir milliard, o'n milliard, yuz milliard...“ Ha, bir narsaga qat'iy kirishsang, albatta, buning uddasidan chiqasan!

Ilgari gazetalarda millionerlarning turmushini yozishardi. Bizning zamonamizda millionerlar-ning bozori kasod bo'lib, oyoqdan qolib ketdi. Shuning uchun ham men milliarder bo'lib oldim. Mana, trillionerman. Dunyoda trillioner bo'lganmi o'zi? Iya, bo'limganmi? Bo'limgan bo'lsa mana o'zimiz bo'lamicha! Millioner va milliarder bo'lish hammaniig qo'lidan kelaveradi. Bo'lganga yara-sha trillioner bo'lgan ma'qul! Trillioner-a! Hazi-lakam gap emas bu.

Miyam shishib ketdi. Qorong'ida barmoq bilan havoga bir raqamini chizib, yoniga nollar qo'yib chiqdim. Bitta nol, ikkita, uchta, beshta, o'nta, o'n bitta, mana o'n ikkita. Rosa o'n ikkita nol yozdim. Iya, boyagi birni ikki raqamiga almashtirsam bo'lmaydimi? Ikki trillion. Mana bo'lmasa uch trillion! Yana bitta nol qo'shgan edim, o'ttiz trillion bo'ldi. Ko'rpa ostidan qo'limni chiqarib yana bitta nolni boplab tashlagan edim, qarabsizki, uch yuz trillion bo'ldi. Kuzda uchib yuradigan mezon-ga o'xshab raqamlar xonada muallaq turib qoldi. Bularning ichida o'yin qaroqlari sho'xlik qilib qochib ketmoqchi bo'ladi-da, tiyg'anib ketadi. Men bu tirranchalarni yo'ldan ushlab kelib, joyiga turg'izib qo'yaman. Ular ko'zni shamg'alat qilib yana qochishadi, yana tutib kelaman. „Pul topish qiyin emas, uni saqlab qolish qiyin“, degan gapni eshitib yurardim. To'g'ri gap ekan. Mana hozir raqamlarga kuchim yetmay qoldi. Shumtakalar xuddi billiard soqqasiga o'xshaydi-ya: birpasda dumalab ketadi. Rostini aytsam, bular baribir mendan qochib qutulolmaydi. Nega desangiz, boy bo'lishga qat'iy jazm qilganman!

O'rnimdan turib, sigaret tutatdim. Raqamlarni ko'rgan sari zavqim oshadi. Qurmag'urlar biram chiroyli, biram do'mboqli... Boy bo'lishning zavqi ham o'zgacha bolarkan!

Tong yorishdi. Darrov yostiq tagini paypasladim, haytovur, pul joyida ekan. Irg'ib turib, bankka yugurdim. Bank u yoqda tursin, hali baqqollar ham do'konini ochmagan ekan. Noiloj, ochilishini kutib turibman. Shu payt bir og'aynim uchrab qoldi:

- Nima gap? Senga nima bo'ldi?
- Shundoq... Hech nima bo'lgani yo'q, – dedim unga.
- Ko'zingga qon to'lgan, ranging za'faron. Ayt, nima bo'ldi?
- Kechasi uxlamagan edim, shuniki bo'lsa kerak... Ishim ko'p, uxlashga vaqt yo'q. Bankka pul qo'yayotganimni ko'rmay qo'ya qolsin, degan maqsadda u bilan tezgina xayrslashdim. Mana, bank ham ochildi, yurak yutib ichkari kirdim. Voy-bo! Zap ketvorgan joy ekan-ku bu! Hamma yoqda gul tuvaklar, chiroyli ayollar-u, olifga erkaklar. Shiftdag'i ajoyib qandillarni aytmaysizmi? Xuddi podsholarning saroyiga o'xshaydi-ya. Ichkarida taxminan yigirma choqli xizmatchi o'tiribdi. Atrof yog' tushsa yalaguday yarqiraydi, jihozlar yap-yangi. Yuragimni vahm bosib ketdi. Iya, bankka qo'yadigan pulimning protsenti mana shu o'tirganlarga sarflanar ekan-da? Manovi quiling o'rgilsin buyumlar, manovi hisob mashinalari-yu mashinistikalar – hammasi mening pulimga kelarkan-da? Yo'q, bunaqasi ketmaydi! Senlarga pul berib qo'yadigan ahmoq yo'q!
- Xush kelibsiz, afandim, xizmatlariga tayyormiz! Bankda ishlaydiganlar biram xushmuromala bo'ladiki! Bunaqa gapdan keyin bankdan chiqib ketolmadim. Pulimni qo'liga berdim. Yuzyidan tabassum arimaydigan bu xizmatchi ikki minutga qolmay ishimni to'g'rilab berdi. U chek qog'oziga qo'shib bitta yon daftar ham in'om qildi. Ishxonadagi o'rtoqlarim o'sha kuni:
- Senga bir narsa bo'lganga o'xshaydi, yurgan yo'lingda ham uxbayapsan, – deya meni rosa ka-

laka qilishdi. Hech kimga sirimni ochmadim. Peshin bo'lgan ekan, men bilan bir stolda o'tiradi-gan og'aynim:

- Qani, yur ovqatga! – deb qoldi.
- Qornim to'q, – degan javobni qildim.

Aslida ertalabdan beri hech nima totiganim yo'q. Ishlab topolmasang, tishlab pul to'plashing mumkin. Kechqurun bitta teshikkulcha bilan naf-simga urdim. Kecha uxlamaganligim uchun bar-vaqt o'ringa kirdim. Lekin yostiqqa bosh qo'yishim bilan ko'z oldimda yana o'sha raqamlar chirpirak bo'la ketdi. Bu gal ham kelgan joyidan boshladim. Nol raqamlaridan biri chiroqqa gирgitton bo'lgan parvonadek bir aylanib chiqdi-yu, boyagi yuzta-liklarning yoniga borib qo'ndi. Ming... o'n ming... yuz ming... million... Nollar... nollar... nollar... Barmog'im bilan bu nollarni bir safga tizib chiqaman-da, olib borib joy-joyiga qo'yaman. So'ngra ularga buyruq beraman:

– Senlar ko'pam xarxasha qilavermanglar! Men xarxashani yomon ko'raman. Intizom – turmushning asosi. Nollar, qani borib joy-joyingga tur-chi! Chaqqon bo'l! Vahimaga tushgan nollar joyiga borib turadi.

Xuddi generalga o'xshab ularga do'q uraman:

– Safga tur!

Nollar qator tizilishadi.

– Qani... Marsh! „Gurs, gurs, gurs!“ Bir, ikki, uch, to'rt, ming, yuz ming, bir million! Nollarga o'n daqiqa dam beraman.

– Yashavor! – deb baqirishadi ular.

Nollar bilan mashq qilib, tong ottirdim. Majolsizlikdan zo'rg'a ko'chaga chiqib beixtiyor bank

tomon yurdim. Go'yo bankdagi pulimni birov opqochib ketadi-yu, ajralib qoladigandayman. Bugun ham pishloq bilan quruq non yeb yotdim. Ko'zim yumulib ketayotgani uchun ertaroq yostiqqa bosh qo'ydim. Qani endi uyqu degani kela qolsa! Nol qurmag'urlar qoq yarim kechada o'yinga tushib ketishdi. Bir payt qarasam, bank tufayli hovli-joyli bo'lib qolibman. Qani, shu yutgan uyimga ijaraga odam qo'ysam-u, besh yillik haqini oldindan olsam bo'lmasmikin? O'zim hozir arzonroq kvartirada turaman. To'xta-chi, oyiga yuz yigirma lira to'lab, bunaqa joyda turish non tepkilik emasmi? Ertagayoq arzonroq uy topmasam bo'lmaydi. Shahar tashqarisida yigirma li-raga kichikroq xona topish mumkin-ku. Bundan chiqdi, har oyda yuz liradan pul yonimga qoladi, uni bemalol bankka qo'ysam bo'ladi. Bir yilda bir ming ikki yuz lira yig'ilib qoladi-ya! O'n yilda esa 12 ming, yuz yilda 120 ming bo'ladi. G'oyibdan boyish deb shuni aytadilar-da. Shunaqa paytda isrofgarchilik qilib nima qilaman? Kiprik qoqmay, yana tunni tongga uladim. Ishxonaga yo'lni bank tomondan soldim. Oshnagog'aynilar endi men bilan salomlashmay ham qo'ygan. Salomlashmasa salomlashmas, menga nima! Choy-qahva olib berishdan qutulibman-da. Leman telefon orqali meni so'ragan edi:

– Bugun ishga kelmadni, – deb yubordim.

Aslida shu Lemanga uylanmoqchi bo'lib yurgan edim, bugun bu fikrimdan qaytdim. Bankka pul qo'ygan kunimdan e'tiboran, uni ko'rgim kelmay qoldi. Axir, oilalik bo'lish serchiqim bo'lish degan gap-da. Kipriklarim xuddi tegirmon toshi osib

qo'yganday yumulib ketyapti. Stolga bosh qo'yib, mizg'ib olmoqchi bo'lgan edim, nollar raqqosalariga o'xshab sakrayverib hech ko'z o'ngimdan ketmadi. Ishdan chiqib, uyqu keltiradigan hap dori olib ketaman deb qo'ydim. O'rtoqlarimdan bittasida shunaqa dori bor ekan, rahmi kelib ozroq berdi. Dori ham kor qilmadi. Shu kecha shunaqa boyib ketdimki, asti so'ramang. Bir mahal bundoq qarasam, butunlay sinibman! Milliard-milliard liralardan ajralibman. Singan millionerlariga o'xshab o'zimni o'zim o'ldirishimga sal qoldi. Bu yomon niyatdan qaytishimga bankdagi yuz lira sababchi bo'ldi. Keyin yana boyib ketdim. Shu darajada boyidimki, dunyodagi hamma pullar mening qo'limga kelib tushdi, hech kimda bir miri qolmadi. Jamiki muxbirlar ketma-ket men dan intervyu olyapti.

– Bunchalik boyib ketishingizning sababi nima? Sirimni ularga aytib berarmidim.

– Mehnat qilib boyidim. Tug'ilganimda sariq chaqa ham pulim yo'q edi.

Shundan keyin hotamtoyligim tutib ketdi. Oldiniga pul uchun o'zim o'ldirgan odamlarning bola-chaqalariga paypoq sovg'a qildim. Bemor ishchilarga bittadan piyoz ularshdim. Shaxsan o'zim yer-suvini tortib olgan dehqonlarga hovuch-hovuch tuproq berib chiqdim.

Qo'yingki, olamda qanaqa savob ish bo'lsa hammasini qildim. Odamlar xursand: „Qanday dilovar, qanday saxiy odam ekan bu!“ Xayrli ish qilaman deb bugun ham uxbayolmadim. Ochlik va uyqusizlikdan oyoqda turadigan holim yo'q. Ertalab to'g'ri bankka bordim. Ichkari kirdim-u, chek qog'ozini xizmatchining oldiga uloqtirdim:

- Qani, yuz liramni bu yoqqa cho'zing!
- Bir yo'lа hammasini olmoqchimisiz? - hayron bo'lib so'radi u.
- Ha, hammasini, hammasini olaman! - deya baqirdim.

- Yetar endi! Oshna-og'aynidan ajraldim, odamgarchilikdan chiqdim, sihatimni, baxtimni yo'qotdim. Ming la'nat bunaqa turmushga! Hamma pulimni bering! Asabim tobiga yetganidan o'zimni tutolmadim. Bankdagi hamma xizmatchilar atrofimga yig'ilib, meni yupata boshlashdi:

- Beyafandim, pulingizni olasiz, xotirjam bo'ling, albatta, olasiz!

Pulni oldim. Yonimda yana sakson lira bor. Restoranga yugurdim. To'yib ovqatlandim. Bu yer dan chiqib, eng zo'r mehmonxonaga bordim. Uch kecha-yu uch kunduz qotib uxladim. Uh, shunaqa dunyo ham bor ekan-ku. Yonimdagи pulning hammasini sarflab tamomladim. Boylarning boshiga tushadigan savdolarni o'ylasam, o'zimning turmushimdan xursand bo'lib ketaman. Bedorlik, ochlik azobi, sinib-xonavayron bo'lish yoki o'g'riga talanish vahimasi u bechoralarning boshiga nimalar solishini men juda yaxshi bila man! Yashasin qashshoqlik!

*Turkchadan  
Miad HAKIMOV tarjimasi*

## O'ZING AYBDORSAN

Ishdan haydalganingda dunyo ko'zinga qorong'i ko'rinati. Hammasidan qiyini qiziquvchan do'stlar va tanish-bilishlarga nima sababdan haydalga-ningni tushuntirishdir.

Yo'q-yo'q, men bu gal boshimga tushgan g'ur-  
batlarni gapirmoqchi emasman.

Odatda, birontasi yordam qo'lini cho'zarmikin yoki sal yengil tortarmikanman, deb do'stlarga dardimni aytaman. Bunga javoban esa ular meni iskanjaga olib so'roq qilishadi, sabablarini kov-lashtirishadi, oqibatda, barcha ko'ngilsizliklar-ning aybdori o'zim bo'lib qolaveraman. Men undoq qilmaganimda, bundoq yo'l tutganimda xo'ja-yin menga tegmas emish. Xullas, qovun tushirib-manmi – demak, o'zim aybdorman!

– O'zing aybdorsan! – deya hukm chiqarishadi va shu asno yuzlarida mamnun bir ifoda paydo bo'ladi.

Kunlardan bir kuni o'z yog'imga o'zim qovu-rilib, xayol surgancha ko'chada ketayotgan edim. To'satdan kimdir yelkamdan ushlab qoldi. Qay-rilib qarasam – Usmon Kamol... U yonimda shax-dam kelayotgan edi. Basharamdagi tushkunlikni ko'rishi hamon boshqa qiyofaga kirdi.

– Men... tushunaman, – dedi u ma'nodor qilib.

Demak, u mening ishdan haydalganimni biladi. Endi undan qutilib bo'psan. Hoziroq hammasiga yolg'iz o'zim aybdor ekanimni isbotlash uchun pashshadan fil yasay boshlaydi.

Soxta xayrixohlik qiyofasidagi yashirolmagan quvnoq ifodaga monand emas edi. Men go'yo uning „Tushunaman“ deganini anglamagandek so'radim:

– Nima bo'ldi? Boshingga biron mushkulot tushdimi?

– Menga jin ham urgani yo'q, ammo eshitishimcha, sen yana ishsiz emishsan, – dedi u.

– Hechqisi yo'q, – dedim dadil, bu mavzuda mijg'ovlangim kelmay.

– Qanaqasiga hechqisi yo'q bo'larkan, azizim... – U ko'cha o'rtasida turvolib, ta'kidlardi: – „Eh-he!“ Qahvaxonaga kiraylik, bittadan qahva ichamiz va sen bu voqeа qanday bo'lganini so'zlab berasan, – deya taklif qildi.

– Aytishga arzirli narsaning o'zi yo'q, – dedim.

– Qanaqasiga yo'q bo'larkan! Basharangga qara – kimga o'xshab qolding! Ketdik, ketdik! Dardingni aytsang yengil tortasan.

– Go'yo shu bilan bir nima o'zgaradigandek...

– Sen meni xafa qilyapsan... Axir, men senga do'st emasmanmi?

Biz qahvaxonaga kirdik.

– Xo'sh, qani ayt-chi endi, nima bo'ldi o'zi?... – qahvani ho'play boshlashimiz bilan u qistovga oldi.

– Xo'jayin meni ishdan haydab yubordi...

– Nima uchun?

– Men qayoqdan bilay. O'zidan so'ra...

– Sen ishga kech qolarmidig? – so'roq boshlandi.

– Yo'q, men hamisha ishga o'z vaqtida kelardim.

– Topshiriqlarni bajarmasmidig?

– Yo'-o'q... U ishimdan rozi edi.

– Ehtimol, xo'jayiningning ishi yurishmay qolgandir? – do'stim xuddi boshqotirma yechayotgandek tusmollardi.

– Aksincha, uning omadi chopib turgandi.

U qo'llarini jag'iga tirab, o'ylanib qoldi:

– Ehtimol, unga gap qaytargandirsan?

– Yo'q... Men hamisha xo'jayin nima desa xo'p deb turganman.

Kamol betoqat bo'lib, tirnoqlarini g'ajiy boshladi:

– Yaxshi! Sen maoshing oshirilishini so'ragamidig?

– Yo'q...

– U haqda biron nima degandirsan, ehtimol, noxayrixoh...

– E yo'g'e, baraka topgur!

Shu zaylda yana uzoq so'roqqa tutildim.

– Yo Alloh, yo Alloh!.. Nima uchun u seni ishdan haydab yubordiykin? Ehtimol, sen uning yuziga ham xuddi hozir menga qaraganday surbetlik bilan qaragandirsan?

– Bilmadim... Qarasam qaragandirman.

– A-ha. Mana gap qayerda! Men aytdim-a, bir sababi bor deb. Hech narsadan hech narsa yo'q odamni ishdan haydamaydilar. O'zingdan boshqa hech kim aybdor emas. Xuddi seni yeb qo'ygudek baqrayib tikilib turadigan odam kimga ham yoqardi? To'g'risini aytsam, sen o'zing aybdorsan!

Shunday deya u yengil tortdi...

Do'stim bilan beholgina xayrlashib, qahvaxo-nadan chiqdim. Xo'jayin ishdan haydaganda ham ko'nglim bunchalik g'ash tortmagandi.

Men avtobus bekatiga bordim.

– Biz eshitgan uzunquloq gaplar to'g'rimi? – avtobus ichkarisiga kirishim hamon qulog'imga shu gap chalindi. Orqa o'rindiqda boshqa bir tanishim o'tirardi.

– To'g'ri...

– Afsus... Xo'sh, nima uchun?

– Bilmadim.

G'aroyib jinoyat ustida bosh qotirayotgan politsiyachi misol gap qotdi:

– Voh, voh! Sababsiz odamni ishdan haydashmaydi, bir balosi bordirki...

– Harholda...

– Ehtimol, sen haqingda ma'lumot yetkazishgandir...

– Yo'g'-e...

– Balki, o'rningga boshqa – munosibroq odam topgandir.

– U hamisha ishimdan rozi edi.

– Balki, u kamroq maoshga ham rozi bo'ladi-gan odam topgandir?

– Bunaqasini topib bo'pti!

– Unday bo'lsa, nega seni ishdan bo'shatdi?

Ehtimol, sen u bilan muomalani yo'lga qo'yolma-gandirsan?

– Qanaqasiga qo'yolmaganman? Oddiygina muomala qilganman...

– Voh, mana endi hammasi ravshan.

– Nimasi ravshan ekan?

– Hammasi ravshan...

Axir, xo'jayin bilan oddiy muomala qilib bo'lar-kanmi? Aslo mumkin emas... Sen unga senlab gapirgansan, u esa bundan xafa bo'lgan...

– E yo'q, og'ayni... O'zi xo'jayinning bashara-sini oyda bir marta ko'rardim. Ko'rganimda esa u men bilan gaplashmasdi ham...

– Hammasi tushunarli... Sen behuda gapla-ring bilan uning boshini qotrigansan, bundan xo'jayinning ensasi qotgan. Albatta, xo'jayin haq. Sen o'zing aybdorsan...

Shundan keyin uning ham ko'ngli joyiga tush-di. Birinchi bekatdayoq avtobusdan tushdim. Ko'nglim shu qadar xijil ediki, kimgadir dardim-ni aytmasam bo'lmasdi. Men eski do'stimning uyiga bordim.

– Meni ishdan bo'shatishdi, – dedim unga os-tonadan hatlaboq, – ammo sendan iltimos qila-man – mendan hech narsa so'rama va sababini ham surishtirma...

Mening gaplarimdan keyin u battar qiziqib qoldi:

– Demak, muhim sababi bor ekan-da...  
– Xudo haqqi so'rama...  
– Sen uni bayramlar bilan tabriklab turarmi-ding? Uyiga borib yo'qlarmiding?

Men hech qachon xo'jayinning uyiga bormagan-dim, ammo do'stimni chalg'itish uchun dedim:

– Albatta... Har bayramda, har yangi yilda, ha-misha, har bir qulay fursatda...  
– Hammasi tushunarli.. Hadeb boraversang...  
– Yo'q, men unaqa... tez-tez bormasdim... U boshqalar kabi meni savollarga ko'mib tashladi.  
– Qiziq, sen uning asabiga tegmasmiding?

- Aksincha... U meni yoqtirardi.
  - Unda yana nima bo'lishi mumkin? Aqlim bo-var qilmayapti...
- Toqatim toq bo'ldi va xonada hovliqib yura boshladim.
- Tufling g'archillayapti-ku!.. - do'stim nogoh xitob qildi.

- Ha, g'archillaydi! - deya tan oldim.
- Qachondan buyon?
- Sotib olganimdan buyon, besh oydan beri kiyaman, hamma vaqt g'archillaydi.
- Sen shuni kiyib ishga ham borgandirsan?
- Ha.
- Voh, voh... Men aytdim-a, ishdan bekorga haydashmaydi, deb.

- Sen meni nima uchun ishdan haydashgani sababini topdingmi? - deb so'radim.

Do'stim o'rindiqqa qulay yastanib o'tirib ol-gach, iddaosini boshladi:

- Ertadan kechgacha tuflining g'archillaganiga qaysi ahmoq toqat qilardi! Xo'jayining haq!.. Mana, og'aynichalish, aybing qayerda...
- To'ppa-to'g'ri, ayb menda... - jahl bilan qich-qirdim, - aybdorman, aybdorman! Ammo boshim-ga kulfat tushgan kuni oldingga buni eshitish uchun kelmovdim.

Men eshikni qarsillatib yopdim-u, chiqib ket-dim. Oqshomda kemaga chiqib, Kadiko'yga jo'-narkanman, xayolimdan hamon o'sha mojaro ket-masdi.

- Namuncha uzoq o'ylanib qolding? - deb so'-radi bir notanish. - Biron ko'ngilsizlik bo'ldimi?
- Yo'q, hechqisi yo'q...

- Yuzingdan ko‘rinib turibdi, ta‘bing tirriq. Ay-taver, balki, yordamim tegib qolar.
  - Xo‘jayin meni ishdan haydab yubordi...
  - Nima uchun?
  - Bilmayman.
  - Balki, biron ayb qilgandirsan?
  - Mening tuflim g‘archillaydi... Bundan xo‘jayinning asabi buziladi.
  - Azizim, axir, shugina uchun ishdan bo‘shatishmaydi. Bu yerda boshqa bir gap bo‘lsa kerak.
  - Men xo‘jayinning basharasiga sinchkov tiki-lardim, bu unga yoqmasdi...
  - Buniyam to‘qib chiqaryapsan.
  - Men u bilan kamdan kam gaplashardim.
  - Arzimaydigan gap.
- Men notanish odamning yuziga qarab turib kulib yubordim.
- E-ha, sen, hoynahoy, xo‘jayinning yuziga qarab turib ham xuddi shunday masxaraomuz kulgandirsan-da?
  - Ha, ha, aynan shunday – masxara qiluvdim. Va oqibat, xo‘jayin meni ishdan haydavordi. Aybdor o‘zimman. Endi tushungandirsan? Ko‘ngling joyiga tushdimi?
- Men shartta qayrilib, jo‘nab qoldim.
- Noxush kunni shu zaylda o‘tkazib, uyga qaytdim. Kechki taomdan keyin Ibrohim kelib qoldi. U juda tajang edi. O‘n kun oldin uni ishdan bo‘shatishgandi.
- Voh, voh-voh... Nima uchun bo‘shatishdi? – deb so‘radim.
  - Bilmadim... Xo‘sh, o‘zingni nega haydashdi?
  - Bilmadim...

- Albatta, sababi bor.
- Seni ham bekorga bo'shatishmagandir... Ishga tez-tez bormasmidung?
- Sen kasalliging haqida ma'lumotnomaga ber-maganmidung?..

Biz bir-birimizni so'roqqa tuta boshladik. Suhbat davomida Ibrohim tez-tez aksirib, yo'talar, ro'molcha bilan burnini artar edi.

- Sen, Ibrohim, hoynahoy, tumov bo'lib qolgan-san? – deb so'radim.

– Men eskidan shunaqaman. Surunkali tumov...

Men o'rnimdan sakrab turdim va qo'llarimni yoyib:

- Mana endi tushunarli – nega seni ishdan haydashgani!... – dedim. – Aybdorni qidirib o'tirma, aybdor o'zingsan...

Ibrohim hang-u mang bo'lib, menga qarab qoldi.

- Sen mana shunaqa qilib doimo burningni ro'molchada artib yurasan, boyaqish xo'jayinga bu yoqarmidi?.. Albatta, seni ishdan haydash kerak edi? Shunday emasmi?

Men yengil tortib qoldim. Hatto xursand ham bo'dim. Xuddi yangidan ishga kirganday.

*Shodmon OTABEK tarjimasi*

## **ADABIYOT MUXLISI**

Uyimizning ikkinchi qavatiga yangi qo'shni ko'chib keldi. Uning narsalarini naq bir hafta tashishdi. Bu hozirgi zamon uylari eskilariga o'xshamasligini o'zingiz yaxshi bilasiz. Yangi uylardagi odamlar shundoqqina biqinida kim yashayotganligini ham bilishmaydi. Misol uchun, shundoqqina bizga qo'shni xonadonda islovotxona ochib qo'yan bir malla xotin yashagan ekan. Bu narsa politsiya aralashib, gazetalarda ovoza bo'lgandan keyingina ma'lum bo'ldi.

Men yangi qo'shnilardan hech kimni tanimasdim. Bir kuni yo'lakda men bilan bir kishi juda sertakalluf salom-alik qildi. Men uning salomiga javob berib, jo'namoqchi bo'lib turganimda, gapga tutib qoldi.

– Kamina – Mo'min Akram Ozaner, – deya o'zini tanishtirdi. – Men aynan sizning tepangizdag'i qavatda yashayman. Biron kun oqshomda tashrif buyurishingizni so'rayman. Siz bilan tanishganimdan bag'oyat mamnunman.

Shu tariqa Mo'minbey bilan yo'l-yo'lakay tanishib qoldik.

Oqshomda uning xizmatkori keldi:

– Beyafandi uylariga tashrif buyurmog'ingizni so'rayaptilar.

– Kechirgaysiz, bugun bandman, mehmonlarim bor.

O'sha kundan e'tiboran Mo'minbey har kuni kanda qilmay meni mehmonga taklif qilardi. Al-batta, borib qo'ysam ham bo'lardi, ammo unda uning o'zini ham mehmonga chorlashim lozim edi. Uyimizda esa to'rtta maymoq stulchadan boshqa hech vaqo yo'q. Begona odam oldida xijolat bo'lgim kelmasdi. Har oqshom uning xizmatkori kelib, xo'jayini astoydil mehmonga taklif qilayotganini aytib ketardi. Axiyri mabodo bormaydigan bo'ssam, sudrab bo'lsa-da uyiga olib ketadigan-dek tuyuldi...

Bir kuni kechki taomdan so'ng o'sha qo'shnim-nikiga kirib bordim. Xuddi ko'rgazmaga qo'yilgandek zamonaviy maishiy jihozlar haqida gapirib o'tirmayman. Sovutkich, changyutkich, radiola, kir yuvish mashinasи, tezpishirar tovalar uyini bezab turardi.

Mo'minbey meni o'z xonasiga taklif etdi. Kirdim-u, hang-u mang bo'lib qoldim – yerdan shift-gacha devorlardagi tokchalarda liq to'la kitoblar taxlab qo'yilgandi. „Demak, u haqda men noto'g'ri fikrga borgan ekanman-da!“. Men Mo'minbeyni shunchaki omadi chopgan boyvachcha bo'lsa kerak, deb o'ylagandim.

– Ziyoli odamlarga ixlosim baland, – dedi u.

Gap-so'zlari andak dag'alroq edi. „Xo'sh, nima bo'pti!..“

– Nima ish qilasiz?

– Bir idorada ishlayman, – dedi u.

Mo'minbey she'rlaridan o'qib berdi.

– Qalay ekan? – deb so'radi.

– Zo'r!..

U yana o'qishda davom etdi. Keyin she'riyatdan hikoyalarga o'tdi.

– Hikoyalaram yaxshiroq chiqqan, – dedi u.

Keyin pyesalarini o'qishga o'tdi. Ko'nglim ayniy boshladi. Uni bu mashg'ulotdan chalg'itish uchun kitob tokchalariga qo'l cho'zdim:

– Qancha yillardan buyon adabiyot bilan shug'llansam ham, bunchalik boy kutubxonaga ega bo'lomadim.

– Tokchalardagi bu kitoblarining hammasi – sovg'a! – deya maqtandi Mo'minbey.

– Shunaqami?.. Kim sovg'a qilgan?

– Hamma yozuvchilar, mualliflar bilan tanishman... Ular meni hurmat qilishadi, asarlari chiqqanda hamisha tuhfa etishadi.

Men hayratdan lol qoldim.

– Siz Falix Rifqi bilan tanishmisiz? – deb so'radi u.

– Uning nomini eshitganman, – deya javob qildim.

U tokchadan kitobni olib ko'rsatdi:

– Mana uning sovg'asi...

Men kitobni qo'limga oldim. Bu Falix Rifqining „Zaytunzor“ degan kitobi edi.

– Menga nima deb yozganini o'qib ko'ring.

Kitobning zarvarag'ida shunday yozuv bitilgandi: „*Mening og'am, hurmatli janob Mo'min Akromga do'stligimizdan xotira sifatida taqdim etaman. Falix Rifqi...*“.

Falix Rifqining „do'stligimizdan xotira sifatida“ deb yozishi... Tag'in kim biladi deysiz!..

– Mana bu Rashod Nuridan xotira...

„Choliqushi“... „Mo‘minbeyga ehtirom ila... Rashod Nuri“.

– Men savdo bilan shug‘ullanaman, bu yozuv-chilarning hammasi mening do‘sstlarim.

U menga yana bir kitobni uzatdi:

– Bu Rushen Ashrafbeyning sovg‘asi...

Kitobdagi dastxatni uning o‘zi o‘qib berdi:

„Mening og‘am Mo‘minbeyga chuqur hurmat-ehtirom ila... Rushen Ashraf“.

Yoqub Qadriyning „Begona“si... Xolid Edining „Yurak iztirobi“... Hammasiga dastxat bitilgan. Goho tokchalarda ko‘rimsizgina kitoblar ham uchrab qolar, lekin ularda ham dastxatlar bor edi.

Kitoblarni titkilayotib men nogoh o‘zimning romanimni ko‘rib qoldim. O‘shanda men asarlarimni taxallus bilan chop ettirardim. Kitobimning zarvarag‘ini ochib ko‘rsam, u yerda ham dastxat bor ekan:

„Muhtaram Mo‘minbey afandiga... Ehtirom ila Hasan Yako“.

G‘azabim junbishga keldi.

– Siz Hasan Yako bilan tanishmisiz? – deb so‘radim.

– Agar men u bilan tanish bo‘lmaganimda kitobi shu yerda turarmidi?.. U kechagina shu yerda bo‘lgandi.

Men o‘rnimdan qo‘zg‘aldim.

– Ertaga sizni uyimda kutaman!.. – dedim xayrlashayotib.

– Bezovalta qilarkanman-da!.. – deya javob qildi.

Darhaqiqat, kelgusi oqshomda u meni rostdan ham „bezovalta qildi“. Men bu nusxaning andak ta-

nobini tortib qo'yish uchun bir shumlikni o'ylab qo'ydim. Qahva ichib bo'lganimizdan keyin men unga shunday dedim:

– Mening kitoblarim siznikichalik ko'p emas, ammo dastxat bitilganlari ham bor.

– Juda yaxshi-da... Qanday kitoblar ekan?

Men tokchadan Ahmad Vofiq poshoning Mol-yerdan qilgan tarjimasini olib, Mo'minbeyga uzatdim.

– Qani o'qib ko'ring-chi, Ahmad Vofiq posho menga nima deb yozgan ekan?

U kitobdag'i dastxatni o'qidi:

– „*Qimmatli o'g'lim Hasanbeyga... Ahmad Vofiq*“.

– Bu Ahmad Vofiq posho degani uchinchi harbiy qismda qo'mondon bo'limganmidi? – so'rab qoldi mehmon.

Javob o'rniga men Naim 1 qalamiga mansub bo'lgan tarix kitobini oldim. Men uning qovun tushirib qo'yanini o'zi ham payqab, uyalsa kerak deb o'yladim.

– Buni qarang, Naim menga qanday dastxat bitgan: „*Kamtarona asarimni ixlosim ramzi sifatida taqdim etaman. Hurmat-ehtirom ila sizning qulinqiz Naim*“.

Men Mo'minbeyning qiyofasidagi o'zgarishni kuzata boshladim. U jimgina kitoblarni tomosha qilardi. „Har qalay, qanday bema'ni ish qilib qo'yanini anglab yetgandir“ deb o'yladim-u, o'zim ham shu asno xijolat chekdim.

– Bu Naim deganingiz qahvani xorijdan olib kelib sotish bilan shug'ullanmasmadi? – nogoh so'rab qoldi u.

Men serrayib turib qoldim. Agar shu tobda og'iz ocholganimda edi, bu nusxaning holiga maymunlar yig'lardi.

– Sizda mashhur shaxslarning asarlari yo'qmi?..

Men kitoblar orasiga qo'l uzatib, „Faust“ni oldim.

– Mana Gyote! – dedim. – Uning dastxatiga qarang: „Mening Hasanjonimga“.

– Muallifini kim dedingiz? – deb so'radi.

– Gyote... Gyote... Gyote... – deya bir necha bor takrorladim. – E, darvoqe, esladim, bu yigit bir vaqtlar „Doj“ avtomobilini sotish bo'yicha agent bo'lgan.

Qotillar sodir etgan jinoyatlari haqida hikoya qilarkan, eng dahshatli joyiga kelganda shunday deyishadi: „U yog'ini eslolmayman“. Men ham keyin nima bo'lganini eslolmayman.

Men politsiya mahkamasida Shekspir tomligini ushlagancha o'zimga keldim. Mo'minbeyning aftangori momataloq bo'lib ketgandi.

– Men bu bezori ustidan arz qilaman, – dedi u men tomonga ishora qilib.

– Nima gap o'zi? Oralaringdan qanday ola-mushuk o'tdi? – politsiya komissari menga murojaat qildi.

Men Shekspirning portreti aks etgan kitobni uzatdim.

– Kim bo'ldi bu soqolli kimsa? – deb so'radi komissar.

– Shekspir!..

– A-ha!.. Demak, xorijiy?..

– Angliyalik!..

– Nima ish qiladi?

- Shoir...
- Qayerda yashaydi? Qachon, nima maqsadda siz u odam bilan tanishgansiz? Men Mo'minbeyga o'girildim.
- Meni ushla, mahkamroq ushla!.. – deb iltimos qildim.  
Komissar ikkita politsiyachiga ishora qildi.
- Bularni siyosiy politsiyaga olib bor, biz bu-naqa ishlar bilan shug'ullanmaymiz.

*Shodmon OTABEK tarjimasi*

## **ESINI KIRGIZIB QO'YDI**

Tahririyatda ish qizg'in edi. Men o'shanda politsiya va sud xronikasida reportyor edim. Xonamizga Hasan kirib keldi. U birinchi xavfsizlik boshqarmasida matbuot masalalari bilan shug'ullanardi. Qorachadan kelgan yuzlari tirjayib turardi. Bu yaxshilik alomati emasdi. Hatto hamkasbining o'limi haqidagi shumxabarni ham u xuddi xushxabar keltirgandek ma'lum qilardi.

Muharrir uning basharasidagi iljayishni ko'rib, siniq ovozda so'radi:

– Sovuq gapmi? Hoynahoy, yana bir ishkak chiqqandir.

Hasan shu zahoti „xushxabar“ini e'lon qildi:

– Sizlarning gazetalarining yopildi. Shuni ma'lum qilib qo'ymoqchiman.

„Ma'lum qilib qo'ymoqchiman“, degani uning og'zidan xuddi „tabriklayman“, deganday jarangladi.

– Nega endi? – deb so'radi muharrir.

– Favqulodda holat munosabati bilan hukumat chiqargan farmon. U „favqulodda holat“ deganida tovushi quvonchdan titrab ketgandek bo'ldi.

– Nima, rasmiy farmoyish chiqdimi? – deb so'radi muharrir.

– Keyinroq chiqadi, – javob qildi Hasan.

Malaylik suyak-suyagigacha singib ketgan bu Hasan degani shu qadar betoqat kimsa ediki, hech qachon, har qanday holatda telefonogrammaning mashinkadan chiqishini kutib o'tirmas, noxush xabarni hamisha o'zi ma'lum qilar edi. Allohga shukrki, endi zamona sal yengillashdi. Loaqal „Farmoyish chiqqanmi?“ deb so'rash mumkin. Vaholonki, bundan o'n olti oy muqaddam bunaqa savolni berib ham bo'lmasdi.

Mana, uzoqdan mototsiklning shovqini eshitildi. Har gal mototsiklning shunaqa pot-poti qandaydir bir nashrnning yopilganidan yoki shunga o'xshash bir noxushlikdan darak berardi. Mototsikl mingan politsiyachi gazetaning yopilgani haqidagi farmoyishni keltirgandi. Biz tishimizni tishimizga bosib, jim turardik. Keyin birdan tarqab ketdik. Yigirma olti nafar xodimning hammasi tahririyatni tark etdi. Bularidan yetti nafarimiz o'n kun muqaddam yopilgan gazetadan kelgan edik.

O'sha davrda gazeta xo'jayinlari ishdan bo'shatilgan jurnalistlarga nafaqa to'lamasdi. Kasaba ittifoqi ham yo'q edi. Biz ishsiz va pulsiz qoldik. Ikki oy mobaynida men uchta gazetada ishlab ko'rdim, hammasini navbatil bilan yopishdi.

Har bir bo'shagan xodim o'rniga o'nlab talabgor tayyor turardi.

Ishsizlikning ikkinchi oyidan keyin ahvolim juda tang bo'lib qoldi.

— Gazetamizda musahhihlik o'rni bor. Men seni tavsiya qildim. Hoynahoy, olishsa kerak. Tezda yetib bor, hech kimga og'iz ocha ko'rma, — dedi menga rahmi kelgan bir tanishim.

Bu gazetaning nufuzi ancha baland edi. Uning xo'jayini hukmron partiyada deputat edi.

Men ishga joylashganimda deputat Yevropa bo'ylab sayohatga ketgandi.

Boshlig'imiz qurumsoqlik qilib, har bir xona-ga telefon o'rnatmagandi. Shunday katta gazeta tahririyatida bor-yo'g'i ikkitagina telefon o'rnatil-gandi – bittasi xo'jayinning xonasida, ikkinchisi xodimlar o'tiradigan xonada edi. Men kechalari bo'sh turadigan ana shu xonada ishlar edim. Tunda navbatchilik qiladigan kotib qo'shni xo-nada o'tirar, men devorni dukullatib uni telefon-ga chaqirardim.

Bizning kotibimiz qip-qizil xotinboz edi. Res-toran-kafelardagi jamiki qizlar, raqqosalar, kino-aktrisalar bilan apoq-chapoq. Har kecha uni o'nlab ayollar qidirib qolardi. Men tinimsiz devor-ni dukullatardim. Ammo u xonasida navbatdagi jononi bilan maishatdan bo'shamas, telefonga ham umuman kelmas yoki hadeganda kelaver-mas edi.

Men, nihoyat, ish topganidan juda mamnun edim va ishdan haydar yuborishlaridan qo'rqib-qaltirardim. Uzoq muddat ishsiz yurib, kamxarj-likdan qiynalganim uchun har qanday og'ir yu-mushni bajarishga ham tayyor edim. Shu bois mendan nimani iltimos qilishsa, yo'q demasdim.

Meni ishga joylab qo'ygan tanishim shunday derdi:

– Xo'jayinning xotinidan boshqa hech kimdan qo'rqlama. Undan nariroq yursang, hech kim mu-shugingni pisht demaydi.

– Xo'jayinning xotini bilan ishim nima?

– Unday dema... Bu xotin emas, naq Azroilning o‘zi... Hamma yerga burnini suqadi.

Gazeta xodimlari uning nomini eshitib oq titrab-qaltirashardi.

Cheksiz hokimlikni qo‘lgan kiritgan ayollar kabi uni „begoyim“ deb atashardi. U hammani qo‘r quvda ushlab turardi. Men u bilan to‘qnashmaslikka intilardim.

Ish boshlaganimga ham uch oy bo‘lib qoldi. Bir kuni tunda musahhihlik qilib o‘tiruvdim. Bu bir sportchi haqidagi juda qiziqarli roman edi. Mutilaaga berilib ketgandim. Shu mahal telefon jiringlab qoldi. Men go‘sakni ko‘tarib ayol kishining ovozini eshitdim. Kotibni so‘rashayotgan ekan.

Men devorni bir necha bor urdim. „Bir daqqa, kelyapti“, – deya javob qilib, go‘sakni stolga qo‘yib qo‘ydim. O‘zim yana ishga berilib ketdim. Roman ham tugadi. Kotib xonada ko‘rinmadi yoki muhim ishlar bilan band edi. Men telefon go‘sagini joyiga qo‘ydim.

Darhol yana qo‘ng‘iroq bo‘ldi.

– Sizni eshitaman.  
– Menga qara, kimsan o‘zing? – deb so‘radi o‘sha ovoz.

– Sen o‘zing kimsan?

Men qo‘ng‘iroq qilayotgan bu ayolni kotibning tungi jazmanlaridan biri bo‘lsa kerak deb o‘ylabman. Bu xo‘jayinning xotini ekan!..

– Men sendan kotibni chaqirib qo‘yishingni so‘raganmidim?  
– So‘ragan eding... Men devorni dukullatib chaqirdim.  
– Yaxshi, ammo qani u?

- Men qayoqdan bilay?..
- Senimi, shoshmay tur, hozir o'zim boraman!  
„Mana senga tarbiyasiz, ko'cha ayoli!“
- Sen sal o'pkangni bosib ol! – dedim.  
Keyin, ayol meni so'kkach, shunday dedim:
- Mening tarbiyam sen bilan boshqa gapla-shishga imkon bermaydi.

Telefondan yana shang'illash eshitildi:

- Voy xomkalla-yeys!.. Qayerda bunaqa tarbiya oglansan? To'nka!

- Jim!

- Eshak!..

- O'zing eshaksan!

- Cho'chqa!

- O'zing cho'chqasan!

U har gal so'kinganida „O'zing shunaqasan“, deb turaverdim. Nihoyat:

- Men senga ko'rsatib qo'yaman! – dedi.
- Qani kelib ko'r-chi, shunda ko'ramiz kim kimga ko'rsatarkin! – deya javob qildim.
- Tuf senga, ablah!
- O'zing ablalhsan! Sen nima – aqldan ozding-mi? Namuncha menga yopishib qolding?
- Oh, hozir o'zimdan ketib qolaman! Men sendan kotibni chaqirib berishni so'rovdimmi? Axir, sen uni hozir keladi demaganmiding?

U xuddi pulemyot kabi tinimsiz tarillab, so'kinardi. Men bo'ssam hammasiga „O'zing shunaqasan, o'zing shunaqasan, bu sensan, bu sensan“ deb javob qilardim.

- Qani, menga kotibni chaqirib qo'y-chi!
- Sen nafsingga kamroq ovqat yegin-da, tejalgan pulga xizmatkor yollab ol. Bu yerda malaying yo'q.

Men fig'onim falakka chiqib, devorni urdim va  
kotibga baqirdim:

– Telefonga kelsang-chi... Sening isqirt suyuq-  
oyoqlaring jonimga tegdi. Bunaqa og'zi shalaq-  
larni qay go'rlardan kovlab topgansan o'zi?

Bu gaplarni haligi xotin ham eshitsin, deb te-  
lefond go'shangiga qichqirib aytdim.

Kotib kelib, telefonda gaplasha ketdi:

– Sizni men eshitaman... Buyuring, xonim...  
Qanday?.. Ha-a... Nimalar deyapsiz!.. Kechirim so'-  
rayman... Sizning sodiq qulingiz... Kechirgaysiz...  
Biz... Ha... Musahhih... Yaqinda ishga keluvdi,  
xonim... – Kotibning yuzlari gezarib ketdi. U go'-  
shakni qo'ydi.

– Menga qara, nima qilib qo'yding o'zi? – deb  
so'radi u.

– Nima bo'pti?

– Sen „begoyim“ni so'kibsan...

Hushimdan ketib qolayozdim.

– Haydavorisharmikin? – dedim ingrab.

– Xo'jayin hozir Yevropada, – dedi kotib. – Qay-  
tib kelishi hamon seni ishdan bo'shatadi.

– Agar unga yalinib-yolborsam-chi, kechirim  
so'rasam-chi, anglashilmovchilik bo'pti, desam-  
chi...

– Foydasi yo'q. U xotinidan o'lgudek qo'rqed. „Begoyim“ning gapini ikki qilolmaydi.

Demak, meni yana ishsizlik, qashshoqlik ku-  
tib turardi. Men shu haqda o'ylab turganimda  
telefon jiringlab qoldi. Yana o'sha ovoz ekan.  
Nima bo'lganda ham baribir meni ishdan hay-  
dashadi endi, najot yo'q... O'ladigan ho'kiz bol-  
tadan qaytmaydi.

– Senga nima kerak yana? – birinchi bo'lib o'zim hujumga o'tdim.

Men uning yana shallaqilik qilishini bilardim.

– Siz yaqinda men bilan gaplashuvdingiz va hoynahoy, kim bilan so'zlashganingizni bilma-gandirsiz?

– Biluvdim. Siz o'sha – „begoyim“ deb atasha-digan jodugarsiz. Siz bilan nima haqdayam gap-lashish mumkin?

Xonim jazavaga tushdi:

– Nima-a? Demak, bilgansan...

Men shu zahotiyog telefon go'shangini qo'yib qo'ydim.

Endi ortga yo'l yo'q edi.

Bu voqeadan taxminan bir hafta o'tgach, xo'ja-yin sayohatdan qaytib keldi. Men qo'rquvdan tit-rab-qaqshardim. Xo'jayin qaytgan kunining erta-siga meni chaqirdi. Men uning xonasiga kirdim. Men ilinj bilan xayol qilardim: „Agar iltimos qilib ko'rsam, balki, rahmi kelar!“

Men uning ro'parasida qornimni asabiy silab turardim.

– Marhamat, o'tir, o'g'lim.

– E, yo'g'-e...

– O'tir, o'g'lim, o'tir...

U jilmayib turardi. Men ro'parasidagi o'rindiqqa o'tirdim.

– Men seni tabriklayman. Rahmat... Men bir umr sendan qarzdorman... Sen bizning „begoyim“ning esini joyiga keltirib qo'yibsan... Barakallo!.. O'n sakkiz yil chekkan azoblarimning o'chini olib berding. Qoyil!.. Axir, unga bir og'iz gap aytib bo'lmasdi-ya. Uni ham so'kish mum-

kinligini tasavvur qilolmasdim. To‘g‘ri qilibsan. Pastga tushgin, aytib qo‘yanman, senga ellik lira mukofot puli berishadi.

Buxgalteriyada men ellik lira oldim. Shundan buyon har bir telefon qo‘ng‘iroq‘iga yugurib boraman. Balki, yana „begoyim“ qo‘ng‘iroq qilib qolsa, og‘zimga kelgan so‘zlar bilan so‘karman, deb. Ammo u boshqa telefon qilmasdi. Faqat bir oqshom uning o‘zi tashrif buyurib qoldi. Men xonamda yolg‘iz edim. Begoyim kirib keldilar.

– Sizmisiz musahhih? – deb so‘radi.

– Ha.

– Telefonda meni so‘kkan sizmidingiz?

„Begoyim“ning kim ekanligini shunda bildim. Telefonda gaplashish qayoqda-yu, u bilan shundoq yuzma-yuz turish qayerda... Men boshimni egib, indamay turaverdim.

– Men sizni tabriklayman, – dedi u. – Men ko‘nglidagini shundoq dangal aytadigan odamlarni yoqtiraman. Siz menga tikilmang: oshqozonim kasal, shuning uchun juda asabiyman. Men erimga siz uchun ikki yuz lira mukofot puli ajratishini tayinladim.

Demak, meni xo‘jayin emas, „begoyim“ mukofotlagan ekan. Buning ustiga insofsiz yuz ellik lirani urib qopti.

– Nega indamayapsan? Ehtimol, bermaganadir? Bilardim-a, uning bermasligini! – deya qichqirdi-yu, erining xonasiga yugurib ketdi. U yerda dahshatli to‘s-to‘polon ko‘tarildi. Meni chaqirib qolishdi. Xo‘jayin qo‘rqa-pisa so‘radi:

– O‘g‘lim, axir, men senga ikki yuz lira bermovdimmi?

„Begoyim“ goh menga, goh eriga qaraydi. Ko‘z-laridan olov sachrardi. Agar shu tobda „bermadi“ desam, erini urib sulaytiradi, „berdi“ desam meni uradi. Men xo‘jayinga dedim:

– Xo‘jayin, menga tegishli ikki yuz liraning el-ligini oldim. Qolganini har oyda olib turaman.

– Mana ko‘rdingmi, azizam, sen bo‘lsang ishon-movding.

Keyin u menga o‘girilib dedi:

– Endi, o‘g‘lim, tezda borib qolgan pullaringni ol!..

*Shodmon OTABEK tarjimasi*

## **ODAM QANDAY AQLDAN OZADI?**

- Janoblar, – dedi ko'zoynakli kishi tanta-navor ohangda, – biz bir to'xtamga kelishdan oлdin hammasini obdan o'ylab, pishitib olishimiz kerak. Bunaqa ishda shoshma-shosharlik ket-maydi.
- To'ppa-to'g'ri, – deya qo'llab gapirdi davra-dagilarning eng yoshi, – juda jiddiy o'ylab ko'rish kerak. Aks holda boshimizga balo bo'ladi.
- Avvalo, biz undan rozimizmi – shuni aniqlab olishimiz lozim, – dedi sepkilli janob.
- Norozimiz! – yig'ilganlar jo'rovoz bo'lib javob qilishdi.
- Nima uchun? – yana so'roqladi sepkilli.
- Axir, u jinni-ku! – ko'zoynakli janob xitob qildi.
- Ha, ha, jinni!
- Jinni! – har tomondan qichqirishdi.
- Tushunarli, – bosh irg'adi sepkilli, – hamma gap shunda. Bizning vazifamiz – g'aflatda qolmaslik va yana jinnini saylamaslik.
- Oldingisi ham tentakroq edi, – qo'shimcha qildi semiz kishi.
- Men bilgalarning hammasi tentak edi.
- Xo'sh, shunday ekan, kelinglar, obdan o'ylab ko'raylik va nihoyat aqlirasoroq bir kimsani saylaylik, – dedi yosh yigit donolik bilan.

- Ajabo, biz ularni saylaganimizda hammasining aql-hushi joyida edi, – dedi ko'zoynakli janob hayron bo'lib.
- Ha, ular aqlli, ollyjanob odamlar edi. Ammo eng aqllisi ham, oxir-oqibat, tentak bo'lib chiqdi.
- E Alloh, – dedi davradagi keksa kishi tashanib, yo'talarkan, – yozug'imiz ne edi? Hammasi mana shu la'nati amalga minganda aqlini yo'qotadi-ya.
- Ayni biz shu mansabga saylagan kimsalar! – qo'shimcha qildi semiz kishi.
- Gap lavozimda ham emas! – dedi yosh yigit. – Hoynahoy, nomzodlarimizning avvaldanoq sal... tomi ketgan, ammo ulardagi tentaklik alomatlari saylovgacha bilinmasdi. Lavozimga o'tirishlari bilan ularning dardi qo'zib, kuchayib ketadi.
- Eskisimi yoki yangisimi, xotiram pand bermasa, hammasi, oxir-oqibat, aqlini yo'qotardi. Bironta es-hushi joyida bo'lganini ko'rmadim, – dedi chol yo'talini arang bosib.
- Nimalar deb valdirayapsizlar! Biz u bilan mana o'ttiz yildan buyon do'stmiz. Hokimlikka saylanguncha unda hech qanday kasallik alomatlari sezilmagan! – dedi sepkilli janob achchiqlanib.
- Hmm... Onadan tug'ma tentak bo'lib dunyoga keladigan odam kamdan kam uchraydi. Demak, aqldan ozish uchun oldin hokim bo'lish kerak ekan.
- Janoblar, ortiqcha tortishishdan foyda yo'q, – hamsuhbatlarning gapini bo'ldi ko'zoynakli kishi. Oldimizda bundan ham muhim vazifa turibdi: bu gal kimni shahar hokimi etib saylaymiz?

Yig'ilganlarning har biri qandaydir nomzodni tilga olishar, ammo shu zahotiyoq har bir nomzodga e'tirozlar yog'ilardi. Axir bo'lajak hokim saylov-gacha ham, undan keyin ham jinni bo'imasligi lozim edi-da. Yuzlab nomzodlar tilga olindi.

– To'xtanglar! – kutilmaganda ko'zoynakli janob xitob qildi. – Men topdim! Rasimbey haqida nima deysizlar?

- Xudoga shukr, iymonli odam.
- Halol. Tarbiya ko'rgan. Kamtarin.
- Hasadgo'y emas. Hammaga yaxshilik tilaydi.
- Uddaburon, beg'azar, xushmuomala.
- Ishchan.

Rasimbey sha'niga maqtovlar yog'ilib ketdi.

– Ammo, menimcha, Rasimbey hokim bo'lishni istamaydi, – e'tiroz bildirdi semiz kishi.

– Siz haqsiz, men uni bolaligidan bilaman. Rozi bo'lishiga ko'zim yetmaydi, – kovshanib qo'shimcha qildi chol.

– O'la qolsayam hokim bo'lmaydi u! – tasdiqladi sepkilli.

– Nima qilish kerak? – ko'zoynakli odam kallasini changalladi. – Men ham shunday fikrdaman, ammo nima qilsak ekan? Endi munosib nomzodni topganimizda... hammasi chappasiga ketsa!

Agar bu odamlar tavsiya qilgan nomzod saylovda o'tmay qolganda ham boshqa gap edi. Xalq ularga ishonadi va ko'rsatilgan nomzodni saylaydi.

Yig'ilganlar o'rnidan turib, Rasimbeyning uyi-ga ravona bo'ldilar. Unga o'z takliflarini aytdilar. Gap orasida hamma hokimlar ertami-kechmi aql-dan ozishini ham pisanda qilib qo'yishdi.

– Demak, sizlar mening ham jinni bo‘lishimni istaysizlarmi? Menda qasdinglar bormi o‘zi? – Rasimbeyning fig‘oni falakka chiqdi.

– Xudo haqi, o‘zingni bos. Sen aqlli odamsan. Iltimosimizga yo‘q dema.

– Yo‘q, ilojim yo‘q.

– Bu sening Vatan oldidagi burching, Rasimbey.

– Millatning bor-yo‘q umidi sendan.

– Bu, axir, davlat ahamiyatiga molik masala.

– Hay mayli, men roziman, faqat bir shartim bor...

– Marhamat! Bir og‘iz so‘zing...

– Mening shartim shunday. Keyin meni so‘kib yurmasligingiz uchun gapning po‘stkallasini aytmoqchiman. Menga xushomadgo‘ylar kerak emas... Ziyofat-u tantanalar bekor qilinadi, til-yog‘lamalik va maddohlik unutiladi. Xo‘s, qalay, yoqadimi? Talabimni uddalash qo‘lingizdan keladimi? Men ham xuddi sizlar kabi oddiy bir xom sut emgan bandaman. Xudo haqi, meni tentakka chiqarmanglar. Rozimisizlar endi?

– Rozimiz! – hamma suyunib xitob qildi.

...Rasimbey ko‘pchilik ovoz bilan hokim bo‘ldi. O’sha kunning o‘zidayoq ellikdan ortiq telegramma keldi. U bulardan birini olib, muqaddimasini o‘qib ko‘rdi:

*„Muhtaram afandi, o‘z xalqining asl farzandi, janob Rasimbey...“*

Rasimbey boshqa telegrammalarni ochib o‘tir-madi.

– Yo Allohim, o‘zing qo’llagaysan! – deya ta-vallo qildi.

Oradan ko‘p o‘tmay eshik taqillab qoldi.

Ko'zoynakli janob kattakon guldasta ko'tarib kirdi. Chuqur ta'zim ila Rasimbeyni tabrikladi.

Oradan yana bir muddat vaqt o'tgach, qandaydir bir qo'litiqtayoqli, qotma chol ham guldasta ko'tarib keldi. Shu bahona u Rasimbeyning qolini o'pib oldi.

„Behuda ovora bo'lyapsizlar!“ – dedi u sovuq-qonlik bilan, keskin ohangda. Ammo bular hali holva edi: tabriklash uchun seckilli yosh yigit bilan semiz kishi ham tashrif buyurishdi. „Yaratganning o'zi aqlimdan mosuvo qilmasin!“ – dedi Rasimbey xit bo'lib.

Ayni chog'da unga „Sizning sharafingizga ziyo-fat uyuşhtirilmoqda!“ degan xabar yetkazildi. Rasimbey ziyofatga borsammi, yo'qmi, deya hali bir to'xtamga kelib ulgurmay, eshigi yonida mashina to'xtadi.

Ziyofatxona shoh saroyiga o'xshardi. Qirq nafar kishiga mo'ljallab dasturxon tuzalgan. Qandillar, gullar, shamdonlar ko'zni qamashtiradi.

Ko'zoynakli kishi qo'liga qadah olib o'rnidan turdi. Rasimbey sha'niga qutlov so'zi aytib, uni yuqori lavozim – shahar hokimi etib saylangani bilan tabriklarkan, shunday dedi:

– Janoblar, huzurimizda noyob aql-u zakovat sohibi turibdi! Bu – ulug' shaxs. Bu – kamyob inson! Uning beqiyos iste'dodi tufayli bizning shahrimiz qisqa bir fursatda...

Rasimbey darg'azab bo'ldi, namoyishkorona ziyofatni tark etdi. – Ehtimol, bu ularga saboq bo'lar! – deb o'yladi u.

Ertasi kuni u ishga ketayotib, ko'chadagi bayramona tantanani ko'rib qoldi. Uning uyidan to

shahar hokimligigacha gilamdan poyandoz to‘shalgandi. Karnay, surnay va do‘mbiralar jo‘rligida o‘yin-kulgi qilishardi. Chor atrof dafna yaproqlari bilan bezatilgan. Yo‘laklarda o‘quvchilar saf tortgan. Rasimbey ko‘ringan zahoti qarsaklar chalinadi va „Yashasin hokimimiz!“ degan xitoblar yangraydi.

Yoshgina bir yigit do‘mbirachining qulog‘iga qichqiradi:

– Dadilroq, dadilroq chal!

Bolalarni ham qistab qo‘yadi:

– Qattiqroq, qattiqroq qichqiringlar!

Rasimbeyning oyoqlari ostida qo‘ylar qurbanlikka so‘yildi. Shahar hokimligi binosi peshtoqida dafna yaproqlari bilan bezatilgan shunday shior osilgandi:

„Yangi hokimning umri boqiy bo‘lsin!“

Minbarni bor soxt-sumbati bilan egallab olgan semiz kishi shunday qichqirardi:

– Yangi hokimimiz hamshaharlarimiz qalbini o‘zining ishchanligi, adolatparvarligi, oliyjanobligi bilan zabit etdi.

Darg‘azab Rasimbey oldinga tashlanadi, semizning qo‘lidan ma’ruza matnini tortib olib, yirrib tashlaydi.

– Menga bunaqa paxta qo‘yishlar kerak emas! – deb na’ra tortadi.

– Vatandoshlar! – dedi bunga javoban sepkilli yigit. – Siz umringizda shunaqa kamtarin insonni ko‘rganmisiz? Yashasin yangi hokimimiz!

– Yashasin! Yasha-sin!

Gulduros qarsaklar yangradi. Boyaqish Rasimbey xuddi do‘ldan qochgandek ma’muriyat bino-

siga o'zini urib yashirindi. Qabulxona hokimni tabriklash uchun kelganlar bilan gavjum edi.

– Buyursinlar! – yoshgina yigit qo'l qovushtirib, buyruqqa mahtal turardi.

– Hech kim sizchalik o'z ishiga bu qadar yuskak mas'uliyat bilan yondashmagan! – dedi qotma chol.

– Xudo haqi, qasam ichib aytamanki, men iste'foga chiqib ketaman! – achchiqlandi Rasimbey. – Ko'zimdan yo'qolinglar!

Tashrif buyurganlar qo'rqa-pisa tashqariga chog'lanishdi:

– Bir og'iz so'zingiz!

– Xizmattingizga muntazirmiz! Har qanday buyrug'ingizni bajargaymiz.

Rasimbey chor-nochor uh tortdi: „Yo Alloh!“

– Damingizni oling, afandim! – g'amxo'rlik bilan maslahat berdi sepkilli kishi.

– Ketinglar! – qichqirdi hokim.

Ishlashga imkon yo'q edi. Rasimbey ko'chaga chiqdi.

– Chetlaninglar! Hokim kelmoqda! – qandaydir bir yosh yigit yo'lovchilarni tarqata boshladi.

Rasimbey ming mashaqqat bilan uyiga yetib oldi. Shu kuni u hech qayoqqa bormadi. Ertasi kuni u shaharda chiqadigan ikkita gazetani kel-tirishni so'radi. Bu gazetalar birinchi sahifalarida uning yirik fotosuratini bosib chiqargandi. Ular-dan birida shunday tagso'z bitilgandi:

„Hamyurtlar faxrlanadigan buyuk zakovat egasi“, boshqasida esa „Jahondagi eng ishchan hokim“ deb yozilgandi.

Oqshomda uyiga kelishdi:

– Janoblariga qay biri ma'qul – raqqosalar uyingizga kelishsinmi yoki kazinoga o'zları tashrif buyuradilarmi?

– O'zim boraman, – dedi Rasimbey.

– Biz hokimimiz bilan bir havodan nafas olayotganimizdan benihoya faxrlanamiz, – dedi kazinodagi yosh notiq yigit. U yarim soat nutq irod qildi. Rasimbey uning so'zini bo'lmasdi.

Notiqdan keyin ko'zoynakli odam so'z oldi.

– Bizning hokimimiz olivjanoblikning yorqin timsoli ekanligidan mamnummiz!

...Oradan bir yil o'tdi. Ko'zoynakli odam, semiz kishi va qotma chol o'zaro gurunglashishardi.

– Biz u bilan hech narsaga erisholmaymiz! Axir, jinni bilan bir ish qilib bo'ladimi?!

– Ha, ha, u – g'irt jinni!

– U oldingilardan ham battar ekan. Hokim emas, boshimizga bitgan bir balo bo'ldi.

– Xuddi tog'ni tolqon qilgandek maqtanishini aytsang-chi.

– Go'yo o'zidan boshqa bu dunyoda hech kim yo'qdek.

– Buyuklik kasaliga chalingan!

– Tutqanog'i ham bor. Ular asli shunaqa bo'la-di, men aniq bilaman.

– Endi uni nima qilsak ekan? Nahotki yangi saylovgacha chidab yursak?

– Qanaqasiga chidashimiz kerak ekan? Uning joyi – jinnixona. O'z uyida muzey ochganiga o'lasanmi? Maydonda haykalini o'rnatishga qaror qilgani-chi!

– Kecha qabuliga iltimos bilan kelgan bir odamning yuziga tufladi.

- O'tgan tuni stolda qip-yalong'och raqsga tu-shibdi.
- Nima qilsak ekan?
- Do'xtirdan jinniligi haqida ma'lumotnomaga olib, jinnixonaga tiqib qo'yish kerak.
  - Vaqt ni boy bermaylik, – dedi ko'zoynakli xur-sand bo'lib. – Xudo ko'rsatmasin, yana biron-tasiga tashlanib qolsa...
  - To'ppa-to'g'ri!
  - Ertalab, tong saharda qo'l-oyog'ini bog'lab, jinnixonaga eltamiz. Shundan keyin yangi say-lovni belgilaymiz.
    - Juda soz! Darvoqe, endi kimni hokim qilamiz?
    - O-o, endi ehtiyyot bo'lamiz! Bu gal aqli-hushi joyida bo'lgan odamni saylashimiz kerak.
  - Ha, ha... biz bunaqa jinnilardan rosa to'ydik!..

*Shodmon OTABEK tarjimasi*

**Yashar KAMOL**

## **CHAQALOOQ**

U shunday tez yurmoqda ediki, yarim beliga-cha changga botib borardi. Tepadan, tikkasiga yondirib turgan quyosh uni anchagina esankiratib qo'yan edi. Yurib borarkan, ora-sira ikki to-monga lapanglar, oyoq kiyimi yirtig'idan kirib turgan olov singari issiq tuproq oyoqlarini kuydirardi.

Ismoil ham yurmoqda, ham hech tinmasdan o'zicha eshitilar-eshitilmas allanimalarni g'udullamoqda edi.

Quchog'ida ola-bula belbog'ga bir chaqaloq o'ralgan. Chaqaloqning boshi Ismoilning o'ng qo'llidan tashqariga og'ib qolgan, yuzi jigaray qip-qizil. Qizil yuzini chang pardasi qoplagan. Chaqaloqning ko'zlarini yumuq. Bo'yni juda ham ingichka...

Chang yarim beliga chiqqan. Ismoil ham yurmoqda, ham g'udullamoqda... Ter, uning ustidagi yo'l-yo'l chaponidan tashqari chiqib, chang bilan qorishib loyga aylangan. U yon-bu yonda bug'doy o'rib, bog' bog'lovchilar ko'rindi.

Ismoil bir tomonda bog' bog'lab ishlab turgan erkak-xotinlar yoniga bordi. Quchog'idagi chaqaloqni arava ostiga, nam tuproq ustiga qo'ydi. Yon-boshda sariq bir it tilini bir qarich chiqarib uxlamoqda. Aravaga tirmashib chiqdi: bochkadan

bir kosa suv oldi, ko'tarib ichdi. Suvning ortgani-ni ham ochiq, junli ko'ksidan pastga qaratib qu'yib yubordi.

Yelkasini g'ildirakka tirab o'tirib oldi. Oyoqlarini uzatdi. Oyoq kiyimining yirtiq joyidan bosh barmog'i ko'rinish turardi. Tirkog'i o'sgan, barmoq-ning osti taram-taram yorilgan...

Bog' bog'layotgan xotinlardan biri suv ichmoq uchun arava tomonga yurdi. Arava yoniga kel-gach, rangi o'zgarib ketdi. O'zi mahmadonagina edi. Katta qora ko'zlarini baqraytirib:

– Nima bo'ldi, Ismoil qardosh, bu yerlarda nima qilib yuribsan? – dedi.

Ko'zini arava ostiga tikdi:

– Voy, marhuma, – dedi, – voy, marhuma Zolam, voy ko'zlar surmaligim! Egilib, bolani qu-chog'iga oldi.

– Bo'yni osilib qolibdi, – dedi, – bu endi odam bo'lmaydi. Voy, Zola. Voy, surmali Zola... Zola kabi xotin yo'q edi. – Ko'kragini chiqarib bolaning og'ziga tutdi. Bola oldi.

– Qara, – dedi Ismoil qardosh, bola ko'krakni oldi. Bolaning nimjonligi ochlikdan. Issiqda ham ancha holdan ketgan. Hurini chaqirayin, emizsin. Ko'kraklari to'liq. Bolasi uyda qolgani uchun ertalabdan beri sutini yerga sog'ib tashlamoqda. Bolaning og'zidan ko'kragini tortdi.

– Quruq ko'krakni ham qo'yib yubormayapti. Hey, Huri qizim! Qizim Huri-yu... Kel! Kel!

Huri, ishlab turganlar o'rtasidan chiqdi.

– Kela qol, Huri! Zolaning bolasini ko'r... Kel, emizib qo'y.

Huri kelib, bolani olib orqasini o'girdi.

– Voy, – dedi, – birov birovning rizqini yeysmas ekan. Chidolmay turgan edim... Ko'kragimga sut to'lib ketgan edi. Sal qolsa yerga sog'ib tashlamoqchi edim... Birov birovning rizqini...

Boyagi mahmadona xotin davom etdi:

– Zola kabi xotin yo'q edi. Zolaning tengi yo'q edi. Turp qazigani borardik. Yuzi kulib turardi. Bir sochlari bor edi, bir quchoq... Tovlanib turuvchi sochlari... Bir qusuri bor edi, yalang oyoq yerni bosib yura olmasdi. Hech oyoq kiyim topolmasa, oyog'iga chipta bog'lardi, yalang oyoq hech yerni bosmasdi. Bir qusuri bor edi... Yalang oyoq...

Huri bolani emchagidan ayirdi. Bolaning ko'zlarini hamon yumuq edi. Faqat jag'i o'ynardi. Jag'ida, og'zining yoni-verida sut yuqi qolgandi.

– Tuproqqa sog'ib tashlamoqchi edim, – dedi Huri uh tortib, – Voy Zola rahmatli! Bolasi bunday sarson bo'lib qolmasa nima edi-ya?

Mahmadona xotin:

– Qardash, – dedi, – Zola qanday o'ldi.

Hurining quchog'idagi chaqaloqni ko'rgan bir-ikki xotin, ishlarini tashlab. arava yoniga keldilar. Yirtiq ro'molidan oppoq sochlari tashqari chiqib turgan Havo ona:

– Nima u, – dedi, – Zolaning bolasimi? Voy Zola! Ko'zlaridan bir-ikki tomchi yosh tomdi.

– Voy, surma ko'zli Zolam. Qora ko'zginam. Bebaho qizim... Qanday bo'lib o'ldi, qo'zim! Qanday o'ldi?

Pakana, yuzlari ichiga cho'kkana qora Elif:

– Qanday o'ldi, Ismoil?

– Nima qilding? – deb so'radi.

– Ismoil tinmay g‘udullamoqda edi. Bo‘yni osilib tushgandi. O‘rnidan turdi. Orqasini qo‘li bilan qoqdi. Huridan chaqaloqni oldi, qo‘llari ustiga yotqizdi. Keskin bir tovush bilan:

– Oldi, – dedi, – doktorga olib bordim, ukol qildirdim, foydasi bo‘lmadi. Baribir o‘lib qoldi. Tez-tez yurdi-da, ketdi.

Uzun oyoqlaridagi keng, yirtiq, qora cholvor shalvirar, cholvorining yirtiqlaridan ishtoni ko‘rinib borardi.

Xotinlar uning orqasidan qaraganlaricha qoldilar. Havo ona lablarini burishtirib ohista dedi:

– Dardli o‘g‘lon. Boyaqishni ko‘ringlar, naqadar dardli! Qon yig‘lamoqda... Hech qaysimizning yuzimizga boqmadi. Xotinini o‘zi o‘ldirganga o‘xshaydi...

Chakak-chakak bo‘lib ketgan qora xotin:

– Voy, jonim onam, Zolaga hech qaramagan, boqmagan, afting qurgur... Kezsin endi bolani ko‘tarib, qishloqma-qishloq kezsin... Kezsin... yigirma kungacha doktorga olib borgani yo‘q... Zola kabi xotin bormidi! Amina kampir o‘limganda edi, Ismoilday sahroyi bir odamga Zola qurban bo‘larmidi!..

Huri o‘tirgan joyida dedi:

– Kishilarnig eshidiga qoldi, boyaqish. Ismoil juda mard yigit, lekin tortinchoq.

Havo ona:

– Bolani boqadigan birortani topa olarmikin? Mahmadona xotin, ishlovchilar yoniga ketayotgan joyidan qaytib keldi:

– Narigi qishloqda boqadigan bir xotin bor edi. Xudo hech kimning bolasini onasidan ayirmasini.

Havo ona:

– Onasi o'lgach, o'zi ham o'la qolsa bolardi, Xudoym-e. Nima bolardi? Nima uchun onasidan keyin qoldirding, Parvardigor? Bir oksik bola bilan dunyoni toldirmoqchimisan? Voy Zola... Ish qistov vaqt... Ismoil nima qilsin?

Kun tepada edi. Hamma yoqni chang-to'zon qoplagandi. Uzoqlarda, qishloqning berigi yonida jimiragan nafis bir harorat tumani bilinar-bilinmas ko'kka ko'tarilmoqda edi. Keng vodiy go'yo bir alanga ichida yonmoqda, dala boshida turgan qalaylangan idishlar kun nurida yalt-yalt etardi. Ismoilning ko'zлari terdan achishmoqda. Yo'lning bir chetida chang bosib oqarib ketgan, siyrak ko'lankali bir tut daraxtni ko'rdi. O'sha tomon-ga qayrildi. Chaqaloqning boshi qo'lining ustidan pastga osilib tushgan, ingichka bo'yni cho'zilib ketgan edi.

Chaqalojni tut ostiga joylashtirdi. O'zi ham o'tirib, ustidagi ko'yakni yechib siqdi. Olib borib, yo'lning qiyasida chang bosgan maymunjon butasi ustiga yoyib qo'ydi. Cholvorining pochalari loy bo'lgan ekan, ishqalab tashladi. Chaqaloq ingramoqda edi. Yuzini, ko'zini pashshalar qoplagan edi. Qo'lini qattiq silkitib, pashshalarni haydadi. Chaqaloq yig'isini to'xtatmadi. Ismoil bolani tebrantirdi:

– Alla, qo'zim, – dedi, – allllla...

Bolaning yig'isi to'xtamadi. Yigit ko'ylagini shiddat bilan buta shoxidan tortib oldi, kiydi va yo'lida davom etdi...

Chang-to'zon yarim belidan pastini ko'rsatmas edi. Chaqaloqning bo'yni osilib qolgandi, ingichka

bir tovush bilan chinqirmoqda edi. Yo'ldan bir gruzovik o'tdi. Havoda bir nafasda chang buluti ko'tarildi. Chang buluti ichidan chiqqandan so'ng Ismoilning burniga o'tkir bir botqoqlik hidi keldi. O'ng tomonda qishloqqa qadar sholipoya cho'zilgandi. Yo'l chekkasidagi zovurda ustini chang pardasi qoplagan ko'lmaq suv bor edi, keng sholipoya ustidan issiq quyosh ostida bug' ko'tarilmoqda.

Sholipoya maydoninnng chekkasida, yo'lga yaqin bir joyda qo'liga kurak ushlagan, egniga bo'z chopon kiygan, oq soqolli, beli bukchaygan bir chol suvchi turardi, yuzidagi dona-dona ter uzoqdan ham ko'rinxmoqda edi. Ismoil uning oldidan jadallab o'tib ketdi. Boshi chaqaloqning boshi tarafga egilgan, qimirlamasdan boqardi. Suvchi:

– Hoy, – dedi, – ko'zingga qara, bola sho'rlikning boshi osilib ketibdi-ku.

Ismoil eshitmadi. Boshini osiltirgancha, yurib o'tdi-yu, ketdi.

Suvchi:

– Xudo ko'rsatmasin, – dedi. – Bu kun dushmanlarning boshiga tushsin... Juda qiyin... Ismoil jadallab qishloqqa kirdi. Chang, tor ko'chalarda mol tezaklari ust-ustiga to'plangandi. Tuproq ichida bir to'da tovuq titkilashib yurar, qip-qizil uzun tillarini osiltirgan itlar uxbor yotishardi. Qishloq ichida doriga birorta durustroq daraxt topilmas edi. Zovur chetlarida chang bosib, daraxt ekanliklari ham bilinmay ketgan mayda tollar bor edi, ular hali daraxt bo'lib yetishmagan, pastak butazor singari edi.

Ismoilning qarindoshlari turadigan uy qishloqning o'rtasida, qamishdan yasalgan, ustiga poxol

bosilgan bir chayla edi. Hovlidagi eski, yog'ochlari singan, g'ildiraklarining temiri ko'chgan bir arava ostida tovuqlar, itlar yotardi. Bir o'rdak orqasidan mayda-mayda jo'jalarini ergashtirib yurardi.

Eshik ochiq edi. Uzun bo'yli, barvastaligi uzoq-dan bilinib turgan bir xotin oyoqlarini qorniga bukib, boshini ostona yoniga qo'yib uxbab yotardi.

Ismoil, boshi chaqaloq tomonga qayrilgan, yuzi ma'yus holda, eshik og'zida o'ylangancha turib qoldi. Bola ingillashdan to'xtamagan edi. Xotin boshini sekin ko'tardi. Bir to'da pashshalar uchib ketdi. Ko'zlarini uqaladi.

Jannat kampirning sochlari oppoq edi. Faqat bir qism sarg'ish tolalar bor edi, xolos. Qolgan sochlari hammasi sut kabi oq edi. Ingichka, oldinga qarab bukilgan beliga yirtiq, popuklari to'kilgan, kim biladi, qaysi zamondan qolgan bir belbog' o'ralgan edi. Kichkinagina ko'zlarini pirpirab turardi. Erkaklarniki kabi zo'r iyagi yuziga mag'rur tus bergandi.

Chaqaloqni qo'liga olib erkalatdi:

– Alla, qo'zim, allla, o'ksigim. Allla qadrsizim...

Allla.

Uy ichida u boshdan, bu boshga qo'llarida chaqaloqni silkillatib yurardi...

– Allla, qadrsizim, allla...

Bola xuddi burab qo'yilgan patefonday tinmas-dan chinqirardi.

– Odamlar, Ismoil, Zolaga qaramadi, deyishadi... Boqimsizlikdan o'lgan emish... Qaraydig'an-netadigan odam yo'q. Yolg'iz o'zi...

Sho'ring qurgurning gunohi bo'yningga... Shunaqa deyishayotirlar...

Tashqaridan ichkariga qarab bir ko'lanka uzandi. Qora cholvor ostidan semiz oyoqlari bilinib turgan, tor yelkali Dundi nomli juvon kirib keldi. Qoshlari, kipriklari qalin edi. Dudoqlari orasidan oppoq tishlarini ko'rsatib, har zamon bir kulimsirardi. Ko'zlar katta edi... Kipriklarining soyasi yuziga tushardi.

Jannat kampirning quchog'idagi chaqaloqni oldi. Orqasini o'girib ko'kragini chiqardi. Bolaning og'ziga obordi. Bola ko'kragini oldi. Chinqirishdan to'xtadi.

Tashqarida bir qo'liga pichoq, bir qo'liga po'stlog'i archilmagan tol navdasi ushlagan holda ikkiti qip-yalang'och bola turardi. Qorinlari do'mpaygan, bo'yinlari ingichka. Kekirdaklariga qadar loyga bulangan edi. Loy qurib, taram-taram bo'lib yorilgan.

Bolaning biri boshini ichkari cho'zib mo'ralab qoldi.

– Ahad, – dedi, – bir ko'rigin!.. O'rta barmog'ini ko'rsatdi. – Bo'yni mana shunday ingichka. Shunday ingichka...

Ikkinci bola ham bo'ynini cho'zib mo'raladi.... Ismoilning ovozi go'yo o'zidan chiqmas, balki yonidagi devordan, yerdan va boshqa joylardan chiqayotganday edi. Ko'zlar yarim yumulgandi. Ko'zlarining oq-qorasini belgisiz, xomush edi...

– Xolajon, – dedi u, – oyoqlaringni o'payin, xolajon, bunda mening hech gunohim yo'q. „Bas, xotin dedim, Zola dedim, oz qoldi dedim... Sen dala borma dedim... Men o'zim yakka ishlayman... O'zi ham, dedim... ozgina ish qoldi“. Gapimga kirmadi. „Men, dedi, shunday kunni tilagan edim.

Ish o'z-o'zimizniki bolsa, birovlar uchun ishlashdan qutulsam, o'lguncha ishlayman degan edim. Suyaklarim to'kilib tushguncha ishlay beraman. Sen, dedi, qarollikdan, birovning eshigida yurishdan o'zing ham endi shu yil qutulding... Men necha yillardan beri shu kunni kutmoqda edim. Sheriklik, qarollikdan yaxshiroq, dedi. Yarmisi birovники bolsa, yarmisi meniki". Shuncha qistasam ham uyda qolmadi. Og'ir oyoqli xotin... Qorni burniga yetay deb qolgan. Ishlab turganda yuraklarim ezilib ketardi. „Zola, – der edim, – shunday qilma, – derdim“. „Yo'q, – derdi..., shu kunni kutib keldim. O'zim uchun ishlaydigan vaqtini ham ko'rarmikin derdim. Birovlarning eshiklarida ezila berib, belim bukildi“. – Juda ham berilib ishlardi. „Men bu kunni orziqib kutardim. Otam birovlarning eshiklarida xizmatkorlikda o'lib ketdi. Men ham kishilarning eshigida surinib yurardim“. Telba kishidek doim „men bu kunlarni orziqib kutardim“, – der edi.

Itlarning tillari bir qarich osilgan, qushlar tap etib havodan tushadigan issiq kun edi. O'roq o'rardik. Kun tepamizda edi. Issig'i ustimizga mix kabi sanchilmoxda edi. Zola orqasiga bir kattakon bog'ni ko'tardi. Ikki odam bir bo'lib ko'tara olmas edi. „Jon xotin, o'zingni bunchalik urintirma“, – desam, „Men shu kunni kutardim“, – der va ko'zlariga jiq yosh olardi.

Bir vaqt qarasam, xirmonga borib yetmasdan, yarim yo'lda bog'ni yelkasidan tashlab yubordi. „Nima bo'ldi xotin?“ – dedim. „Sanchiq, – dedi, – zo'raydi. Ertalabdan beri bunchalik emas edi, endi hozir zo'rayib ketdi. Pichoq sanchilganday

bo'layotibdi, – dedi. – O'ldiradigan darajada – dedi. Men uyg'a boray, sen ishingga qara, ishlayver, yeydigan narsamizni chumoliga tashlab qo'yma, o'z joyimizda o'zimiz uchun tirishib ishlaylik". Qornini ushlaganicha qishloqqa qarab yo'l oldi. Bir joyga borib yiqildi...

...Ismoilning ovozi o'zgardi. Lablari titradi. Dastlabki gapirishi to'xtadi. Endi o'z ovoziga ega bo'ldi. Yig'lamsirayotgan kabi chiqayotgan ovoz tetiklashdi.

– Og'oning oldiga borib arz qildim. „Og'o“ – dedim. „Xotinim o'layotir... Doktor kerak“, – dedim. „Albatta, doktor...“ Og'o kului: „Ismoil, – dedi, – ular yotib-yotib tiriladilar. Doktor-muxturning keragi yo'q. Ularning joni temirdan. Nimaga hovliqasan?“ – dedi. „Ishingga qarayver“, – dedi. „Yo'q“, – dedim, „Og'o, borliq mol-jonim, ona suti-day sizga halol bo'ssin. Menga yigirma besh lira pul topib bering“. Qaytarmadi, berdi. Bir arava topib, doktorga olib bordim, doktorning eshiga kelsam, doktor yo'q. Doktor yaylovga ketgan ekan. Shaharni boshdan oyoq aylanib chiqdim. Oxiri bir feldsherni topdim. Kelib Zolani ko'rdi... So'nggi nafas... Qulog'imga egildi... „Bu o'tib qolibdi-ku“, – dedi. Dedimki, „O'tsa o'tgandir, o'lishini o'zi sezgandi... Sen bir ukol qil, mayli...“ „Men, dedi, o'sal yotgan odamga ukol qila olmayman. Nima foydasi bor?“ Oldiga pulni qo'ydim. „Aha, dedim, senga pul kerak. Ukol qil. Pul ketsa ketmaydimi? Shu yog'ochga ukol qildiramanmi, otimgami – senga nima? Senga daxli yo'q-ku! Qani ukol qil, birodar“, – dedim. „Ko'nglim armonda qolmasin, xaloyiq onam, xotinim qolmay

so'kmasin, do'st-dushman ichida“, – dedim. Yaxshi odam ekan, ukol qildi. Yana bir ukol qildirdim. „Yana bir marta ukol qil, birodar, Zolanning menda haqi juda ko'p“, – dedim. Bir marta ukol qildi... Ayni peshin, kun issig'ida aravani qo'shdim. Oftob yondirmoqda... Yo'lga chiqdik...

O'ladigan bo'lsa ham qo'rg'onda o'lsin, dedim. Kun shu qadar issiq ediki, aslo chidab bo'lmasdi... Olamni olov bosganday, hamma yoq lovullardi. Yarim yo'lga kelganda Zola qaddini rostladi. Bir narsalar gapirmoqchi bo'ldi, gapirolmadi, boshi quyi tushdi. Og'zidan chiqqan: „Ming yiling... Bolaginam...“ degan so'zlar qulog'imga chalindi. Ohistagina, sezilar-sezilmas gapirdi.

Jannat kampir:

– Shuncha yildan beri boyaqish endi o'z ishida ishlayotgandi, u ham nasib qilmadi. Voy, – dedi, – bechora Zola...

Ismoil:

– Ko'zlarini yonga o'girdi. Qarasam, nafas olmayotir. Bola quchog'ida... Qarasam, nafas yo'q... Oftob uribdi. Kushimni yo'qotdim. Boshqasini bilmayman. O'zimga kelib qarasam, chang va tuproqqa belashib yotibman. Hamma yog'im achishib og'riydi. Aravani ot olib qochgan bo'lsa... shunday yonib turgan oftob ostida... Otlar, deb o'yladim, – olib borib bir jarlikka yumalatgan bo'lsa... Tirik vaqtida tuzuk bir kun ko'rmadi... O'ligi dedim, o'ligi xor bo'lmasin; bola dedim, qurt-qumursqaga yem bo'lmasin. O'lmasdan qolarmikan? Onasiz bola yasharmikan? Onasiz bolaning yashaganini kim ko'rgan? Birovlar onalik qila olmaydi. Shunday bo'lsa ham yugurayin, yoni-verimga qarab

borayin, bola tushib qolmaganmikin... Shu ahvolda chopacha-chopa kelib qarasam, qishloq o'rtasida odamlar to'planibdi... Qaysi qishloq? Haligacha qaysi qishloq ekanini bilmayman. Bir qishloq, xuldas... Odam shunday ko'p to'planganki, igna tashlasang yerga tushmaydi. Qulog'imga birovning o'lgan degan tovushi eshitildi. To'g'ri olomonning ichiga kirib bordim. Arava olomon o'rtasida, bola ham onasining quchog'ida yotibdi. Yuzi-ko'zi chang bosgan... Ko'zlar yumuq... Ayollar yig'lamoqda. Qaysi qishloq ekanini bilmayman. Ayollar to'xtamay yig'lar edilar. Aravaga minib olib, haydab ketdim. Kimsan o'zing? – demadilar. Bu o'lik sening kiming bo'ladi? – deb so'ramadilar. Qayoqqa ketayotirsan o'zing? – demadilar. Og'izlaridan churq etgan gap chiqmadi. Hayronlikda orqamdan qarab qolaverdilar. Bola mening qo'limda qoldi... Ish zamoni, kuch zamoni... Yuqori qishloqqa olib keldim. Sariq qiz degan emizuvchi bir ayol bor ekan. Bolani unga berib, qishloqqa qaytdim. Ikki kundan so'ng bolani olib kelib, oldimga uloqtirdilar. „Mening sutim“, – degan emish u xotin, – „o'z bolamga yetmayotir. Birovning bolasi ni deb o'z bolamni o'ldirmayman“. U tomonlarda emizadigan biror ayol topolmadim. Kimga bersam, qaytib tashlab ketdi. Ish ko'p vaqtida qo'l-oyog'im bog'lanib qoldi. Sut bersang sut ichmaydi. O'lib ham qo'ya qolmaydi. Ajab og'ir bir hol. O'lsa-ku, bu azoblardan qutulardi. Bir qo'limda bola ari kabi g'ing'illab turadi. Bir qo'lim ishda... Juda shoshib qoldim. Mana ko'rib turibsiz... Bir onasi sensan. Nima qilsang qil. Ish kuch zamoni... Hamma narsamiz ochiq-sochiq yotibdi. Jannat

kampir boshini osiltirgancha, qimirlamay turardi. Birmuncha vaqtdan keyin sekin boshini ko'tardi.

– Ismoil... – dedi. So'ng jim bo'ldi. Ovozi titroq, yig'i aralash chiqmoqda edi.

Ismoil:

– Nima deysan, xola, – dedi, – bir narsa degin-chi?

– Ismoil, – dedi Jannat kampir, – hamisha birovlarning eshidida ishlashdan qutuldik, endi o'z xo'jaligimizda tinmay ishlayotirmiz... tuzukroq kun ko'rmadim deb zorlanardi Zola... Shunday emasmi? Bolamga yaxshi qaranglar degan edi.

Oqshomga yaqin tog'asi uyga keldi. Baland bo'yli bir odam edi. Oftobda qoraygan yuziga somon parchalari, qipiqlik, chang yopishgan edi.

– Ismoil, – dedi u, – kecha-yu kunduz bolasini bag'riga bosib yuradi deb aytishadi... Jinni bo'lib-san.

Chaqaloq, o'rtadagi ustun yonida bir jun to'shak ustida yig'lab yotardi. Kampir ko'zi bilan imlab qo'ydi, chol gapni boshqa yoqqa burdi.

– Demak, shundaymi, Ismoil? Ahvolingni eshitib yuragimiz ezildi.

Jannat kampir:

– Hoy kishi, – dedi, – Masdulloga xabar qil, kelsin. Cho'loq Amin bilan uning xotini bola emizadi. Yana Huri ham bor, lekin u boyaqish o'z bolasini vaqtida emizmaydi. Masdulloning xotinida sut ko'p. O'zi ham ozoda xotin... Masdulloga odam yubor. Xotini, agar Masdullo rozi bo'lsa, emizaman degan edi.

Birozdan keyin Masdullo yuborilgan odam bilan birga kirib keldi. Past bo'yli edi. Ko'm-ko'k

kamzulining yoqasidagi bir parcha qizil latta biringchi qarashdayoq odamning ko'ziga chalinar-di. Qunt bilan taralgan sochlari yangi kepkasi ostidan chiqib turardi. Cholvori ham yangi edi. Oyog'ida ham poshnasi past, Adana shahrida tikilgan sariq tuflisi bor edi. Tog'a Masdulloning qo'lidan ushlab, yoniga o'tqizdi.

– O'g'lim, – dedi, – jon o'g'lim, Masdullo... Ustun ostida chirqillab yotgan bolani qo'li bilan ko'rsatdi.

– Mana, ko'ryapsanmi... Xudo hech kimning boshiga solmasin. Bandaning boshiga ne ishlar tushmaydi. Qul o'lmas, rizqi kamimas. Xotiningning suti ko'p emish. Bola bechorani emizsin, – Ismoil buni unutmaydi. Nima deysan? Yaxshilik unutilmaydi. Yaxshilik qil – suvga sol, suv bilmasa baliq bilar, baliq bilmasa Xoliq bilar... Bir yaxshilik qilib ko'r... Bilarlar... Masdullo boshini quyi solib, ingichka lablarini yumib, hech bir narsa demasdan turardi.

– O'g'lim, – dedi chol, – hozir ish kuch zamonni... Uyda hech kimi yo'q... Xotin yo'q, bola ham yo'q... Ismoilning peshonasi... Ko'z oldingga kel-tirib ko'r... Tosh bo'lsa ham odamning yuragi erib ketadi... Ismoil g'arib bir yigit... Endigina xizmat-korlikdan qutuldi... Yana bola tufayli ora yo'lda qolmasin... Nima deysan, o'g'lim Masdullo? Biror narsa deysanmi? Masdullo vaziyatni buzmay, boshini quyi solib, qimirlamay o'tirardi.

– Yaxshilik qilish fursati har vaqt uchramaydi. Qara, bunga Xudo ham rozi. Jannatning eshi-gini ochasan... Sening xotining boqmasa, bu bola o'ladi. Bitta jonni qutqazib qolasan. Bir jonning

tirik qolib, yashashiga sabab bo'lasan. Chinqirib yotishini qara... Bunga hech qanday yurak chidab tura oladimi? Masdullo o'rnidan turib yurdi. Bir oyog'ini ostonadan nari qo'ygandan keyin, boshini orqaga qayirdi:

— Amaki, — dedi, — amaki! Masdulloning xotini xizmatkor deb senga kim aytди? Mening xotinim xizmatkor emas!..

Achchiq qilib, chiqib ketdi.

\* \* \*

Ismoil boshqa bir yerga burilmasdan, to'ppato'g'ri bolasini qoldirib ketgan Aminaning uyiga bordi. Aminaning uyi, ustiga yopilgan poxollari eskirgan, devorlarga tappi yopilgan, tezak aralashtirib suvalgan birgina derazali kichkina qamish uycha edi. Ichkarida juda oz ashyosi bor edi. Bir burchakda arqonga bog'langan buzoq turardi. Buzoq bog'langan burchakdan sigir tezagi va siydk hidi kelmoqda edi. Bolalarning beshigi buzoq yonida edi. Ikkala bola kirlikdan qop-qora bo'lib ketgan, yorilib ketgan eski beshik ichida yonma-yon yotardilar. Yumuq qo'lchalari bir-birlariga chirmashgandi. Uy ichi boshdan oyog'iga-cha iflos. Bir qarich keladigan kichkina darcha ostida, ustlari po'panak bosib ketgan ikki yog'och paqirdan suv sizg'ib turardi. Ismoil beshik yonida turdi-turdi, qaradi...

— Singlim, — dedi, — singlim, Amina, bu bolaga nima bo'lgan?

Bolaning terisi suyagiga, qorni beliga yopishib, ko'zlari ichiga cho'kib ketgan edi. Chidab turolmasdan tashqariga chiqdi.

Amina xaltani silkitib gapirib turgan edi:

– Buni qara, Elif ovsin, uning keltirgan narsalarini qara, bo'yning uzilgur, daroz tuyaning qilgan ishini ko'rgin... Tag'in qaqqayib bolaga qarab, bolaga nima bo'ldi deb so'raydi... Ochiq mozor bo'ldi... Bo'yning uzilgur, ikki kilogina shakar keltiribdi... Tag'in bolani emiz emish... Qo'liga tushgan narsani xaltadan olib u yon-bu yonga irg'itdi.

– Bola o'ladi. Mening bolam o'ladi. O'lsa ham el-yurtning gapidan qutula olmayman.

Qora Elif:

– O'ziga olib borib tashla, singlim, – dedi, – olib borib tashla!

– Shunday qilmasam, bolam o'ladi, axir...

Birovning bolasini boqib, o'z bolasini o'ldirdi deb gap qilishadi. Ismoil devorga tiralib turgan joyida qaddini rostladi. Chuqur bir uh tortdi. Mast kishiday gandiraklab chiqib ketdi. Ikki kundan keyin Amina, qarg'ab-qarg'ab bolani keltirib, Jannat kampirning oldiga tashladi.

– Yurt nima deydi, agar mening bolam o'lib qolsa, yurt nima deydi! – dedi.

Jannat kampir ham bolani otasiga jo'natdi.

\* \* \*

Xirmon bir odam bo'yи yuksaklikda. Kun erta edi. O'rtadagi g'aram anchagina ko'payib qolgandi. Ismoil qo'lidagi panshaxani bog'larning ustiga otdi. Xirmonning soya tomonida turgan ko'zani boshiga ko'tardi. Yanchuvchi yog'och ustida ingichka bo'yinli kipriklari uzun bir bola turardi.

Bola oldindagi ikki zaif to'riq otni hadeb qamchi-lamoqda edi, hali uqlanmagan boshoqlar ustida gir aylanmoqda edi. Hamma yoqni kishining dimog'ini achituvchi somon, qurigan o't hidi boggandi.

Ismoil, xirmonning ko'lankali joyida chinqirib yotgan chaqaloqning og'ziga, sut to'ldirilgan va bo'g'ziga emizik kiydirilgan aroq shishasini to'g'riladi. Bola ovozini o'chirdi. Sekin-sekin ema boshladi. Ismoilning o'ng tizzasi yerga qadalgan edi. So'l chakkasidan jag'igacha cho'zilgan uzun, chuqur yara o'rni chang va somon parchalari bilan to'lgandi. Yirtiq, yo'l-yo'l ko'ylagining yoqasi ochiq, jun bosgan ko'kragi ko'rinish turardi. Ko'ylagini yechib, tizzasini yerga tayab shishani tutdi. Temirchining damiday pishillardi. Don yan-chib turgan bolani chaqirdi:

– Mamat, kel, kel noningni ye!

Mamat otlarning boshini bo'sh qo'yib keldi, xaltasini ochdi. Ismoil bir qo'li bilan ovqat yemoqda, ikkinchi qo'li bilan shishani ushlab turmoqda edi. Shisha bolaning og'zidan chiqib ketguday bo'lsa, darrov chinqirib yig'i boshlar, Ismoil uning yig'isiga hech chidab turolmasdi.

Mamat ham ovqat yegani holda gapirardi:

– Qarang, Ismoil amaki, bizning qishloqda bir bola bor edi. Chaqaloqni qo'li bilan ko'rsatib, davom etdi:

– U ham xuddi shu singari bo'lgan. Onasi o'lgan ekan. Otasi uni quchog'ida olib yurgan...Kambag'al odam bo'lgani uchun hech kim unga qaramas ekan, onam shunday deb gapirgan edi. Hech kimi ham yo'q ekan. Bola ochligidan o'lar holga

kelgan, ochligidan yig'layverib esi ketgan. Hozir shu bola bor, Kurd o'g'li deyishadi. Onam aytardiki, uning otasi Kurd ham emas, boshqa ham emas... Onam shunday derdi.

Otasi bir kecha chaqalojni bir eski qopga o'rab, qishloq o'rtasidagi buloq boshiga qo'yib qochib ketgan emish. Boshini olib ketibdi. Bolani kurd qizi olib, katta qilgan emish. Hozir uni kurdning o'g'li deyishadi. Kurd qizi bola qilib olgan. Otasi boshini olib ketganicha, qaytib qishloqqa qadam bosmagan... Men qayoqdan bilaman, onam shunday deb gapirib bergen edi. Ismoil birdan o'rnidan turdi. Ko'ylagini oldi, qurigan ekan. Tezlik bilan kiyindi. Bolani qo'lga olib, yo'lga tushdi.

\* \* \*

Ko'r kampir oyoq sharpasini eshitib, yuzini eshikdan yon tarafga o'girdi:

– Kim u, – kelgan odam kim? Quchog'ingda chaqaloq bormi? Shu kelgan ovoz chaqaloq ovozi emasmi?

Ismoil:

– Men, – dedi, – ona, bu – men.

Ko'r kampir:

– Aybga qo'shma, bolam, ovozingdan taniyolmadim.

Ismoil:

– Menman, ona, – dedi, – Ovshar Ismoil... Durmush og'aning eski xizmatkori...

Ko'r kampir zahar kabi achchiq, yumshoq yig'lamsiragan bir tovush bilan:

– Kuydik, – dedi, – hammamizning ichimiz achidi, Zolaga... kun ko'rmadi boyaqish. Iflos oq-

soq, Zolaning uvoliga qolsin, bolasining uvoliga qolsin. Chaqaloqni keltirib uning oldiga tashlagan deydilar, shundaymi? Ohh, agar o'g'lim shu yerda bo'lganda, Huri ishga bormas edi. Zolaning gul xotiri uchun bolasini boqar edi... Bolagina qo'lingda yig'lab turmasin, yotqiz uni beshikdag'i bolaning yoniga... Yotqizdingmi? Allla, alllla... Onasiz qo'zi alllla... Beshikni kampir sekin-sekin tebratdi.

Ismoil:

- Ona, - dedi, - Mametning muddati qachon tamom bo'ladi? Qachon tamom bo'ladi, axir?..
- Alllla? Allla, kelib qolar allla... - so'ng g'azab bilan:

- Ooooh, - dedi - mening o'g'lim. Hukumat kecharmi haqqingdan? Alla, allla, allla... Shu yosha kirdim. Qulog'im bilan eshitmadim. Allla, onasiz qo'zi alllla... yo'l kirasi to'plangan, to'plangan Ismoilim, to'plangan qo'zim... Allla, kambag'alim allla... allla... Hukumat aytarmish, bersin pulimni, so'ng qo'yvoraman o'zini... Aytarmishki hukumat... Allla, jonom, alllla. Agar pulimni bermasa, o'zi bilar dermish, yota berar o'lguncha... Allla, yurt qo'lida qolgan bolam, alllla... Oz-moz pul ham emas, qo'zim, bir qarz bilan bitmas qo'zim... Allla o'ksugim, allla. Bir Hurining o'zginasi ishlarimoqda. Bir xotinning ishlashidan nima chiqar? Allla, Zolaning chaqalog'i, allla. Necha marta boray dedim, yiqilay dedim hukumatning oyog'iga... Foydasi yo'q deb aytdilar, ellik pora pul bo'lmasa. Allla, alllla... Kampirning o'tirgan uyi bir yoniga qiyshaygan ikkita karavot sig'arli kattalikda, devorlari suvalmagan, tepadagi qamishlari surulib,

kun nuri tushib turgan, lekin ozoda bir kapa edi. Ko'r kampir eshik tomonga qarab o'tirar, yuziga yorug' tushib turardi. Sekin-sekin beshikni tebratib, alla aytardi.

— Allla, alllla... Onasizlar shunday tinmasdan yig'lar... Allla, alllla... Uuuuf... menga ham bir nar-sa bo'lib qolmasa. Alllla, allla. Kunim yaqinlashib qoldi, bo'lmasa... Mamet ketib qolgandan beri meni Xudoning bergen kuni isitma tutadi, Allla, allla. Dir-dir titratib isitma tutadi. Hech holim, darmonim yo'q. Allla gulim, allla. Allla tog'larning go'zal chechagi yig'lama, allla... Ooh Mamet o'g'lim shu yerda bo'lganda edi... Allla, alla... Zolaning bolasini bunday eshikdan eshikka surintirarmidim. Allla, allla. Beshik tebratishdan to'xtadi.

— Qaysi yondagi, Ismoil? Qaysinisi Zolaning bolasi?

Ismoil kampirning qo'lini olib, bolaning ustiga qo'ydi. Ko'r kampir sekin-sekin, bolaning yuzlарини silab ko'rdi.

— Voooy, — dedi, — Voooy yetimcha. Faqat terisi bilan suyagi qolibdi-ku. Huri o'rilgan bug'doylarini to'plab tamomladi. Endi paxtasini chopishi kerak... Alllla...

Kun botayotganda Huri keldi. Ichkari kি-rar-kirmas ishni angladi. Bir yonda ko'r kampir cho'zilganicha, uf torta-torta titramoqda edi. Har oqshomga yaqin bezgagi tutardi. Ismoil ham beshik boshida, sekin-sekin tebratib o'tirardi. Hurining ko'rinishi yigirma yoshlarda edi. Yuzi oftobda kuyib, qop-qora bo'lgan.

— Ismoil qardosh, — dedi u, — senga nima desam ekan? Senga men nima deyin? Yuragim par-

cha-parcha bo'lib ezilib ketyapti axir, men senga nima deyin? O'zing ko'rding, men sutimni yerga sog'ib tashlayapman, oqshomga qadar ko'kraklarim shishib ketadi, bolamni emizolmayman-da, yerga sog'ib tashlayman. Men endi senga nima deyman, Ismoil qardosh? Men nima deyin? Agar Mamet bo'lganda edi Ismoil qardosh...

Ismoil:

– Singlim, – dedi, – Huri singlim, nima istasang beraman. Xirmoningni men yanchaman, xirmonim bitgach, eng so'nggi umidim senda...

Huri:

– Ona, – dedi, – sen nima deysan? Men nima deyin endi? Men nima deyin?

Ko'r kampir uh-uh aralash:

– Qizim, – dedi, – qizim, qora ko'zli, surma sochli xonim qizim, ko'z ko'rib turib chaqaloqni o'ldiramizmi? Hozir ham o'lgandan badtar... Zolanning bolasi... Men nima deyin? Zolanning bolasi... Nima deyin? Zoladan qolgan tabarruk. Ismoil, ustidan tog' qulaganday yengillashdi, uydan chiqdi.

\* \* \*

Huri ikki bolani bittadan qo'liga ushlagan, ko'r kampir esa uning etagini tutgan holda, orqadan kelmoqda edi. Dalaga yetib borganlari zamon tonggi shafaq endi oqarmoqqa boshladи. Giyohlarni to'shak singari to'shab, Huri bolalarni yonma-yon yotqizdi. Ko'r kampirni bolalarning yoniga yotqizdi. Tonggi g'ira-shirada hali paxtani o'tdan farq etib bo'lmas edi.

Tong yorisha boshlagach, chopiq qila boshladи. Dalaning hech yerida yaqinda ham, uzoqda ham bi-

rorta daraxt yo‘q edi.... Birorta butazor ham ko‘rinmasdi... Dalaning hamma joyi shunday edi. Ketmonni har urganda, toza tuproq hidi qo‘zg‘alardi. Quyosh yuksalib, to‘rt tomon qizib ketgach, ko‘r kampir Huriga:

– Qizim, – dedi, – qizim Huri, bolalar qizib ketdi... Issiqdan o‘lib qoladi bular, surmali qizim, berikel, shu bolalarni mening soyamga yotqizib qo‘y... Huri keldi, ko‘r kampirning orqasini kunga teskarri o‘girib, bolalarni ham uning ko‘lankasiga joylashtirdi.

– He ona, – dedi, – kun tepaga kelgach ko‘lankang qolmaydi, ko‘lankang yo‘qolganda nima qilamiz? Voy onajon, innaykin nima qilamiz? Ko‘r kampirning lablari qaltiradi.

Ingichka, burishgan lablarini kampirning betidagi qatma-qat burishiqlari orasidan ajratish ham qiyin edi. Yuzi, kaft singari kichkina edi. Ajinlar bo‘lmaganda ham uning yuziga boqqan odam umri chopiqda o‘tganini darrov bilaverar edi. Ko‘zlar ichiga cho‘kib ketgan edi. Yumuq ko‘z qovoqlari ostida ikki soqqaday narsa qimir-qimir etardi. Yupqa bir teri bilan quruq suyaklari qolgan, tomirlari ko‘rinib yotgan qo‘lining ustida quyosh dog‘iga o‘xshash bir to‘da katta-kichik dog‘lar bor edi. O‘tirgan yeridan u qop-qora, kichkina bir ko‘lankaday ko‘rinardi. Chaqaloqlar yig‘lagudek bo‘lsa, mehr to‘la tovushi bilan Hurini chaqirar, emizdirgizar va alla aytardi:

*Bolam, seni uxlatayin, allla, alllla,  
Bog‘chalarda o‘ynatayin, allla, allla.*

Ko'r kampirning kuygan kishining yuragiga jazillab tegadigan ovozi bor edi.

Quyosh yuksalgan sari Hurini chaqirar, chaqaloqlarni o'ziga yaqinroq yotqizdirar, ustlariga egilib, soya qilardi. Dam o'tmasdan, bolalarning ustiga oftob tushib qolmadimi, deb Huridan so'rabb turardi. Ko'r kampir chaqaloqlarni to o'z qoroni ostigacha tortib, ularni oftobdan pana qildi. Sekin-sekin tebranib alla aytmaganda, kishining ko'ziga xuddi uxlab o'tirganday ko'rinaridi.

*Bolam seni uxlata man, allla, allla  
Bog'chalarda o'ynata man, allla, allla.  
Olib keldim bolam seni, oooy, oooy  
Yashil beshik to'shagida n, allla, allla.  
Onasini emmagan bola, oooy, oooy  
Onasining hidin bilmas, allla, allla.*

Alla aytarkan, o'ng tomonda yotgan Zolaning bolasini oyog'idan silardi.

*Bolam seni uxlata man, allla, allla,  
Saroylarda o'ynata man, allla, allla.*

Kun tepaga ko'tarildi, kun kuydirdi, pishirdi, ammo kampir, har qanday bolsa ham, kun dalandan ketguncha bolalarning yuzlariga uning nurini tushirmadi. Kech kira boshladи, quyosh pastga tushayotganda kampirni bezgak tutdi. Kampir sho'rlik dir-dir titrab, yerga yumalab qoldi. Dir-dir titradi, uzoq vaqt issiq tuproq ustida qunushib, ag'anab yotdi.

Har kun shu xilda davom etdi. Kun asr bolguncha, kampir chaqaloqlarning yuzini oftobga ko'rsatmasdan olib o'tirar, asrdan keyin bezgagi tutardi...

Besh tanoblik yerning g‘o‘za chopig‘i bitguncha ahvol shunday kechdi. Oxiri, bir parchagina yer qolgan edi. Kaftday kichkinagina bir yer...

Na choraki... Shum xabar tez tarqaldi. Ismoil xirmonini bitirib, bug‘doyini tashib turgan paytida kelib so‘zladilar. Chaqmoq urganday bo‘ldi. Borib qarasa, Huri yotibdi, yuzi sap-sariq, ko‘zlari ichiga kirib ketgan...

Ismoil qo‘rqa-qo‘rqa yaqin kelib:

– Singlim, – dedi, – singlim, Huri, boshing omon bo‘lsin. Xudo rahmat qilsin kampirni. Dunyoda bir yorug‘lik ko‘rmadi... Mozoriga nur yog‘ilsin. Huri yig‘lamsiragan titroq bir ovoz bilan:

– O‘ldi, – dedi, – ikki kun bo‘ldi... Bolalarni yaxshi ko‘rardi boyaqish. Shundayam yoqimli alla aytardiki, insonning yuragini eritardi. Bir alla aytishi bor ediki, tog‘-u toshni eritardi.

Ismoil:

– Nur to‘lsin mozoriga, yorug‘lik degan narsani ko‘rmadi.

Huri yig‘lamsirab, dedi:

– Deraza oynagimiz bo‘lmaganidan, yerda uni pashshalar talab yotardi. Kampir shundan kasal bo‘ldi deydilar. Bir alla aytardi, yuraklarni eritardi. U alla aytganda, odamning yuragi parcha-parcha bo‘lib ezilib, og‘ziga kelardi. Bir alla aytardiki, hammani maftun qilardi. Boshini bir tomonga o‘girdi:

– Kuyib ketayotirman, qardosh, – dedi, – to‘rt tevaragimni otash qopladi.

Ismoil bir necha vaqt tikilib turgach:

– Singlim, – dedi, – mana bu narsalarni senga keltirgan edim.

Qog'oz xaltadagi shakarni yostiq boshiga qo'ydi. Beshikda bolalar tovush chiqarmasdan uxlab yotishmoqda edi. Beshikdan o'z bolasini olib bag'riga bosdi. Eshik yoniga borib, orqaga qaytdi.

- Singlim, - dedi, - singlim Huri, xirmoning uchun hech g'am yema, men o'zim yanchib beraman. Xirmoning uchun ko'nglingga biror narsa kelmasin.

Yiltirab turgan somon parchalari qorishgan chang yo'l ustidan quyuq bir bulut ko'lanksasi o'tdi. Janubda, narigi tomonlarda, uzoqlarda, O'rta dengiz ustida yelkan singari oppoq, to'p-to'p bulutlar bor edi. Keng dala, to'lqinsiz bir dengiz kabi moviylashib, tep-tekis ravishda ko'z ilg'agani qadar uzoqlarga cho'zillardi. Narigi yoqda dalalarni qurshagan ko'm-ko'k tog'larning quyuq ko'lankalari chap tomonga qarab cho'zilmishdi. Ismoilning yarim belidan pasti chang ichida ko'rinas edi.

So'l tomondagi, qishloq ostiga qadar cho'zilgan yashil maydondan, sholipoyadan burunga o'tkir bir botqoqlik hidi urardi. Yo'l bo'ylab uzangan zovurlardagi ustini changdan qaymoq bog'lagan suvning yuzi shabada tegib burishardi. Chaqaloqning boshi o'ng qo'l ustida edi. Osilib tushgandi. Ko'zлari ichiga botib ketgan. Bo'yni, boshini tutmaydigan darajada noziklashgan, burishib, qorayib ketgan, terisi suyaklariga yopishgandi. Jag'i osilib, teriday yupqa lablari ham ichkariga cho'kkani. Ochiq og'ziga pashshalar kirib chiqmoqda. Ismoil o'z boshini bolaning boshi turgan o'ng qo'li ustiga egib o'ychan boqmoqda edi. Ham tikilib boqmoqda, ham yo'l yurmoqda edi.

*Turkchadan M. DAVRON tarjimasi*

## ISSIQ KUNDA

Bola: „Onajon, – dedi. – Onajon ertaga ertalab kun yorishmasdan uyg'ot meni“.

- Yana uyg'onmaysan, baribir.
- Uyg'onmasam igna suq etimga. Sochlarimni tort. Ur meni.

Yuzlari oppoq oqargan, nozik xotinning qora ko'zлari sevinchli bir shu'la bilan yiltiradi.

- Shunda ham uyg'onmasang-chi?
- O'dir meni.

Xotin bor kuchi bilan bolani quchog'iga olib, bag'rige bosdi.

- Jonim! – dedi.
- Uyg'onmasam... – bola o'ylandi va birdan: – og'zimga qalampir tiq! – dedi.

Onasi yana zo'r shafqat bilan, ko'zлari yoshlangan holda uni bag'rige bosib o'pdi. Bola tinnasdan yana takrorladi:

- Eshitib qo'y, agar uyg'onmasam, og'zimga qalampir tiq, xo'pmi!
- Jonim! – dedi ona.

Qalampir juda achchiq bo'lsin.  
Erkalanar, tepinib sho'xlik qilar va to'xtamasdan qichqirardi:

- Achchiq qalampir, qip-qizil qalampir... Bir achitsinki og'zimni... bir achitsinki... darrov... darrov uyg'onaman.

Onasining qo'lidan qutulib, u yugurgancha ayvonga chiqib, to'shagiga yotdi. Dim bir yoz kechasi... Ko'k yuzida xira miltillagan yulduzlar va g'ildirakday yumaloq katta oy... To'shakdan sasiq ter hidi keladi.

Bola u yon-bu yonga ag'darildi. So'ngra birdan seskanib ko'tarildi. „Yana uyg'onmasam“. Birdan bir qarorga keldi: „Tong otguncha uxlamayman“. Bu fikridan sevinib ketdi. Tong otganda onasi: „Usmon“ der-demas, darrov o'rnidan turib ketadi. Onasi bu ishga juda hayron qoladi! To'shagi ichida sevinchidan sakradi. Yana sevinchi biroz so'nib, ichida qo'rquv paydo bo'ladi: „Yo uxbab qolarmikinman?“ o'z-o'ziga hadeb takrorladi: „Uxlamayman. Hech uxlamayman. Nima uchun uxbabay? Nima bor uxbabay?“

Birozdan so'ng, onasi uning yoniga kelib, qo'lini uzatib, uning boshini silab:

– Qo'zichog'im, uxladingmi? – deb so'radi.

Usmon hech tovush chiqarmaydi. Onasi uni quchoqlab, o'padi. Usmonning ichidan issiq bir sevgi ishq-muhabbatga o'xshash yig'latuvchi bir narsalar kechadi. Tong otishini kutib yotadi. Tong otib, onasi kelib uyg'otganda, darrov o'rnidan turib ketib, onasini juda hayron qoldiradi...

Ona uxbab qoldi. Usmon yotgan joyida ag'darildi. Ko'z qovoqlari og'irlashdi. Lekin Usmon o'zini osonlik bilan uyquga taslim etmaydi.

Bir lahza o'rnidan turib, chuqur nafas olib, yotgan onasining yuziga boqdi. Uning yuzi oy shu'lasi ostida oppoq porlamoqda. O'rilgan qalin sochlari hozir yana ham qora ko'rinxoqda. Qora soch o'rimlari oppoq yostiq ustida yoyilib, yalti-

rab yetmoqda. Ancha vaqtgacha bola onasining oppoq yuziga tikildi. So'ngra boshi og'irlashib, yostiqqa tushdi.

Vaqt yarim kechadan og'gan, atrof kunduz kabi oydin edi. Ayvon ostida yotgan sigirning kavshanihi, tishlarining g'ijirlashi eshitildi. Bolani shirin uyqu bosib, uxladi-qoldi. Tishlarini qisdi. Qo'llari shilq etib yoniga tushdi. Nima qilsa qilsin, uyqu bir suv kabi to'rt yonini qoplamish, ustini bosayotir. Yuzini burishtirdi, so'ngra kulimsiradi. Burishdi, kulimsiradi, onasining bo'yniga tashlandi. Qo'llari onasining bo'ynida...

Oy, g'arb tomondagi dala ustiga og'gan, bir uchi tuproqqa tekkan kabi, botay-botay deb qip-qizarib turibdi.

Sharqdagi tog'larning orqasidan go'zal, oppoq shu'la barq urgach, asta-sekin tog' cho'qqilari oqardi. Qishloqning sigirlari ma'rashga, qishloqda har narsa jonlanmoqqa boshladi. Ona tiz cho'kib, bolaning ustiga egilib, qimirlamasdan boqmoqda.

Bolaning boshi yostiqdan yonboshga tushgan, bo'yni egilgan, yuzi sariq... hatto nafas olmayot-ganday... Kichkina yuzi ola-bula qorong'ilikda g'aroyib bo'lib ko'rinoqda... Ona turib-turib xo'rsinar edi...

Bola shu orada bir qo'lini tashqari chiqardi. Qo'l – boshbarmoq kattaligicha bor. Terisi suyakdan ajralgan kabi burish-burish... Onaning ko'zi shu qo'lga tikildi-qoldi.

So'ng chuqur bir „ulf!“ tortdi. „Qo'zichog'im, uuuf...“ dedi.

Qimirladi, tebrandi. Bolaning yonidan turdi. Kun shu'lesi tomndagi qamishlar ustiga tushmoq-

da edi. Ona g'azab bilan: „Uyg'otmayman“ dedi. „Uyg'otmayman, ochimizdan o'lsak o'laylik. Bir bolaning ishlagani nima bo'lardi?“

Ko'zlarini uning ingichka qo'liga tikib, hozirga qadar bolasining bunchalik zaif ekanligining farqiga bormagani o'zini taajjublantirdi.

– Ochimizdan o'lsak ham o'laylik.

Uzun soch o'rimini og'ziga solib, qattiq chay-nadi. Pastdan eri baqirdi:

– Yana uyg'onmadimi?

Xotin erkalagan, yolborgan bir tovush bilan: – Bola faqirdan nima istaysan? – dedi, – mushtday joni bor. Suyaklari sinadi og'ir ishda...

Eri achchiqlandi:

– Bugun vaqtli uyg'onishi kerak! Uyg'onsin deyman senga! Ishlasin! Tanballikka o'rganmasin. Bolalikdan pishmog'i kerak.

Xotin norizo ahvolda qo'rqa-qo'rqa:

– Qo'li shu qadar ingichkaki... – dedi. Bolanning boshiga borib turdi. Par singari nozik bolani uyg'otib issiq kunda ishga jo'natishga ko'ngli hech rozi emas edi.

– Pastdan kelgan g'azabli tovush:

– Uyg'ot! – dedi, – ot haydaydi. Mustafo og'o-larga so'z berganmiz. Agar bormasa, qayerdan bola topadilar so'ngra? Xotin:

– Hoy odam! – dedi. – Hech ko'nglim chopmayotir. Bir nozikki... Uning ishlashi bizni boy qilar-midi?

Erkak:

– Hozirdan ishlashga o'rgansin... – dedi.

Xotin bolaning sochlarini siladi. Sekin uyg'ota boshladи:

– Usmonim, Usmonjonim tur, qo'zichog'im tur, tong yorishdi. Usmonim. Bola ingradi. Asta bir yondan ikkinchi bir yonga ag'darildi.

– Usmonim, qo'zichog'im! Tong otib qoldi...

Bolaning yelkalaridan turtib uyg'otdi. Shu qadar sekin turtardiki, go'yo suyaklari sinib ketmasin deb qo'rqardi... To'shagiga qayta yotqizdi. – Uyg'onmayotir, axir. Uyg'onmayotir. O'ldiraymi? Jadallab avvondan pastga tushdi. Ayvon beshik kabi lapangladi. Erkak g'azablandi:

– Xudo senga ham balo yuborsin, unga ham... Uyg'onmas emish...

– Uyg'onmayotir, axir, nima qilayin!

Erkak jahl bilan zinapoyalarga hakladi. Ayvonga chiqdi, achchiq bilan bolaning ikki qolidan ushlab ko'tardi. Bola xuddi quyon bolasi singari uning qolida osilib turardi. Hamon uyqusirab: „Ona, ona“ deb baqirmoqda edi. Erkak bolani avvondan pastga tushirib, xotinning yoniga otdi. Bola hovlidagi tuproqqa belandi. Xotin bolasiga qaradi:

– Xudo hech kimning bolasini birovning qoliga qo'ymasin, – deb dodladi. Yugurib borib, bolasini yerdan olib, bag'riga bosdi. Bolaning ko'zlari katta ochilib, hayrat bilan boqardi. Oborib, sovuq suv bilan yuzini yuvdi. Bola o'ziga kelib:

– Ona! – dedi.

– Qo'zim!..

– Og'zimga qizil qalampir tiqdingmi?

Bu orada Mustaf o'g'oning aravasi kelib, uylari oldida to'xtadi.

– Usmon...

Usmon yugura-yugura borib, aravaga chiqdi. Sevinchidan toshiqar, ashulalar aytardi. Ona,

Mustafo og'olarnikiga kundalik ishga boruvchi Zaynabni bir chetga tortib dedi: „Aylanay, Zaynab, Usmonni qo'lla, bola bechora quruq teri bilan suyak...“

— Qo'rqmang, opa, Usmonni xafa qilmayman hech...

Dalaga yetib keldilar. Hali kun chiqmagan... O'roq bilan o'rilib taxlangan bog'lar shabnamli... o't va nam ekin hidi kelmoqda... Chanaga ot qo'shib, bog'larni yuklashga boshladilar. Chanaga bir ot qo'shildi. Otning jilovi Usmonning qo'lida... Chana to'lar-to'limas qush kabi, xirmonga olib keelayotir...

Chanani yuklab turganlar Usmonga tegajoqlik qiladilar:

— Qalay, Usmon?

— Yasha, Usmon!

Usmon sevinadi...

Bu orada qip-qizil bir o'tli shar holidagi qu-yosh ro'paradagi tog'lar orqasidan chiqdi...

Bug'doy poyalardan, bog'lardan asta-sekin, nozik, ko'zga ko'rinar-ko'rinasir bir bug' ko'tarildi. Ko'k yuzida parcha-parcha oq bulutlar kezmoqda. Usmon, xirmon bilan dasta bog'lovchilar o'rtasida moki otmoqda. Usmon jonli, tep-tetik. Zaynab ikki gapning birida „Ha, Usmonim, arslon Usmonim...“ deb erkalatadi. Kun qoq peshin bo'ldi.. Tevarak-atrof qizimoqqa boshladi...

Tuproqdagi bug'doy poyalarga, bog'larga tushgan kun nuri o'tday lovullaydi. Minglarcha, yuz minglarcha, bir-biriga ulangan shu'la iplari ji-mirlamoqda. Bog' bog'lovchilarning changga belangan yuzlaridan tarnovdan oqqanday ter quyil-

moqda. To'rt tomonga o't tushganday yonmoqda. Usmonning qoraygan yuzi yana biroz noziklashgan kattakon ko'zлari qisilgan... Ko'y lagi ham terga pishilgan...

Ertalabki jonlilik qayda!.. Endi Usmon yurganda oyoqlari bir-biriga chalishib ketmoqda. Naq bo'lmasa, yiqilib otning oyoqlari ostida qolishiga sal qolmoqda... Usmon o'zini tutmoqda.

Yer temirdek qizib ketgan. Usmon har oyog'ini bosganda, bir sakrayotir. Shu sababdan yurishlari bir ajoyib... Chana yetib kelguncha, bog' bog'lovchi xotinlar bog'lar ustiga, quyosh qarshisiga yotib, hordiqlarini chiqarishadi.

Usmon hadeb ko'k yuziga qaraydi... Bir parcha bulut... Ba'zan bir oq bulut ko'lankasi ustlaridan bir on qalqib o'tadi... ko'zлari bulut ko'lankasi orqasida...

Kun tepada... Bug'doypoyalar shitirlaydi. Yorilgan qizg'in tuproq Usmonning oyoqlari ostida... Usmonni hadeb sakratmoqda. Joni halqumiga kelgan Usmon ostdan yonmoqda, tepadan yonmoqda. Jigariga qizg'in bir temir suqluganday...

Issiq... Dunyo jimir-jimir lovullamoqda.

Ko'z ochib o'n metr ilgariga boqib bo'lmaydi. Zaynab bog' yuklarkan, Usmonga qayrilib qaradi. Qarasaki, Usmonning oyoqlari dir-dir titramoqda. – Usmon, – dedi, – Usmon...

Usmonim, bunday yayov yurma, seni ot ustiga mindirib qo'yay. Ko'tardi, ot ustiga mindiridi. Usmon otni chuh dedi. Hamon oyoqlarining titrog'i bosilmadi... Ot ustida borib keldi. Zaynab uzoq joyda bog' bog'lamoqda edi. Otdan tushib, Zaynab yoniga bordi. Zaynab so'radi:

– Nega otni qo‘yvording, Usmon? Qochib ket-sa-chi?

Usmon uning yoniga yaqin kelib, qo‘lini ushladi: – Menga qara, – dedi, – Zaynab xola, men katta bo‘lsam, senga oltin isirg‘a olib beraman. – Yugura-yugura ot yoniga ketdi.

Bo‘g‘uvchi bir issiq... G‘ir etgan shamol yo‘q. Ot ustida Usmonning oyoqlari og‘ridi. O‘tirolmasdan qoldi. Xuddi hozir yiqilib ketayotganday bo‘ldi... Ko‘zi hech narsani ko‘rmayotir... Usmon otni haydamayotir, ot o‘zi borib kelayotir. Bir palla tushki yemak chog‘i keldi... Issiqda o‘tirib ovqat yeish kerak... Qon singari iliq suv... Zaynab qancha yalinib-yolborsa ham, Usmon og‘ziga bir burda non olmadi. Hadeb suv ichdi... Zaynabning aqliga kelib, uning boshiga bir ko‘zacha suv quydi. Bola shundan keyin biroz o‘ziga keldi. Ishga turarkanlar, Zaynab:

– Usmonim, – dedi, – sen bor, o‘tir, otni boshqa birortasi haydasin!

– Bo‘lmaydi, Zaynab xola, – dedi, Usmon, – men o‘zim haydayman, hech charchaganim yo‘q. Otni qo‘lidan olgan edilar, Usmon o‘tirib, ho‘ngrab-ho‘ngrab yig‘ladi va „men charchaganim yo‘q. Vallohi, charchamadim“ demakka boshladni. Bir qari xotin:

– Mindiring otga uni... Otning oyogi ostiga yiqilsin-da, majaqlansin kuchukvachcha! – dedi.

– Vallohi, yiqilmayman, billohi, yiqilmayman. Men charchaganim yo‘q.

Mindirdilar. Mindirdilar-u, lekin uch aylanib kelgandan keyin, Usmonning boshi aylana boshladi... O‘zini tutishga urindi.

Biroz o'tgandan so'ng, ot ustiga bor bo'yicha munkayib, yollarini quchoqlab qoldi. Zaynab ishning farqiga borib, ot ustidan Usmonni oldi. Usmon hushidan ketgan edi. Ko'tarib bir bog' ustiga yotqizdi.

– Qo'zichoq, – dedi Zaynab... – Nega o'jarlik qilding?..

So'ng Zaynab yana suv keltirib uning boshiga quydi. Oftobni to'sib, ko'lanka yasadi. Usmonning hushi joyiga keldi. Oqshomgacha, to ish tamom bo'lguncha, Zaynab yotqizgan bog' ustida ko'zlarini javdiratib, ishlaganlarga termilib yotdi. Uyalganidan boshini yerdan ko'tarolmas edi. Ish tamom bo'lgach, Usmonning qo'lidan ushlab, aravaga mindirdi. Bola yumshoqqina bir kulcha kabi edi.

– Usmonim, – dedi Zaynab, – bugun sen xo'p yaxshi ishlading. Mustafo og'o haqingni ortig'i bilan berajak...

Usmon shoshib-pishib so'radi:

– Berarmikin?

– Sen ko'p ishlading.

Usmon jonlanganday bo'ldi. Butun oila to'plan-gan, tashqarida, eshik oldida ovqat yemoqdalar... Nariroqda arava, aravaga bog'langan otlar. Otlar boshlarini yangi pichan orasiga suqib, kirt-kirt kav-shanmoqdalar. Atrofni yangi pichan hidi tutgan. Asta-sekin qorong'ilik tushmoqda. Otlardan biroz ilgarida Usmon daladan kelganidan beri, tikil-gancha turmoqda. Ko'zları betoqatlik bilan, ovqat yeyib o'tirganlarga qarab javdiramoqda. Yemak ustida o'tirganlar Usmonga parvo ham qilmaydilar. Usmon kutmoqda. Eng so'ng, sabri tugab, yo'-

taldi. Hech kim uning yo'talganini eshitmadni. Usmon ust-ustiga bir necha marta yana yo'taldi. Usmon gir aylandi. Yerdan bir kaltak topib, qarsillatib sindirdi. Ovqatlanib o'tirganlar qaraguday emas. So'ngra Usmon sindirgan kaltak bilan yer-ga doiralar, chiziqlar chizdi. Kaltakni kuchi boricha tuproqqa ishqalab qitirlattdi. Uning tuproqqa ishqalanib qitirlaganidan chiqqan ovozlar ham foyda bermadi...

Usmon murodiga erishmadi. Ovqat ye'yishib o'tirganlar gaplashishar, kulishar edilar. Usmon asabiyashdi. Kaltak bilan hadeb yer chizaverdi. Chizgan chiziqlarini oyoqlari bilan tepdi. Kaltakning bir uchi tuproqda... Usmon yugura-yugura kaltak cho'p atrofida aylandi, So'ngra ovqat ye'yishib o'tirganlarni unutib, tamomila o'yinga berilib ketdi... Chizar, chizar va o'chirar edi...

*Turkchadan M. DAVRON tarjimasi*

**Rashod Nuri GUNTEKIN**

**QUSH DONI**

Boyazid qahvaxonalarining birida o'rtog'imni kutib o'tirgandim. Qahvaxonada odam juda kam edi. Ikki-uch kishi o'chib qolgan kaminning yonida past ovozda dardlashib o'tirar; bir keksa xodim, ko'zida oynak, qo'lida gazeta bilan mudrardi. Shu payt qahvaxona o'rtaida eski ipak yopinchiqli keksa bir ayolga ko'zim tushdi. Uning yonida olti yoshlardagi bolakay, bolaning qo'lida esa simdan to'qilgan qafas bor edi. Ayol uzoq yillardan beri Onado'lida yashab kelayotgan bo'lsa-da, unda istanbullik asilzoda xonimlarga xos ko'rinish ko'zga tashlanardi. Qahvaxona egasiga past ovozda ni-malarnidir gapirib, kichkintoyning qo'lidagi qush qafasini ko'rsatardi. Qahvaxona egasi ayolning so'zlarini tinglab bo'lgach, gazeta ustiga bosh qo'yib uxlab qolgan qariyaga xitob qildi:

– Sen qushlarga ishqibozsan! Arzon sa'va bor... Olmaysanmi?

Qariya qush tovushini eshitishi bilan ko'zlarini ochdi. Bolakayni imlab yoniga chaqirdi-da, qafasni qo'liga olib qaradi.

Qushlarga qiziqadigan mutaxassis, shekilli, lablarini burib:

– Yaxshi emas, – dedi. Keksa xonim ranjigan nighohlari bilan qariyani suzdi-da:

– Sotmoqchi emasdigi... Ammo oylik haliga-cha kelmadidi, shundan...

– Hozir hammamiz shu ahvoldamiz... Qushni ko'rib, „Yaxshimas“ dedim, ammo yaxshi bo'lgan-dayam sotib olishga pul qayoqda! Ularni diqqat bilan kuzatib turganimni ko'rgan qahvaxonachi yonimdan o'tayotib:

– Alloh taolo hech kimni muhtoj qilmasin... Bu keksa ayolning yoshgina kuyovi bor edi. Bolqondagi jangda shahid bo'ldi. O'tgan yili esa qizi vafot etdi. Nabirasi bilan yolg'iz qoldi... Qol-ganlarga umr bersin... – dedi.

Uning hikoyasini tinglab, ko'z oldimda butun bir boshli oilaning fojiasi gavdalandi. Mana, shu to's-to'polon yillarda bazo'r kelib turgan bir necha liralik oylik ham necha oylardan beri kelmayot-gandi. Vaqtida juda yaxshi yashagani ko'rinishidan ma'lum bo'lgan keksa xonim, asta-sekin barcha narsalarini sota boshlagan, eng oxirida navbat shu mitti qushchaga kelgan bo'lib, novvoy hamda baqqoldan talaygina qarzdor edi.

Bugun yarimta non hamda bir kaft ko'mir olishga yetgulik pul topolmagan edi. Kichkin-toyni och qoldirmaslik uchun qushni sotishdan o'zga chorasi yo'q edi. Shu eski to'rqafasning ichida boshi hamda bo'ynini qisgancha o'zini nimalar kutayotganini o'ylayotgandek bo'lib ko'ringan bechora qush bir chaqaga qimmat; ammo uning bahosi qanchalik ekanini shahidning shu kichik yetimidan so'rasangiz bormi...

Keksa xonim nabirasini ana shu tilsiz do'stidan ayirish uchun kim bilsin, qancha vaqt ma'ruza o'qigan ekan?..

Qush sotilmadi. Buvisi yosh halqalanib turgan ko'zlarining qiri bilan nabirasiga qaraydi; bolakay ham tashqaridan qaraganda xafadek. Ammo ey, kichik shumtaka, urinishlaring bari befoyda – meni buvingni aldagandek aldayolmaysan!

O'zingni xuddi g'amgindek ko'rsatishga uringan bilan ko'zlarining ichi kulib turibdi, qu-shingni yoqtirishmagani uchun sevinmoqdasan!.. Hozir ko'rasan. Qahvaxona egasini o'rtaga qo'yib, keksa xonim bilan savdolashishga tushdim.

Qafasni istagan narxiga sotib olaman. Keksa xonim stolning ustiga qo'ygan pullarimni birdaniga olmadi. Bunday oldi-sotdilar g'oyat oddiy hol bo'lishiga qaramay, unga og'ir tuyulardi. Faqat pullarning ichidan besh qurush olib, bolakayga berdi. Demak, qushni sotish haqidagi o'zaro suhbatda oraga bir shart qo'yilgani aniq... Buvi men bilan oylik haqida suhbatlashyapti. Maqsadi, so'z orasida qolgan pullarni bilintirmay olish.

Garchi shu maqsadda so'z boshlagan bo'lsa-da, menga dardini aytayotib, g'oyat berilib so'zlaydi. Suhbatga shunchalik berilib ketganimizdan, kichkintoyning ancha payt yonimizdan ketib qolganiniyam sezmay qolibmiz. Biroz o'tib, u qo'llarida bitta kulcha non hamda qalpoq ushlagancha keldi... Kulcha bilan o'zining qornini to'yg'azadi.

Pulining yarmiga bo'lsa, qushga don sotib olibdi. Buvisi bilan suhbatlasharkan, unga qarayman. Mitti hovuchiga ozgina don to'kib, qafasga uztadi. Qush uning qo'lidan don yejishga o'rgangani ma'lum! Qafasning simlari orasidan tumshug'ini chiqaradi. Bola uni ushlab, tumshug'iga ayri-lij o'pichini qo'ndirishni istaydi. So'ngra mening

etagimdan tortib, yoshga liq to'lgan o'tli nigohlari bilan yuzimga boqib:

– Mana bu don sizda qolsin; unga berasiz. Maylimi?.. – deydi. Qalpoqni olgach, qo'liga qaytib beraman:

– Bolam, bu qushga men qaray olmayman. Uni senda qoldiraman, yana o'zing boq! Katta bo'lganidan keyin olaman, maylimi?..

Keksa xonim bu fikrimni noto'g'ri deb topadi.

– Nima farqi bor, buvijon? Bu qushcha kichkintoyga mening bir hadyam bo'lsin! Faqat nima bo'lgandayam qushchani boshqa sotmaslik sharti bilan... – deyman.

*Turkchadan  
Gulbahor ABDULLOH qizi tarjimasi*

## Faqir BOYQURT

### SAMOLYOT CHIPTASI

– Senga aytyapman, ketma. Nima, turkchani tushunmaysanmi? – Oysha jufti halolining miyasini qoqib qo'liga berardi. – Ketma!

Mojaro qasabaning eng chekkasidagi polizda yuz berayotgan edi. Pomidor, kartoshka, baqlajon-u garmdorilar, choyyaproq, oddiy karam, gul-karam va bodringlar to'lin oyning sarg'ish yoruq'ida tovlanib yilt-yilt qilib turardi.

– Ketmaysan dedimmi, ketmaysan, bilib qo'y, otamning adashi!

Mana yetti yildirki, etikdo'z Shokirning o'rtancha qizi Oysha, tandirchi Shokirga erga tekkan. Xotinmisan xotin – qon bilan sutning o'rtasi! Juda hurliqo. Ammo eri Olmoniyada ishlay boshlagandan buyon hayotida quvonch qolmadni. Keling xalqiga yolg'izlik oson emas! Ikki o'g'il, bir qizi bor. U bolalarini juda yaxshi ko'radi, jon-jon deb yana bitta tug'ib bergen bo'lardi, ammo er bo'l mishning qarshilagini qarang!

Hozir u bir oylik ta'tilga kelgan. Biroq to'rt kundan so'ng Olmoniyaga qaytib ketishi kerak. Vaqt esa uchoqning soyasi kabi, lip etdi, o'tib ketdi. Ular biron kunlarini, biron tunlarini zoye ketkizishmadi. Ammo Oysha eriga to'ygani yo'q. Avvalgidan battar havasi ortdi. Ular polizning ich-

karisidagi qo'riqchi-shiyponda uqlashardi. Qoron-g'i tunlar ham, oydin kechalar ham bo'ldi. Kun-duzi ham yo'lini topgan paytlari bo'lardi. „Jannati hayot, – deya hazillashib qo'yishardi ular. – Ba'zi-da tushlikdan keyin ham dam olamiz. Xo'jayin-larga o'xshab“.

– Ketma, ketma, senga aptyapman, otamning adashi. Men sensiz yasholmayman, hech iloji yo'q, otamning adashi. Sensiz kechalarda butun vujudim yonadi, sen esa yo'q bo'lasan. O'g'illarim va qizimni o'paman, xolos... Nima, dunyoning hamma pulini toparmiding! Ketma! Turk tilida aptyapman senga! Yoki u yoqda yurib ona tilimizni unutdingmi? Endi senga tarjimon kerakmi yoki? – Oysha ehtiros bilan shivirlar, bir to'lin oyli, sepkildor yuzli samolarga qarab, bir erini o'pib.

Shokir boshini sal ko'tarib chalqancha yotardi, tishlarida sigaretasi.

Kecha salqin edi. Oysha erini eski ko'rpa bilan o'rab qo'ydi. Er butun dunyoni unutib, o'z fikrlariiga cho'mdi.

„Odamlar turli idoralarda har xil boshliqlar, kattakonlar, amaldorlarga yalinib, Olmoniyaga ketishga ruxsat bering, deb navbatlarda tiqilib yotishibdi. Birov eshik taqillatgan, birov birovning qo'lini o'pgan... porani-ku tilga olmasa ham bo'ladi – har qadamda kimningdir jig'ildonini yog'lash kerak. Meniki bo'lsa: „Ketma, otamning adashi... Turkchani tushunmay qolganmisan?“ deb qaysarlik qiladi. Ikki yil ishlab kelib, mana shu polizni sotib oldim. Lekin hali qarzimning yarmi bor. Hali odam bo'lganimcha yo'q. O'sha-o'sha „tandir-

chi Shokir“ deb chaqirishadi. Yana ikki yil ishlab kelsam, butun qarzimdan uzilib, molxonasi bilan bir uy ham sotib olardik. Gollandiya sigirlari kungiqa o’ttiz litrlab sut beradi. Bir litr sut sakkiz-o’n lira. Sotging kelmasa, yog’ini olasan yo bo’lmasa pishloq pishirasan. Ana undan keyin maza qilib yashaysan.“

– Menga sigirlaring ham kerakmas, molxonang ham, faqat ketma!..

„O’zi etikdo’zning qizi. Otasi ham kambag’al, qiziga yordam berolmaydi. Bu yolg’iz qiz emas, o’g’illari ham bor. Men bo’lsam tandirchiman, ro’zg’orim yana-da nochorroq. „Ikki yalang’och hammomda topishgan“, deguvchilar bizdaylarni nazarda tutsa kerak. Uning ham, mening ham bisotimizda hech vaqo yo‘q. Bir-birimizni sevib qolib, oila qurbanmiz. Uch bola orttirdik, birdan bir quvonchimiz – shu! Xotinga qo’yib bersam, u yana uchini tug’adi. Endi buning hadeb bir gapni takrorlayverishini qarang: „Ketma, otamning adashi“, „Ketma, otamning adashi“... „Ketma“ deyishdan osoni bormi? Ro’zg’or-chi, ro’zg’or nima bo’ladi? Temirning narxi oshdi. Ustaxona va uylarning ijarasi ham ko’tarildi. Go’sht bilan nonning bahosi ham kundan kunga ortib ket-yapti. Erta-indin bolalar maktabga borishadi. Ki-yim-bosh, kitob-daftar, jild va boshqa narsalar uchun puldan cho’zishing kerak. Hozircha ham-mamiz sog’-salomatmiz, Xudoga shukr, ammo ertaga kasal bo’lmaymiz, deb kim ayta oladi? Ana unda doktorlar-u dorilar uchun ham bir saxiylik qilmasang bo’lmaydi. Men kasal bo’lsam tandirni kim yasaydi?.. Odam bundoq kelajagidan xotir-

jam bo'lolmaydi. Qarab tursang, erta-indin qizing ham bo'y yetib qoladi: sepini tayyorla. O'g'llaring uchun qalin puli hozirlashing kerak. Shuncha ko'p boylikni qayoqdan topasan?! Bu esini yegan xotin: „Ketma, ketma“lab bir gapni chaynayveradi. Biz, axir, ikkimiz hammasini bahamjihat o'ylab, bir qarorga kelgandik-ku! Men u rozi bo'lgandan keyin Olmoniyaga yozilgandim. Bizni unchalik qattiq shilishmadi. Ikki yil nari-beri qilib ishlab keldim. Yana ikki yilgina terlab harakat qilsam yomon bo'ladimi?..“

Sigaretasini oxirigacha so'rib, qoldig'ini taxta karavot suyanchig'iga bosib ezdi. Shamol esa daryo tomondan shakarqamishlar va oddiy qamishlar shitirini olib keldi. Qurbaqalar vaqilladi. Olis-olis kichik botqoqlarda chiyabo'rilar uvulladi. Tungi osmonda na bir shingil bulut, na qittay tutun bor edi. Faqat zarhal doira ichida kattakon o'n to'rt kunlik oy suzib borardi. Bolalar allaqachon uyquga ketishgandi. U Oyshani bag'riga tortdi. Ular ehtiros bilan quchishdilar, so'ng yan gitdan bahslasha ketdilar:

– Senga aytyapman, ketma. Nahotki, gapim tushunarsiz bo'lsa? – xuddi cho't qoqqanday takrorlardi juvon.

– Boshqa aytadigan gaping qolmaganday, muncha bir gapni ping'llayverasan!

Yotishda ham, turishda ham, qalampirli bug'doy palov pishirib kelib, erining oldiga qo'yganda ham, tuxum qaynatib kelganda, loviyalı go'sht, kartoshka, sharbat keltirganda ham Oysha qo'shig'ini yana qayta boshlayverardi:

– Ketma. Sensiz yasholmayman.

Bu chin haqiqat edi. U rostdan ham erisiz hech nima qilolmasdi. Hali ketishiga birmuncha vaqt bo'lishiga qaramay, ich-etini mushuk tirnay boshlagan edi. O'g'li magnitofonni yo qizi priyomnikni qo'ydi deguncha, uning asabi o'ynab ketar, bolalariga tarsaki tushirar yo mushtlab qolar edi. Hech narsaga qo'l urgisi kelmasdi. Qo'liga oshpichoq olar va shu ondayoq joyiga uloqtirar, chelak ko'tarib jo'nab qolardi. O'roq ko'tarib o't o'rishga borardi-da, uni tashlab, baqlajon o'tashga o'tib ketardi. Kun o'tgan sayin fe'li aynashi avjiga chiqaverdi. Polizda bodringlar qurib, gulzorda gullar so'lib borardi, ammo hech birini sug'orishga qo'li bormasdi. Kulbalari iflos bo'lib, atrof axlatga to'lib borar, uning, hatto supurgisi ham kelmasdi.

Sochlarini piyozdog' yog'lari bosib, kir bo'lib ketgan, ammo u ikki chelak suv keltirib, qozonda qaynatib olgisi ham kelmasdi. Umuman, hayotdan bezgan, yashagisi kelmasdi. O'zini jazirama sahroda yakka-yolg'izday his qilardi. Ustiga ustak bu yerning erkaklari uni ko'rganda mahliyo bo'lib angrayib qolishar, nigohlari olma-kesak bo'lardi. Hammasidan ham dahshatlisi tunlar edi – u yoqqa ag'anar, bu yoqqa ag'anar, uyqu degani loaqlal bir ko'ziga ham qo'nay demasdi.

– Ketma, yolboraman, ketma. Menga hech nima kerakmas: barqut ko'ylaklaring, neylon koftalaring, plissirovka qilingan yubkalaring, xol-xol gulli nimchalaring... Menga yashil paltolaring ham, gunafsharang shimlaring ham kerakmas. Faqat sen yonimda, qo'l uzatsam yetadigan joyda bo'lishingni xohlayman. Ilgari men yolg'iz qolish og'irligini bilmagandim. Ketma, cho'ring bo'lay, ketma!

– Senga qolsa faqat sevishaversak-sevishaversak. Ikkimiz ham chuvrindi qashshoqlarmiz. Qanday yashaymiz. Bor-yo‘g‘i yana ikki yilgina qoldi. Men qaytib kelaman, deb firmaga va‘da bergenman. Yurtdoshlar bilan shartlashib olganmiz. Bitta oila ketadi va biz besh kishi ularning o‘rnini egallaymiz. Bor-yo‘g‘i yana ikki yilgina. Men minibus – kichik avtobus sotib olaman. Bizning davrimizza endi tandirsozlik bilan kun kechirib bo‘lmaydi. Bu ishga yaroqli sog‘lig‘im ham qolmadi. Yana bu yerda endi sabzavotni mashinaga ortib bozorga borish kerak. Bir muhtojlikdan qu tulib, oyoqqa turib olaylik. Keyin gardanimizda qarzimiz ham qolmaydi. Yana ikki yil chidagin, yerimizning tepe tomoniga uy ham qurib olamiz. O‘zing bilasan, olmonlarning markasiga bizdan juda ko‘p pul almashib olish mumkin. Markanning qadri ortyapti. Agar xohlasang, hamman-gizni uchoqqa o‘tqazib Olmoniyaga olib ketaman. Oilali ishchilarining imtiyozlari bor. Chipta bor-yo‘g‘i to‘rt yuz marka. Ozgina pul ishlab olay, keyin chipta olamiz. Yana ikki yilgina chidagin. „Tissen“ qanaqa firmaligini bilasanmi, balki, bu-naqasi butun dunyoga boshqa yo‘q. Olmonlar: „Xudoday har narsaga qodir“, – deyishadi. Men ishlayotgan shaharda ularning o‘n mingdan ortiq ishchilari bor. Men qaytib bormasam, albat-ta, ular o‘lib qolmaydi, mensiz ham parvo qilmay ishlayverishadi. Ammo men kadrlar bo‘limining boshlig‘iga, pochta pul o‘tkazmalari bo‘limi boshlig‘iga so‘z bergenman. Ularning menga munosabati juda yaxshi. „Mayster“ning xotiniga zardo‘zi kavush olib kelishga va‘da bergenman. Ham-

ma turklar ularga hadya olib boradi, faqat men hech nima obormaganman. Juda uyalaman. Men o'zimiz uchun ko'p narsalarni o'ylab qo'yganman. Chidagin...

Oysha boshini ko'tarib eriga qattiq musht tu-shirdi.

– Men senga „ketma“ desam, sen menga „firma-ga va'da bergenman...“ deysan. Men „ketma“ deb turibman-u, bu kishim „mayster“ dan uyalarmish-lar, buni qara-ya! Mendan-chi, mendan uyalmay-sanmi, otamning adashi? Ketma, men sensiz yasholmayman. Sen bolalarning bunday quvnoqliklariga qarama! Sen ketishing bilan boshlari egilib qoladi. Ularga og'ir, menga bundan-da og'ir. Ketma, Xudo xayringni bersin, ketma, bo'lmasa seni qarg'ayman. Qolsang iting bo'lishga ham ro-ziman, ketma...

– Unday dema, adashimning qizi, men chiptani borishga ham, kelishga ham olib qo'yganman. Adanagacha sakkiz yuz ellik marka to'lab qo'ydim! Nima bo'pti, yana ikki yilgina ishlab qaytaman. Yolg'izlik menga oson deb o'ylaysanmi? Meni har xil mayin so'zlar bilan yupatishing kerak, sen bo'lsang ko'nglimni buzyapsan. Yaxshi emas bu.

Shokir xotiniga o'girildi, yelkasiga qo'lini qo'ydi. Oysha tunlik chit ko'ylakda edi. Erining pinjiga tiqildi: naq qo'zichoqday yuvosh, itoatkor... Shokir mehr bilan uni quchoqladi, erkalay boshladи. Ketishiga hammasi bo'lib to'rt kun qolgan edi. „Mehriga to'yib olish kerak, – o'ylardi u, – shunda yot eldag'i birinchi kunlaring yengilroq o'tadi.“

Oysha yulduzlar charog'onligi so'na boshlaganda uyg'ondi. U erini sekingina o'pib qo'ydi, burnini

ko'ksiga botirdi. U hamon uyg'onmasdi. „Ketma, otamning adashi“, dedi-da, shiypondan pastga tushdi. O'choqqa o't yoqdi. Eski choygumda suv qaynatib keldi. Eri Olmoniyadan olib kelgan yangi choy idishga choy damladi. Sandiqdan katakkatak gulli dasturxonni chiqarib, olib kelib yozdi, non ushatib qo'ydi. Polizdan garmdori, bodring uzib yuvdi, to'g'rab-to'g'rab darsturxonga qo'ydi. Uch-to'rtta kartoshka va tuxum pishirib keldi. Saryog', pishloq keltirdi. Hammasini chiroyli qilib dasturxonga tuzadi. Xuddi shu payt quyoshning gardishi ko'rindi. Bolalar hali dong qotib uxlashardi. Ammo Shokir uyg'ondi. Kechasi ko'ylak-istonini yerga uloqtirgan edi. Oysha ularni yerdan axtarib topib tepaga uzatdi. Shokir pastga tushdi, kanop matosidan tikilgan shimini rezinka bilan yelkasiga tortib kiydi. Oysha uni qo'lida sochiq vasovun bilan kutib turardi. Suv quyib turdi. Shokir sochiq bilan qulqlarini, qo'ltiqlarini astoy-dil tozalab artdi. Kastumi xoda mixiga osig'liq edi. Unga qo'l cho'zdi-yu, kiyish fikridan qaytdi. Oysha bolalarining boshi ostidan ikki yostiqni asta sug'urib olib, chang-cho'plarini yaxshilab silkitib qoqdi-da, erining biqiniga keltirib berdi.

– O'tir, otamning adashi.

Ustiga „Yoqimli ishtaha“ deb yozilgan finjonlar-ni qo'ydi.

– Mayda piyoz yegim kelyapti, ammo olib keli-shga hol yo'q.

– Ko'k piyoz to'g'rab beraymi?

– Boshini olmasdan keltir. Shunaqasidan su-g'urib olginki, achchig'i ko'zdan yosh chiqazib yuborsin.

– Menning ham o'shanaqasidan yegim kelyapti... ko'zdan yosh chiqaradiganini, – Oysha lablarini chapillatdi. U polizdan uncha katta ham, kichik ham bo'lмаган тo'rt bosh piyoz olib keldi. Chit ko'ylagining etagi ko'tarilib ketdi. U etagini to'g'rilaб oldi. Uzun sochlarini orqaga, kiftlariga tashladi. Indamay, ishtaha bilan nonushta qildilar. Toros tog'lari ortidan quyosh ko'tarildi. Shokir yana bir bor cho'zildi.

Oysha choydishga yana qaynoq suv quydi. Xuddi shu asno bolalar ham uyg'onishdi. Bolalar yuvinib kelib tamaddi qila boshlashdi. Qizaloq esa yuvinib o'tirmadi.

– Voy isqirt-ey! – Achchig'i keldi Oyshaning. – Sen butunlay irkit qiz bo'lasanmi deyman? Sochlaring ham taralmagan. Qiz bola degan shunaqa bo'ladimi?

– Hechqisi yo'q, shunday yuraversin, – dedi Shokir, sigretasini maza qilib burqsitarkan. – Mayli, isqirt bo'la qolsin. – U qizini tutib olib, yoshlanib turgan og'riq ko'zchalarini o'pdi. – Men o'g'illarimni ham, qizimni ham – uchchovini birday yaxshi ko'raman. – Ammo bu quruq gap edi. Aslida esa u hammasini har xil yaxshi ko'rardi. Shunchaki xotinining, sen o'g'illaringni ko'proq yaxshi ko'rasan, deb qilgan ginasi yodiga kelib qolgan edi. U qo'llarini o'g'illarining boshlariga qo'ydi.

– Xo'sh, shumtakalar, ahvollar qalay?

– Bor, Semra, hech bo'lmasa yuzingni yuvib kel, – bolalar choy ichib bo'lishlari bilan Oysha qiziga amr qildi.

Birinchi bo'lib Shokir o'rnidan turdi.

– Metin, Mehmed, – baland ovoz bilan o'g'illarini chaqirdi u. – Hozir men polizni yaxshilab sug'oraman, so'ng chiptani kompostirlash uchun Adanaga ketaman.

Bu so'zlar Oyshaning yurak-yuragini tilib yubordi.

Qo'shni polizlardan turli ovozlar eshitilardi. Qo'shnilar otlarini egarlashar, ustiga savat-qoplarini ortishardi. Shokir suv tigilib qolgan ariqqa bordi, uning cho'kichi ariq yonida yotardi. Metin bilan Mehmed unga ergashishdi.

Oysha dasturxonagi kir idishlarni patnisga taxladi. Qizini yuvintirdi. Sochiq bilan yuz-qo'llarini artib qo'ydi. Kulba oldidagi o'choqqa o't yoqdi. Zumda suv qaynatdi. Bir to'p kiyim-kechaklarni yuvib, butalar ustiga yoydi. Quyosh endi qattiq qizdira boshlagandi. Oysha choyshab va yostiq jildlarni yuvishga kirishdi.

Shokir butun poliz bo'ylab o'g'illari bilan yelib-yugurar, kartoshka, pomidor, loviya va bamiya ekinzorlarini sug'orardi. Jon-jahdi bilan ishlab, yuragiga in qurgan hazinlikni bosishga urinardi.

Oysha og'zida kuchli achchiq his qilar, ayni chog'da yuragidagi alam hech pasaymasdi. „Bu shayton chiptasini komdostir qilgani Adanaga ketarmish, – zardasi qaynardi uning. – Men bo'l-sam, qip-qizil ahmoqqa o'xshab uni qolishga unab yotibman.“

U xoda oldiga borib, unda osig'liq turgan kastumming ichki cho'ntagidan kompostirlanmagan chiptani chiqarib oldi. Hali aqlini yo'qotmagan paytida ko'ngliga bir ish qilishni tugib qo'ygan edi. Hozir hech ikkilanmay o'sha qarorini amalgalashdi.

oshirdi: chiptani gurullab yonayotgan olovga otdi. „Mana, endi ko'ramiz qanday qilib ketarkansan, otamning adashi!“ Chipta gur etib yonib, zunda zig'irday kulga aylandi. Oysha kosovni olib, o'choqni tita boshladi.

Shokir o'g'illarini bag'rige bosib, ularga Olmoniya haqida hikoya qilardi.

– Ikkinci jahon urushida butun mamlakatni bombardimon qilib, tosh ustida tosh qoldirishmadi. Bir tomondan – ingliz-u amerikalilar, ikkinchi tomondan – ruslar. Chunki bu la'nat fashistlar qo'shnilariga hujum qila boshlagan edi. Fransiyani, Polshani, boshqa mamlakatlarni talon-toroj qilishdi, butun dunyoni o'zlariga bo'yundirmoqchi edilar.

Keyin ularni bosh ko'tarolmaydigan qilib ko'mib tashlashdi.

Shtutgart munitsipal muzeyidagi vitrina ostida shaharning urush tingandan keyingi fotosurati bor. Biron ta butun qolgan uyi yo'q, boshdan oyoq vayrona. Hozir shahar qandayligini bir ko'rsangiz edi! Hamma yoqda kashta-kashta gul polizzari, maysazorlar, asfalt. Kompaniyalar va firmalar yoppasiga katta-katta oyna qoplangan uylar qurib olishgan. Ming-minglab fabrika karnaylari naq osmonga tiraladi. Boshqa shaharlarda ham bundan kam emas. Ularning qabristonlari xuddi istirohat bog'lariga o'xshaydi.

Men hammangizga u yerni ko'rsatsam deyman. Ammo oyingiz tomog'imga pichoq tirab: „Ketma, ketma“ deya tixirlilik qilyapti. Ertalabdan kechgacha aytgani bitta qo'shiq...

Oysha uzoqdan eriga qarab-qarab qo'yardi.

„Endi hech qayoqqa ketmaysan. Yetadi ikki yil azob tortganlarim!“

Shokir tushga yaqin poliz sug'orishni tugalladi. Oyoq-qo'llarini yuvdi. Yog'och shiypon tagiga kirdi. Ho'l sochiq bilan yaxshilab artindi. Toza ko'yaklarini kiydi. Bolalar ham yuvinib-taranib kelishdi. Oysha yana dasturxon yozdi.

Pomidor va garmdorilari bilan bug'doy palov suzib keldi.

Shunday yeishdiki, birpasda laganning tagi yiltirab qoldi. Oysha hammalarining oldiga non ushatib qo'yib, yana laganga ozroq osh suzib keldi.

– Metin, Mehmed, sizlarni ham Adanaga olib ketaymi?

Yana ikki yil sabr qilsanglar, minibus olib kelaman. Adanaga, Mersinga borib kelaveramiz. Bugun – Toshuchiga, ertaga – Yumurtaliqqa. Bir kunda borib kelaverish mumkin. Yangi uyga televizor olib kelamiz: ko'rib yayrab o'tirasizlar! Katta derazalarni ochib qo'yamiz. Oyingiz beton ayvonga suv sepati – salqinginada o'tiramiz. Stol, stul, pichoqlar, sanchqilar va qoshiqlar. Har xil idishlar.

O'sha yerda, ayvonda ovqatlanamiz. Uyga elektr tushiramiz.

Oqshomlarimiz yop-yorug' bo'ladi. Uchchovin-gizga bittadan velosiped oberaman. Minib matabga borib kelaversizlar.

Semra, Xudo xohlasa, institutga kiradi. Hayot hayot emas, huzur-halovat bo'ladi. Xohlasanglar, Olmoniyaga boramiz. Hammamiz birgalikda uch-to'rt yil ishlab kelamiz. Gollandiya shundoq yonginasida. Amsterdam, Rotterdamda bo'lamiz.

Gaaga, Madurodam, Sheveningen – juda chiroyli shaharlar deyishadi. Gollandlarning qand-qurs-u shirinliklari shunaqangi zo'r bo'ladiki, mazasi allamahalgacha og'zingdan ketmaydi. Bozor kunlari u yoqqa ham borib kelamiz, shirinliklarini totib ko'ramiz. Chegaralarda, hatto pasportingga ham qarashmaydi... Hech qanaqa viza-piza kerakmas. Albatta, u yerda ham bu inflatsiya degani bor. Kundan kunga hamma narsa qimmatlashib borayotir. Ammo biz baribir borib-kelamiz. Men faqat shu ikki yil ichida ozgina ter to'kib kelay. Sizlar biroz ulg'aya turinglar, so'ng maktabga boradigan bo'lasizlar. Agar o'sha yoqda qolib ketadigan bo'lsak, sizlarni darhol maktabga yozdirib qo'yaman...

Shokir ilhomlanib ketganidan bolalarga xuddi tengdoshlariday gapira boshlagan edi. Keyin birdan dik etib turdi, yana bir bor yuvindi, xodadagi mixdan kastumini oldi va yelkasiga tashladi. U shunday erkin, siqilmasdan yurishni yoqtirardi. Ko'prikboshigacha yayov borish kerak, undan u yog'iga bir yo'nalishdagi taksiga chiqib olishi mumkin.

– Xayr, adashimning qizi! – U xotiniga va bolalariga qo'lini silkitdi.

– Xayr, otamning adashi!

U bog' eshididan chiqdi-yu, ichki cho'ntagini paypasladi. Ichida hech nima yo'qday tuyuldi. Cho'ntakka qo'lini tiqdi. Xudoga shukr, pasport joyida ekan. Bu juda bebaho narsa, kumush bilan oltindan ham qimmat. Sal angraysang, zumda ilib ketishadi. O'sha ilib ketgan odam Olmoniyaga sening o'rningga ketadi. Pasport joyida. Ammo

chipta qani? Shokir talvasaga tushib hamma cho'ntaklarini titkiladi. Chipta yo'qligini ko'rib, ortiga o'girildi va tez, deyarli yugurgancha uyiga qaytib kirdi. Bir tirgovuchda osig'liq turgan kichkina sumkani yulib oldi va uni kavlay boshladi.

– Chiptam qani, Oysha? – deb baqirdi. – Passport joyida, chipta esa yo'q. Qayoqqa yo'qoldi, la'nati?!

– Ko'r'madim.

– Nima-nima?

– Ko'r'madim, deyapman.

Chipta hamon topilmasdi.

– Bilmadim. Aytayapman-ku, ko'r'madim, deb.

– Rostdan bilmaysanmi?

– Men uni yoqib yubordim! – tan oldi Oysha chetga qarab.

– Yoqib yubording?

– Ha. Olovga otdim, yonib ketdi.

– Rostdanmi?

– Rostdan.

Shokir yiqlilib tushmaslik uchun xodani ushlab oldi. Esankirashi g'azab bo'roni bilan almashindi. U to'ppa-to'g'ri xotinining ko'kragiga mushti bilan bir tushirdi. Yana ustma-ust mushtladi. Oysha tirnoqlarini ishga solib, qo'lidan kelgancha qarshilik ko'rsatdi. Yoqalashib ketishdi. Ularning urishishiga uzoqdan qo'shnilar qarab-qarab qo'yishardi, ammo hech kim aralashmadi. Oyshaning yuzlari ko'm-ko'k bo'lib ko'karib ketdi. Shokirning burni kattakon qizil garmdoriga o'xshab qoldi. Bir-biridan o'lguday xafa bo'lib ajrashdilar. Kech kirdi, hech kim kechki tamaddi haqida o'yamas edi. Kechasi Oysha yovg'on sho'rva qilib bolala-

rini to'yg'azdi. Kattakon non pichoqni qo'liga olib shiyponga chiqdi va uxlagani yotdi. Pichoqni to'shak ostiga yashirib qo'ydi. Ko'klardan yana to'lin oy o'z yog'dularini to'kdi. Shokir yarim kechasi shiyponga chiqdi.

– Men senga, ketma, deb aytdim. Agar ketsang, qo'lma-qo'l bo'lib ketaman. – U nonpichoqni chiqardi va eriga uzatdi. – Yaxshisi, o'zing meni so'yib ket. Qip-qizil qonimni to'k. Ammo bir o'zimni tashlab ketma.

– O'chir, – Shokir kafti bilan uning og'zini yopdi. – Qanday qilib boshqalarning xotinlari bir o'zi yashaydi? Nima deyayotganiningni o'ylasang-chi!

– Boshqalar bilan mening ishim yo'q. Men yasholmayman. Ketma.

Shokirning yuragi ezilib, pichoqni yulqib oldi va polizga uloqtirdi.

– Bo'pti, jin ursin seni, hech qayoqqa ketmayman. Lekin bilib qo'y, adashimning qizi, sen chip-tani emas, mening o'zimni yoqib yubording.

– Ketma.

Tuproqlar uzra tun qorong'isi mayin-mayin to'shaldi. Yuksakda samolarning sepkildor yuzi jilmayardi. Qurbaqalar vaqillardi.

Chiyabo'rilar uvullab-uvullab qo'yishardi. Kak-kular shoshilmasdan muhabbat sharafiga o'z qo'shiqlarini kuylashardi.

## OTAMNING ISHI

Duysburgda vokzal katta: o'n uchta perroning hammasi qubbasimon shisha tom ostida. Bir poyezd kelaveradi, boshqasi ketaveradi. Puling bormi, o'tir-da ketaver: Gollandiyami, Daniyami, Shvetsiya, Shveysariya, Avstriya, Fransiyami, ko'ngling tusagan tomonga... Yo'lovchilar oqimi kunduzi ham, kechasi ham tinmaydi. Yuklar – xomashyo, tayyor mahsulotlar oqimi ham xuddi shunday. Besh emas, o'n emas, qirqta temiryo'lda yuk vagonlari ortishni va bo'shatishni kutib turadi. Chamamda, yorug' dunyoning biron yerida boshqa bunday vokzal yo'qday ko'rindi.

Yaqinda o'qituvchimiz frau Ramaxer:

– Ikki sinf, shu jumladan, sizlarning sinf ham Kylunga sayohatga boradi, – deb e'lon qildi. – Xarajatlarni mакtab to'laydi. Sayohatda qatnashish majburiy. Lekin ota-onangizdan yozma ruxsat olib kelishingiz kerak.

Men uyga qanot bog'laganday uchdim. „Mana bu gal endi, – o'yladim, – dadam yo'q deyolmaydilar“.

Aytganimday bo'ldi. Gaplarimni eshitib, otam „ha“ ham, „yo'q“ ham demay, bosh chayqab qo'ydilar, xolos. Ammo men ham darhol: „Yaxshi, qizim, bora qol“ – deb rozi bo'lishlarini kutmagan-

dim. Unaqalardan emaslar. Ammo unamay gapimni shart kesib qo'ymadilar – „shunisiga ham rahmat“.

– Ota, agar bormasam, meni sinfda qoldirishadi, – deb tushuntirdim yaxshilab. – O'quv sa-yohati bu, tarix darsi bilan ikkovi bir.

Bu chin haqiqat edi – men, axir, oyimga ham, dadamga ham hech yolg'on gapirmayman. Biz roman-german muzeyini ziyyorat qilishimiz lozim edi. Umuman, men ota-onam bilan Kyolnga borganman, ammo biz bu muzeyga kirib o'tmagan-dik. Bizdan taassurotlarimizni yondaftarga qayd qilib kelish talab qilinardi. Bularning hammasini otamga aytib berdim va sarf-xarajatlarni maktab to'lashini ta'kidladim.

– Ey omon bo'lgur, Komil og'a, nimasini o'ylaysiz? – deya meni qo'lladi oyim. – Maktab barcha xarajatlarni to'larkan, siz ruxsat xati yozib berarkansiz, xolos. Tushlik uchun 20 marka bering qizingizga, tamom-vassalom. Qolgani Xudoga havola.

Baraka topkur oyim zo'r-da o'zi.

Lekin otamdan ham xafa bo'sak, gunoh bo'ladi. U o'ttiz marka chiqarib menga uzatdi.

– Meni to'g'ri tushun, Gultan. Biz bu yerda begona odamlar orasida musofirmiz. Agar ehtiyyotimni qilmasak, bir baloga yo'liqishimiz hech gap emas. Seni nemis maktabiga borganimiz uchun ba'zi yurtdoshlarimiz uchiriq gaplar qilib yurishibdi. Ammo bu mening ishim. Ular turk vaqfi fondiga pul o'tkazishimiz zarurroq edi, deb hisoblashadi. Ammo bu ham mening ishim. Sen esa xotirjam sayohatga boraver. Lekin to'g'ri borib,

to'g'ri kel, nojo'ya harakat qilma, o'zimning shakarim, xo'pmi?

– Nojo'ya harakat qilmaydi, xavotir olmang, dasasi, – yana yonimni oldi onam. Boshini ko'tarib, mag'rur qaradi, – arslondan qayeri kam? Qizimiz hech qachon yomon yo'lga yurmagan va yurmaydi ham.

Oyim dadamni ishontirish uchun o'lib-tirilayotganini eshitib: „Negayam qiz bo'lib tug'ildim-a, o'gil bo'lganimda maza bo'lardi, – deb o'yladim. – Turklar o'g'llaridan xavotir ham olishmaydi, yo'g'am deyishmaydi – nima so'rasa berishadi. Menga bo'lsa „Unday yurma, bunday yurma.... begona joylarda“, degan tanbehtar... Jonga tegdi“.

Mening oyim judayam yaxshi, tushungan xotin. Otama qanday yondashish, qanday muomala qilishni biladi. Otam bergen pulga yana o'z yonidan o'n marka qo'shdi. Faqat nemislargina o'z bolalariga sayohat uchun shuncha pul berishadi...

Otam ishga kech qolmaslik uchun ertaroq yotdi. Men uydan undan bir soat keyin ketishim kerak edi. Yig'ilish soat yettiga tayinlangandi. Shuning uchun men ham televizor ko'rmay, erta yota qoldim.

Soat jiringlaganda, men yonboshimga o'girildim va oyimning „U yana bir soat uxbab olsin“ – deganini eshitdim. Otam menga yana bir-necha yo'l-yo'riq berish uchun hamon meni uyg'otmoqchi bo'lar, ammo oyim: „Kerakli gapning hammasini men o'zim unga aytaman“, deb uni menga yaqin yo'latmasdi.

Ukalarimni uyg'otishga ham qo'yamadi. Otam jimgina kiyinib, ishiga ketdi.

Men uyg'onib o'rnimdan turganimda, choy tayyor edi. Aksariyat nemislarning choyi biznikiday xushbo'y va achchiq bo'lmaydi, ammo bu safar u menga shunday yoqdiki, bir yo'la bir necha finjon ichdim. Oyim nimaki tayyorlasa, hammasi mazali bo'ladi. Men yana ikkita saryog'li buterbrod yedim. Oyim safar jildimga sochiq, sovun, tish cho'tka va taroq soldi.

„Yugur, – dedi u, – bo'lmasa kech qolasan!“ Men Rurortgacha avtobusda borib, keyin tramvayga o'tishim kerak edi. Yo'l uchun vokzalgacha o'ttiz-qirq daqiqa vaqt ketardi.

Olmoniyada avtobuslar aniq vaqtarda yuradi. Xuddi poyezdlarday. Har bir bekatda oynali ramkada qatnov jadvali osig'liq. Avtobuslar ko'rsatilgan vaqtida keladi. Begin kunlari vaqt oralig'i qisqaroq, dam olish kunlari kattaroq. Biz – ukam ikkimiz uncha ko'p kezmaymiz. Otam „Avgust Tissen“ zavodida ishlaydilar. Shuning uchun Rurortgacha oylik chipta olib qo'yadilar, shunda arzonroq tushadi.

Rurortdan o'tayotganimizda, men dadam ishlaydigan zavodni ko'rdim. U Anqaradagi Xo'ja masjidi kabi juda katta va ulug'vor. Uning naq ko'kka qadalganday karnaylari minoralarga o'xshaydi. Peshtoqinning yarmi oynadan, yarmi pishiq g'ishtdan. Yon devorlari esa sement, oqlab qo'yilgan-u, lekin qurum bosib yotibdi. Bu yerda hamma binolar shu qadar kirk... „Tissen“ kompaniyasi esa juda katta bir saltanat. Bu yerda, Duysburgda katta zavodlari ko'p. Brukxauzenda bundan ham

kattarog'i bor. Yana Oberxauzen, Boxum, Essen va boshqa joylarda ham zavodlari bor.

„Zavodimiz tashqi tomondan bunchalik chirolyi ekaniga qaramang, – deb hikoya qiladi dadam. – Ichkarisi – do'zaxdan battar. Yozda ham, qishda ham odamni adoyi tamom qiladigan alan-gayi otash. Jahannamning o'zi. Olmonlar pivo bilan chanqoqlarini bosishadi. Bizning turklar esa dasturxon ustida tilga olib bo'lmaydigan „onangi“larni aytib so'kinishadi yoki, aksincha, Allohdan madad so'rab duo o'qishadi. Biz pivo ichmaymiz, chunki bir tomondan gunoh bo'lsa, ikkinchi tomondan ortiqcha chiqim. Dam olmay ishlab terga botamiz.

Qaynab turgan suyuqlik katta temir cho'micha suzib olinib, qoliplarga solinadi.

Halokat bilan yakun topadigan ko'p baxtsiz hodisalar bo'lib turadi. Men hozircha nina teshigidan ipni bemalol o'tkaza olaman. Allaqachon ko'r bo'lishim mumkin edi, lekin ko'r bo'lmadim, chunki qora ko'zoynakda ishlayman.

Rostini aystsam, mening ishim unchalik qiyin emas. Xudoga shukr, uni eplab turibman. Ma'danni eritib, eritma sifatini tekshiraman. Qo'limda emas, albatta, maxsus uskunalar bilan. Menga kerakli narsani avtomat uzatib turadi. Eritishni ham avtomat bajaradi. Bu Olmoniyada hamma ishni avtomatlar qiladi. Sen faqat bir tugmani bosasan, xolos... Men o'zim olmonlarga o'xshab pivo ichmayman. Biznikilar kabi „onangi“lab so'kinmayman. Faqat imkon qadar ishni „bismillo“ bilan boshlayman. Binda tushlik soat o'nda. O'shanda choy ichaman: baraka topkur

Ko'k Sulaymonning jannati qizi termoslarga qu'yib beradi! Saryog'li va pishloqli buterbrod bilan bitta ko'k olmani tanovul qilaman. Tanaffusdan keyin ishning unumi ortadi.

Xuddi tog'dan tushayotganday bo'lasan. Oyoqlarni chalishtirib o'tirasan, avtomatlar o'z ishini qilaveradi. Mening o'rnimga keluvchi sheringim – italyan. Juda tartibli yigit, ish boshlashiga ropa-rosa besh daqiqa qolganda keladi: Biz yaxshi do'stlarday qo'l berib so'rashamiz, keyin men dushga ketaman. Sovun bilan yaxshilab yuvunaman. Uydasovun ishlatmay qo'ya qolaman. Qarabsizki, faqat iqtisod qilingan sovunning o'zidan bir yilda sakson marka tushib turibdi! Bu – bitta shimga yetadi, bo'lmaganda orqangni bekitasan...“

Rurortda men bilan birga tramvayga sinfdoshim Silviya ham chiqdi. Ko'z ochib-yumguncha qo'lida gitarasi bilan Xaynrix ham oldimizda paydo bo'ldi. Men uni yoqtirmayman, qandaydir bir qaynovi ichida, telbaroq. Vokzalda bizni frau Ramaxer kutib oldi. Tezda gerr Lorens ham yetib keldi. So'ng, bizga yon tomonimdag'i partada o'tiradigan qo'shnik Gizela qo'shildi. Soat roppa-rosa yetti edi. Vokzal bolarining iniga o'xshardi. Bir dan boshqa shaharlik bir to'da ishchi yopirildi, ko'pchilik duysburgliklar. U yoqqa ishslashga ketayotgan edilar.

– Ayrim ishchilar bu yoqqa, hatto Hamburgdan va Bonndan ham keladi, bu yerlik ba'zi birovlar esa Dortmund va Monnsterga ishslashga boradi, – deb izoh berdi frau Ramaxer.

Men esa iljayib qo'ydim va ichimda: „Faqat Olmoniyada emas, butun yorug‘ dunyoda Duysburgday boshqa shahar yo‘q, – deb o‘yladim. – Bu yerga olis turk qishloqlaridan ishlagani kelishadi. Oyim to‘g‘ri aytadi: shahar, albatta, boshdan oyoq tutun va qurumga ko‘milgan, hatto tepada osmon ham ko‘rinmaydi, lekin bu yerda pul ish-lash mumkin, eng muhimi shu-da o‘zi! Pulning o‘rni bo‘lakcha!“

Mana men pulni hisoblay boshladim. Birgina shu Kyoln sayohatimga dadamningsovundan iqtisod qilgan yarim yillik puli ketar ekan. Oh, dadajonim, mendan hech nimangizni qizg‘anmay-siz-a!

Bolalar uchta-uchta, beshta-beshta bo‘lib keli-shardi. Ba’zi birovlar taksida, Monika Shneyderni mashinada onasi olib keldi. Ursula o‘z yigit Xartman bilan qadam ranjida qildi. Hamma to‘planib bo‘lishi bilan safar xaltalarimizni yelkaga osdik va yerosti yo‘lagi bilan to‘rtinchi perronga bordik. Yonib-parpirab turgan tablo poyezdimizning sil-jish vaqtini ko‘rsatardi. Biz kutib turdik. Tegramiz yo‘lovchilar bilan to‘la edi, hammasi olmon-lar. Ba’zilari itlarini ham olib kelishibdi. Bizning sinfda birgina men turkman. Olmon tilini yaxshi bilganim va boshqa fanlarni ham tappa-tuzuk o‘zlashtirganim uchun, olmon sinfiga qabul qiliшgan. Umuman olganda, turk bolalari yillab tayyorlov sinflarida o‘tirishadi.

Oyim meni omadlisan, deydi. Erga tegishda ham omading kelsa – tamom-vassalom. Baxtli bo‘ldim deyaver!

Biz Olmoniyaga ko'chib kelganimizda tepamizda bir buvi turardi. U meni o'zi bilan bozorga olib borar, o'ynagani istirohat bog'iga yetaklab ketardi. Ko'pincha, uyiga chaqirib, men bilan olmoncha gaplashardi.

Bir jumlanı eslab qolishim uchun, o'n marta lab, hatto yigirma marta ham takrorlardi. Ukalarimdan ham e'tiborini soqit qilmasdi. Shu kampir tufayli dadam ham olmoncha gaplashishni o'rganib oldi. Oyim, hatto dadamni undan rashk qila boshladi. O'rtalarida biron nima bo'lgan-bo'lmananini bilmayman, faqat oyim dadamni ikkinchi qavatga chiqarmay qo'ydi. Ammo bizlarning chiqishimizga qarshilik qilmasdi.

Bundan ikki yil burun bizning buvimiz o'ldi. Oyim norozi bo'lib, qovoq-tumshuq qilganiga qaramay, dadam uni Noyer Fridxof qabristoni ga qadar kuzatib bordi. Dafn marosimida odam juda oz edi: ikki-uch qarindoshi, qizi va otam. Yotgan joyi parday yumshoq bo'lsin iloyim! O'sha xotin menga olmon tilini o'rgatdi. O'shandan buyon hayotimda hammasi yaxshilikka qarab ketgan.

Poyezdimiz hali kelmagandi. Men Monika Shneider bilan yonma-yon turardim; ikki vatandoshimiz perronni supurib yurganini ko'rdim: biri – shundoq yonginamizda, ikkinchisi – sal nariroqda. Yaqinimizdagisi quyuq mo'ylovlar orasidan tutun burqsitardi.

– Hey, Komil og'a, – deb qichqirdi u tuyqusdan. – Tugat endi, bu yoqqa kel. Tez orada Myunnen ekspressi jo'naydi.

Ikkinchı farrosh qaddini rostladı. Xuddi badanımni chaqmoq urganday, bir titrab tushdim. Bu mening dadam edi.

Boshim aylanib ketdi. Bu nimasi? Otamga yaqinlashishdan hadiksirardim: Monika Shneyderning ko'zi tushishini istamas edim – uning shu paytda bilib qolishi bemavrid ko'rinaridi. Otamning sherigi meni ko'rib qolishi ham xatarli edi. Eng ma'quli o'zimni chetga olish. Men Xaynrixning ortiga yashirindim: uning kiftlari barvasta, yana tag'in qo'llarida gitarasi ham bor edi. Ammo o'zim dadamni kuzatardim. Odatda, u ishga ketarkan, o'zining qishloqdan olib kelgan eski kepkasini boshiga qo'ndirib olardi. Ammo bugun u fransuz politsiyachilari kiyadigan kepkasimon bir narsani kiygandi. Ham hokimiyat farroshlari kiyadigan kiyimda edi. Agarda sherigi uning otini aytib chaqirmaganda men uni, hatto payqamagan bo'lardim. Tish cho'tkaga o'xhash uzun cho'tkasi bilan yo'lovchilarining oyoqlari atrofidagi sigareta qoldiqlarini ilib-ilib supurib olardi. Ba'zi bir olmonlar, amerikaliklarga o'xshab, koka-kolanning ezilgan idishchalarini duch kelgan yerga otib ketishardi. Yoki qatiq idishchalarini axlat qutiliga otishar va ular ham mo'ljalga tushmay sochilib yotardi. Bizning buvimiz, urushdan ilgari hamma olmonlar juda pokdomon bo'lishgan, endi ular yomon tomonga o'zgarib ketishdi, der edi.

Men hech kimga bildirmay, dadam qanday ishlayotganini kuzatayotganimda poyezdimiz keldi. Otam cho'tka-supurgisini piyoda askarlarday yelkasiga oldi-da, bizning perronimizga sak-

rab o'tdi. U o'z sheringining yoniga kelib to'xtadi, shundan keyin ikkovlari poyezd qay taxlit taraqaturuq qilib va vishillab, g'ildirab kelishlariga qarab turishdi. Ikkovlarining ham mo'ylovleri uzun-uzun va quyuq edi. Otam biz tomonga qarab-qarab qo'yardi. Balki, u o'quvchilar to'dasi ichidan meni qidirgandir. Buni fahmlaganimda, ko'nglim battar cho'kib ketdi.

Sayohat hammasi bo'lib bir kunga mo'ljallangan edi. Uyga qaytganimda kechqurun nima deyman endi?

„Demak, dada, sizni Xo'jatepa masjidiga o'xshaydigan o'sha ajoyib zavoddan haydashibdi-da? Farroshlikka borishga majbur bo'libsiz-da?“

Ammo men u nima deb javob berishini oldindan bilaman:

„Qizalog'im, men senga avtomatlar to'g'risida gapirib bergandim. Bu la'nati avtomatlarning har biri o'nlarcha, hatto yuzlarcha ishchilarning o'rnnini bosa oladi. Shuning uchun ortiqcha ishchilarni, birinchi navbatda, muhojirlarni ishdan bo'shata boshlashdi. Shunday qilib, men ham ko'chada qoldim. Turgan gapki, juda qattiq xafa bo'ldim.

Ammo sizlarni xafa qilgim kelmadi, hech kimga hech nima demadim. Olti oy ish qidirdim. Odadagi vaqtim, erta bilan ketar, oqshom qaytardim. Rahmat, do'stlarim yordam berishdi, farroshlikka joylab qo'yishdi. Ko'rganingday, endi men Duysburg vokzalida, sheringim Avnosli Ibrohim bilan perronlarni supuraman. Sen, Gultan, endi ancha katta bo'lib qolding, hayot nimaligini salpal tushunishing kerak. Ishmi ish, ishdan uya-

lib yurish o'rinsiz. Har neki bo'lsa-da, sendan iltimos qilaman: oyingga ham, ukalaringga ham hech nima dema. Yana bir iltimosim – har doim aytadigan gapim – to'g'ri yur, ona qizim. O'zingni ham, oilamizni ham uyatga qo'yma. Senga aytar gapimning hammasi shu...“

## KOMBAYN

Sharif Alining g'oyat katta, oxiri ko'rinxmaydi-gan bug'doyzorlari, hatto sokin, shamolsiz kundarda ham xuddi oltin dengizday mavjlanadi. Yorqin quyosh yog'dulari ostida mayin-mayin raqsga tushayotganga o'xshaydi. Uning bunday bug'doyzorlari to'rttami, beshta. Deyarli hammasi yaxshi sug'oriladi, hosili ko'pligidan omborlari to'lib-toshadi. Sharif Ali ba'zan qishloqdagi hovli-joyida, ba'zan shahardagi hovli-joyida posholar-day yashaydi. Bu yerda uni „og'a“ deyishadi – hammani shunday o'rgatgan. Bu uning qulog'iga kuyday xush yoqadi. Hamma sendan qo'rqib-qaltirab tursa qanday yoqimli! Agar boy-badavlat, poda-poda sigir-buqalar sohibi, katta mol-mulk egasi bo'lsang, bu o'z-o'zidan shundoq bo'lishi turgan gap. Sharif Ali yoshlidan izzattalab va boylikka hirs qo'ygan edi. Otasi xotinlikka uch qizdan birini tanlashni tavsiya qilganda, xunuk bo'lsa ham eng boyini tanladi. Xotini o'lib tul qolganda, yana juda ko'rimsiz boy qizga uylandi.

Uyi qarol va xizmatchilar bilan to'la edi, o'rim-yig'im paytalarida esa u yana batraklar ham yollardi. Bu yoqda hech kim uning gapini ikki qilishga botinolmasdi. Har qalay, yigirma to'rt qishloqli butun Erla tekisligida u biron-bir amal-

dor yo boshliqqa ta'zim qilmas, o'zini erkin, hatto kibrli tutardi.

Hozir aynan yozning oxiri, dala ishlari qizigan bir palla edi. Quyosh atrofni juda qattiq qizdirardi.

Bug'doyzorda qo'shni qishloqlardan kelgan kunbay mardikorlar ishlashardi. Sharif Ali ularga juda oz, arzimagan haq berardi, lekin ular shunisiga ham xursand edilar.

O'rimchilar o'ttiz sakkiz kishi bo'lib, asta-asta ilgarilab borishardi. Yaraqlagan o'roqlar qandaydir, boshqa hech qanday ovozga o'xshamaydigan g'alati tovush chiqarardi.

Oralaridan qil ham o'tmaydigan bu zich qatorda erkaklar ham, ayollar ham bor edi. Ularning har biri yonidagi sheringining nafaqat achimsiq ter isini his qilar, hatto nafasini va yurak urishini ham eshitardi.

Qo'chqorning shoxiga o'xshaydigan o'ziga xos mahalliy o'roqlarning jadal siltovlаридан boshoqlar uzunasiga qatorlashib yotardi. Bug'doyi o'rillgan maydon borgan sari kengayib, o'rilmagan maydon esa kichrayib borar, butunlay tugashiga oz qolayotgandi.

Sal uzoqroqda uchta xoda va yirtiq latta-puttan dan nari-beri qurilgan chaylacha turardi. Uning soyasida qo'pol qurib o'rnatilgan belanchak chayqalar, unda uch oylik bir chaqaloq mudrab yotardi.

Sharif Alining o'zi qator o'roqchilar ortidan izma-iz to'kilib qolgan boshoqlarni terib kelardi. Odam degan bekor turmasdan nima bilandir band bo'lishi kerak-ku! Gap yo'q, bitta-yarimta boshoq qolib ketsa balo-qazo yuz bermaydi! Mayda-chuya da jonivorlar, qushlar yoki och-yalang'och qash-

shoqlar ham boshqalardan foydalaniб qolishsin. Bu dunyo shunday qurilgan, axir.

Arslonlardan qolgani shoqollarni to'ydiradi. Yetimlar va bevalar ham og'adan qolganiga to'yishadi.

„Og'aning ahvoli bu kunlarda juda ilgarigiday mustahkam va baobro' emas, – xo'rsindi Sharif Ali. – Agar hamma yerlarimni to'rttala o'g'limga bo'lib bersam, har qaysisiga tuzukroq-tuzukroq tegarmikin. Qanaqasiga og'a bo'lasan, agar yerring kam bo'lsa? Endi odamlar Egeybo'yi tomonlarga ketib qolishyapti. Biri paxta terishga, biri fabrikada ishlashga... Hatto batrak ham topolmaysan. Ilgarigi zamonlar boshqacha edi! Boryo'gi bitta hushtak chalsang, zumda chopib kelisthardi. „Bizni oling! Bizni oling!“ – deb yolvorib oyoq ostida o'ralashardilar. Sen bo'sang eng sog'lom, baquvvat yigit-qizlarni tanlab olarding. Hech kim senga qarshi bir so'z aytolmas, nima ni buyursang, o'shani qillardi. Jandarmlar, amadorlar, boshliqlar – hammasi sening og'zingga qarab ish tutardi. Men bu dunyoga kechikib keldim, shekilli, eh, kechikib keldim. Yil o'tgan sayin kumbay ish haqi ortib boryapti. Emishki, ular paxtadan ko'proq pul ishlasharkan. Paxta teruvchilarga qanchadan berishsa, senam shunchadan ber, shunda sen bilan qolishadi. Tavba, shuncha yo'l qurishning nima keragi bor edi? Shu tekinox'rlar yangi fabrikalarga bora olishlari uchun qurildimi?..“

O'ng taraf kattasi (o'roqchilar qatorining ikki chetidagi kishilar „katta“ deb chaqiriladi) baland ovoz bilan qo'shiq boshladi:

*Hamma yoqqa qo'shiq yog'ilar...*

Bu xol-xol ko'yakli baquvvat yigit edi. U xatsavod o'rganmay qolib ketgan, kitob-gazit o'qimaydi, radio eshitmaydi: ular u yerda nimalarni valaqlashayotganini tushunmaydi ham. O'rimda doim boshqa batraklardan bir necha qadam oldinda borar, ulardan o'tib ketardi. Ammo hozir to'xtadi-da, qaddini rostlab, ikki qo'lini beliga tiradi:

*Hamma yoqqa qo'shiq yog'ilar...*

Chap tarafning yoshi ulug'roq kattasi unga jo'r bo'ldi:

*Kelayotgan kimlar?  
O'rimchilar, o'rimchilar!  
He-he-he-e-ey!*

O'ttiz sakkiz bo'g'izning hammasi bir yoqadan bosh chiqarib qo'shiqni bab-baravar ayta boshladi.

Qishloqlarda keng tarqalgan bu dehqoncha jo-rovozlik qo'shig'i aytilganda na baland, na past, na ayol, na erkak ovozlarini farqlab bo'lardi. Ular ning qo'shig'i atrofdagi barcha tepaliklar bo'ylab jaranglardi.

Tushlik yaqinlashayotgan vaqt, quyosh bor kuchini ishga solib qizdirayotgan bir palla edi.

Batraklardan besh yuz metrcha naridagi tepalikning uchida, sigirlar podasi yonida bir cho'pon turar, xayol surib dalaga qarab-qarab qo'yardi. „He-he-hey“ sadolari uning ko'ksida kuchli bir hamdamlik tuyg'usini qo'zg'ardi.

Qandaydir bir daqiqalarda u har yoqqa o'tlab ketgan podasini unutdi. Bu kimsasiz tomonlarda

cho'ponning ko'rgiligi batraklarnikidan og'irroq. U odamlarni sog'inadi. „Mollarni sug'orib olay, keyin yana shu yerga haydab kelaman, – deb ahd qildi cho'pon. – Azbaroyi Xudo, juda azamat-da bu batraklar! Ularning qo'lida ishga jon kiradi. Oqshomgacha o'rim bitdi deyaver. Ana, bog'-bog' qilib bog'lashyapti. Hash-pash deguncha yanchgani olib ketishadi“.

Cho'pon xizmatchilardan ko'zlarini uzmasdi. Bug'doy o'rimi oson ish emas, beling singuday bo'ladi, lekin men hozir jon-jon deb ular bilan birga ishlagan bo'lardim, odamlarni sog'inib, yuragim qon bo'lib ketdi, axir!

Batraklar yana bir marta „he-he-hey“ni aytib olgach, qaytadan boshqolar ustiga egilishdi. Ik-kala tarafning kattalari yangi qo'shiqni avj oldirib yubordilar. Ular qo'shiqni yaxshi, kiftini keltirib kuylashardi. Tezda boshqalar ham ularga jo'r bo'lishdi. Qo'shiqqa butun jon-dillarini berishardi.

Sharif Ali orqada o'z-o'zicha ming xil o'y-fikrlar og'ushida kelardi: „Menga kombayn ol, deb maslahat berishadi. Mening shunday xizmatchilirim bor, kombaynni nima qilaman?“

– Yashanglar, yigitlar, yashanglar! – deb baland ovoz bilan qichqirib qo'ysi u. – Topgan pulingiz halolidan bo'ladi, yaxshilikka buyursin! Men siz larga bir tog'ora holva olib kelishni buyuraman, – dedi kerilib. – Yashanglar, yigitlar, yashanglar! – deb qichqirishda davom etarkan, kunbaychilarga yanada yaqinroq keldi.

Sharif Ali sariq saxtiyon etik kiygan edi. Maj-nuntolning qamchiday novdasi bilan qo'njlarini urib-urib:

– Yashanglar, yigitlar, yashanglar! – deb takrorlashini qo'ymas edi.

Batraklar orqalaridan izma-iz kelayotgan xo'-jayin ularni, yalqovsanlar, deya ta'na qilishidan hadiksirab, baravariga ishga zo'r berishardi. Boshoqlarni batamom yoyib tashlashdi. Quyosh borgan sari qattiqroq qizdirardi. Batraklarning ko'pchiligi – ochiqko'ngil, quvlikni bilmaydigan odamlar. „Shunday o'rish kerakki, biron ta ham boshoq qolib ketmasin“ – deyishardi ular. Ammo ularning orasida „qari bo'rilar“ ham uchrab turardi: ular, ko'pincha, qatordan orqada qolishga urinar, shunda qolganlarga ish ikki baravar og'irlashardi. Odamlar bekorga „Og'ir-og'ir, o'rtadagi-larga og'ir“, demaydi. Ayyorroq va ziyrakroqlari chetga yaqin joyda bo'lishga intilardilar.

Sharif Ali o'rtada turardi. Uning nazariga nimadir ilashdi, nimaligini o'zi ham bilmaydi. Uning old tomonida tolmadakkina kelishgan bir qiz ishlayotgan edi. „Shu menga yoqib qoldimi deyman? – o'yladi Sharif Ali. – Yo'g'e. – U bu taxminini xayolidan chiqarib tashladi. – Hali go'dak-ku. Ammo zo'r ishlar ekan. Epchil, chaqqon...“

Tolmadek qizning yonida zuvalasi pishiq, gavdasi baquvvat bir juvon bug'doy o'rayotgan edi. Faqat yomon kiyingan, hatto cholvari yirtiq-yamoq edi. Yirtiq joylaridan qizg'ish badani tashqariga shunday tiqilib chiqib turardi!

– Yashanglar, yigitlar, yashanglar!

Biqqi juvon o'rilgan boshoqlarni tashlab, shundoq orqasiga o'girilgan edi, ortida og'ani ko'rdi. Esankiradi. Nima qilishni bilmay, o'roqni yana-da tezroq shig'illatdi.

Sharif Ali:

– Yashanglar, yigitlar, yashanglar! – deb qich-qirishda davom etdi. O’zi esa zavq bilan juvonga baqrayardi. „Mana buni xotin desa bo’ladi! Sog-lomligini qarang! Faqat shunaqa zuvalasi pishiq juvonlardan sog’lom bolalar tug’iladi!“ U o’zini chetga oldi, ammo bir zumda qaytdi.

„Bunday xotinni qancha yedirib-ichirsang, shuncha joning yayraydi. Yasantirsang ham maza qilasan! Ko’rganning ko’zi quvonadi. Zo’r! Zo’rligiga gap yo‘q. Yelkalari kengligi, qo’llari kuchliligini qarang. Qayerdan keldiykin bu go’zal jonon?“

Batraklar dalaning oxirigacha chiqib, orqaga qaytishdi. Sharif Ali yosh juvонни ko’zlari bilan yeb qо‘ygudek edi. „Zo’r. Zo’rligiga gap yo‘q. Yuzlari ham dumaloqqina. Terisi naq anorday. Chiroyli ayol chiroyli-da...“

Ular bir necha marta ko’z urishtirib oldilar.

„U menga bir nima demoqchi, shekilli?“ – juvonni qо‘rquv bosdi va nariroqqa ketdi. Sharif Ali esa hamon angrayar, juvondan ko’zlarini uzolmasdi.

Batrak ayol chayлага qarab ketdi. Demak, chaqaloqning onasi shu ekan-da, – fahmladi darhol xo‘jayin. Juvon cho’nqayib, belanchakka egildi. Bola baland ovoz bilan yig’lab yubordi. Kun issiq. Aftidan, bechora terlab ketganga o’xshaydi. Bo‘yni va oyoqchalari qizarib ketibdi. Ayol tayoqchalarga ilib qо‘ygan fartugini olib, bolani yelpiy boshladи. Keyin ko’kragini chiqardi.

„Sutim juda isib ketmasdan oldin uni emiza qolay“, – degan xulosaga keldi u.

Kichkina miqti, ona ko'kragini hech qo'yvormas, tinmay so'rар, yana so'rар edi. Ko'rinib turibdi, kasal emas, baquvvat. Insholloh, tiqmachoq dan kelgan yigit bo'ladi. Ko'krakni ildizi bilan yulguday bo'lib tortqilar edi.

Xo'jayin o'ng tarafning kattasini chaqirdi:

– Bu yoqqa kel-chi...

U darhol yugurib keldi.

– Nima deysiz, og'am?

– Bu yosh juvon kim?

Batrak ko'zini qiyshaytirdi:

– Bumi?

– Ha.

– Qishlog'imizdagи Sulaymon molboqarning xotini, og'a. Yoshlarimiz har qayoqqa ketib qopti. Bolalik bo'lsa ham uni olishga to'g'ri keldi.

Sharif Ali chaylachadan ko'zini olmasdi. Yon taraf kattasi ham o'sha yoqqa qaradi.

– Men uni olmoqchi emasdим, juda ko'p yalindi. Erining aybi bilan qishloqdagи bir sigirning oyog'i sindi. Oqsoqolimiz molboqarga jarima soldi, u bo'lsa bor-yo'g'i o'ttiz lira oylik oladi. Eng past maosh. Bunday moyana bilan kun ko'rib bo'ladimi? Mana endi xotini o'zini o'tga-cho'g'ga uryapti – qishin-yozin ishlagani-ishlagan. Shu sababli „Meni ham ola ket. Loaqal o'zimga biror gazzlama olarman, ko'ylaksiz qoldim“, deb yolvordi. Uning, hatto ro'moli ham yo'q, og'am. Qo'lida uch oylik chaqalog'i bor. Unga achindim, Xudo haqi, judayam achindim.

– Oti nima?

– Oti Fotima, og'am.

– Ha, uning holi achinarli ekan, – dedi Sharif Ali. – Mayli, ishlayversin. Yuz ellik lira yerda yot-

maydi. O'n kunda bir cholvorlik pul ishlab olsa yomonmi? Juda yasan-tusanga yetmasa nima bo'pti? Yoqimli ayol ekan, juda yoqimli.

– Yaxshi ishlaydi, – deb javob berdi batrak.

O'rim davom etardi.

Batrak chayla yonidan o'tarkan, Fotimani cha-qirdi:

– Emizishni to'xtat. Xo'jayinning jahli chiq-yapti.

Fotima shosha-pisha ko'kragini tortib oldi, bolani qaytarib belanchakka yotqizdi va yugurib joyiga bordi.

Sharif Ali yana qator ortidan qo'zg'aldi.

Batraklar xo'jayin o'zlariga qarayotganini pay-qab, biroz mushshayishdi.

Hammadan ko'proq Fotima xavotirda edi.

„Izimdan qolmay yuripti. Nega bolangni sud-rab olib kelding, deb tashlanib qolsa kerak hozir. Uch oylik bolani kimga tashlab kelaman, axir? Erim boshqa bolalar bilan hozir nima qilayotgan ekan? Hamma yog'i ifloslanib, pashsha talab yotgan bo'lsa-ya? Yurak ham siqilib ketdi. Aqli odam molboqarlik qilmaydi, aqli xotin molboqarga tegmaydi. Hammaning sigir-buzog'iga qarash oson ekanmi? Qo'tondan chiqarar-chiqarmas egasi to'ng'illaydi. Biron ekinzor payhon bo'lsa – yana boshingda balo. Shu zayil molboqar bechora doim ikki o't orasida. Ulgurishing kerak, hammasiga ulgur. Beradigan oyligi choriqqa ham yetmaydi. Mening Sulaymonim esa ko'z ko'rib quloq eshitmagan lavanglardan. Bitta sigirni tosh bilan oyog'iga urib, yarador qilibdi. Biz o'zi ikki qurushni ham zo'rg'a topamiz-ku,

tag'in ikki yuz lira jarima to'larmishmiz. Uning o'rnida bo'lsam, o'samam to'lamasdim. Qishloqliklarimiz o'z mollariga o'zлari qarashsin. Qilgan ishini qarang: ketimizni yopadigan latta-puttamiz ham yo'g'-u, tosh bilan urishga balo bormi? Chaqalog'imni bu yoqqa olib keldim. Sharif Ali esa orqamdan qolmaydi. Biladiki: bolali xizmatchi xizmatchi emas.

Bel qurg'ur zirqiradi, egilmayapti. Yon taraf kattasi esa nuqul: „Hey-hey, bo'la qol“, deb qichqirib qo'yadi. Chap taraf kattasi bilan birga aqlsiz Boqiyning „O'zganing g'amini kim ham tushunar“, degan qo'shig'ini ayta boshlashdi. Ha, to'g'ri gap bu, o'zganing g'amini kim ham tushunadi deysiz? Ustiga ustak olamda yo'q issiqlikni ko'ring!“

\* \* \*

Tushlikdan so'ng shabada esib hamma yengil tortdi. Ertalaboq aylanib yurgan cho'pon yana tepalik yonbag'rida ko'rindi. Bog' bog'lovchilar ishga baravar kirishgandi. Boshoq bog'larini shu yerning o'zida uchta aravaga ortishdi. Sharif Ali esa hamon batraklar qatori ortida o'ralashardi.

„Menga kombaynning nima keragi bor? – takrorlardi o'ziga o'zi. – Hech qanaqa kombayn mening xizmatchilarimga yetolmaydi. Bir kunning o'zida butun boshli bir maydonda yig'imterimni bitkazishdi. Bular ham o'rishadi, ham bog' bog'lashadi, ham tashib berishadi – hammasini o'zлari qilishadi. Xohlasam, barini bir kunda yanchtirib olishim ham mumkin. Voy-voy, bu Fotimasi munchayam zo'r-a! Yashavor, Fotima! Bir o'zi bir kombaynning ishini qiladi!“

Chindan ham Fotima ishni qoyillatdi. Ishlashi va epchilligiga qarab, batraklar unga „Kombayn“ deb laqab qo'yishdi. Holva olib kelishganda, Sharif Ali unga ko'proq berilsin, deb buyurdi.

– Axir, uning chaqalog'i bor, boshqalardan ko'ra ishslash unga og'irroq. Mayli, to'yib-miriqib yesin, – dedi u baland ovoz bilan xi-xilab.

– Fotima, og'amiz seni sevib qolganga o'xshaydi, – hazillashib kulib qo'yishdi batraklar.

– O'ziyam ishni qoyillatasan-da! Kombaynga o'xshab.

– Fotima kombayn-da o'zi!

Sharif Ali yana Fotimaga yaqinroq bordi, hamma yirtiqlardan do'ppayib ko'rinyotgan badaniga hirsli ko'z bilan yeb qo'yay deb qarardi.

„Xotinmisan xotin! – zavqlanardi u. – Asal! Faqat allaqanday tog' ayig'iga nasib qilgani achnarli. Qishloq molboqari degani chuvrindining chuvrindisi, eng qashshoq odam degani. Loaqal orqasini bekitib yurishga yaraydigan biron ko'ylak ham olib berolmaydi. Uni boqolmaydi ham, buni qarangki, shundoq bir qashshoq odam – uylanib-di-ya! Och-yalang'och bo'lsa ham, qanday zo'r xotinni qo'lga kiritibdi! Butun qishloqda boshqa bunday xotin yo'q. Uni erkalatish va asrab-avaylash kerak. Qimmatbaho matolar kiygizib yasan-tirish kerak. Ertalab qaymoq bilan asal yedirish kerak – qancha xohlasa shuncha yesin. U chuvrindida bunga pul qayoqda?“

Chayladagi go'dak tinmay yig'lay boshladi. Fotimaning yurak-bag'ri ezilayotgan bo'lsa ham, qatordagi joyini tashlab ketishga botinmasdi. Faqat o'sha tomonga bildirmay qarab-qarab qo'-

yardi. Ammo qanday qilib ketsin, og'a undan ko'-zini olmay orqada turibdi?

– Bor, kichkinangni emizib kel, – ruxsat berdi Sharif Ali.

Fotima chaylachaga oshiqdi.

Sharif Ali maydonning yon tomoniga qarab yurdi. U yerdan ketma-ket boshoq bog'lari ortilgan aravalalar jo'nab ketayotgan edi. Boshoq bog'lari borgan sari kamayib, dalalar yalanglashib borardi. Tepalikdagi cho'pon ham bu yoqlarga goh-goh qarab qo'yar, podasini tezroq g'alladan bo'shagan shu ang'izga qo'yvorgisi, shu yerlarda boqqisi kelardi. Poda miriqib to'yguncha, u ham kунбайчilar bilan u yoqdan bu yoqdan gaplashib olish mo'ljalida edi.

Sharif Ali chaylacha yoniga keldi. Go'dak iliq sutni ochko'zlarcha so'rardi.

– Fotima! – past ovoz bilan chaqirdi Sharif Ali, uning yoniga o'tirarkan. U juvonning yelkalariidan, kichkina ro'mol o'ragan boshidan, ochiq tomoqlari va ko'kraklaridan ko'zlarini uzmashi.

Fotima tizzalarini zichlashtirib, qizargancha ochiq joylarini to'sdi.

– Assalomu alaykum, og'a, – deb qo'ydi hurmat va hadik bilan.

– O'g'ilchang juda chiroyli ekan, Fotima.

Ayol indamay yutinib qo'ydi.

– O'zing ham juda chiroylisan, odam qarab to'ymaydi. Shunday shirin nashvati nok allaqanday tog' ayig'iga nasib qilsa-ya! Omading yo'q ekan!

Fotima unga qiya nazar tashladi. Sharif Ali yaqinroq surildi, butunlay bezbetlashdi.

Kunbaychilar xirillagan ovoz bilan baqirib: „He-hey“ larini aytishardi. Cho'pon podani yonbag'irdan pastga hayday boshladi.

– Fotima, nega shu paytgacha seni ko'rma-dim-a?

Fotima unga o'girildi. Endi ular shundoq yuzma-yuz, tizzalari tizzalariga tegib o'tirishardi. Yuraklari gurs-gurs urar, nafaslari bo'g'izga tili-lardi.

– Agar ko'rsang nima bolardi? – deb qo'ydi kunbaychi juvon bo'g'iq ovoz bilan.

– Seni ering bilan o'z qishlog'imga olib ketardim.

– Sizlarning qishlog'ingizda molboqar yo'qmi?

– Menga molboqar kerak emas. Kim kerakligi-ni o'zing tushunasan-ku.

Fotima tizzalarini o'ziga tortdi. Ko'kraklari yana ochilib qoldi.

Sharif Ali oldinga surildi.

– Menga sen keraksan... – dedi u. – Lablaring-ning asali, Fotima... Ko'zlarining cho'g'i, Fotima... Allohning jannatidan qora tutlaring...

Fotima titrab-qaltirab ketdi.

– Tog' o'rmonlarining ajoyib qushi. O'tloqlar-ning nafarmon gunafshasi. Ohu. Jonim Fotima!

– Sen meni shirin gaplar bilan yo'ldan uraman deb o'ylama... qush... chiroylisan... – juvon nihoyat o'zini yig'ib oldi. – Menday bir kambag'al bechora-dan nima istaysan sen?

Og'a yuziga boshqacha tus berdi.

– Eh sen uyatsiz-ey! U juvonga tik nazar tash-ladi: qarasa, hamla qiladigan...

– Meni uyatsiz dema, Sharif Ali og'a. Men hech qanday uyat ish qilganim yo'q. Sen menga og'asan.

Muhtaram, obro'li odamsan. Bu kattakon vodiyya seni bilmagan odam yo'q... Yaxshilikcha jo'na bu yerdan. Menga tegma. Tushundingmi?

– Xo'jayining bilan qanaqa gaplashyapsan?

Fotima xo'mraydi, yuzlari qorayib ketdi. Qichqirib, odamlarni yordamga chaqirib o'tirmadi. Sharif Ali baquvvat, pishiq kishi – naq qoyatoshning o'zginasi edi. Ammo Fotima birdan sapchib turdi va qayerdandir paydo bo'lgan allaqanday jasorat unga kuch berdiki, po'latday quyma mushti bilan to'ppa-to'g'ri Sharif Alining basharasiga tu-shirdi. Keyin yana bitta soldi.

– Ey la'nati, senga aytdim-ku, menga shilqimlik qilma deb.

Sharif Alining og'zi-burni qonga botdi. Boshi aylandi. Xuddi atrofdagi tog'lar ustiga yiqilgandek edi. Daraxtlar uchiga turib qolganga, ildizlari havoda tebranayotganga o'xshardi.

– Yana bir marta qo'l tekkizib ko'r-chi! – deb pishilladi Fotima, u hamon mushtlarini qisib turardi. U o'zining shunchalik kuchi borligidan, dovyurakligidan hayratda edi.

– Xo'jayining bilan shunday muomala qilishga qanday hadding sig'di? – deb g'o'ldiradi Sharif Ali.

– Xo'jayin bo'sang o'zingni xo'jayinday tut. Qo'llaringga erk berma.

– Qanday hadding sig'di...

– Shunday sig'di, Xudo Joningni olsin!

U o'rnidan turdi. Yerdan tayoqchalarni sug'urib oldi, lattalarga o'radi.

Bolani opichib, qishlog'i tomonga yonbag'ir osha yuqorilab ketdi.

Sharif Ali Fotimaning uzoqlashgan sari kichrabyib borayotgan qaddi-qomatiga indamay qarab turardi. Ikki marta xaxolab qo'ydi.

– Og'aga tirnoqcha ham hurmat degan narsa qolmadi! – dedi asta to'ng'illab.

Turmoqchi bo'ldi-yu, ammo turolmadi.

U bir necha daqiqa qimirlamay yotdi. Batraklar „He-he-hey“lab qichqirgancha dalada o'rimni davom ettirishardi. Shu chog' birdan cho'pon yaqiniga keldi. Sharif Ali og'zi-burnining qonlarini artib olmoqchi bo'ldi-yu, ammo ulgurmadi.

– Iya, Sharif Ali og'a, senga nima bo'ldi? – deb so'radi cho'pon.

– Nima ishing bor? – yirtqich hayvonlarday jirrilladi Sharif Ali. – Nega ahmoqona savollaring bilan senga dahli yo'q narsaga burningni suqasan? Yo'lingdan qolma, it...

– Ha-a-a! – deb chuqur xo'rsindi hayratdan esankirab qolgan cho'pon. – Nima bo'ldi, muhtaram og'aginam? Og'zi-burning qop-qora qon ekan, shuning uchun nima bo'ldi, deb so'rovdim-da. Axir, sen bizning xo'jayinimizsan.

– O'chir! Yo'qol tug'ganining oldiga! Bo'lmasa, hozir turib basharangga shunday tushiramanki, tug'ilganingga pushaymon bo'lasan!

– Yaxshi, og'a, ketyapman, ketyapman.

– Tuyog'ingni shiqillat, tezroq-tezroq!

Sharif Ali o'z g'azabini hech qanday aybi yo'q cho'ponga to'kib-socharkan, shu asno Fotima xo'jaynini qanday boplab urganini xayolidan o't-kazgancha asta-sekin tog'ga ko'tarilishda davom etardi.

## XONIMLAR KUNI

Inson bitta odamga bitta voqeani ming marta, har safar bir xil jumlalar bilan hikoya qilib berishi mumkinmi? Nahot shunday qilib bo'lsa?

Seni ko'rmay-bilmay sog'inayotganimning nechanchidir kuni. Anqara-Istanbul orasidagi o'tgan yozdan qolgan shamollar xonamning ochiq derazalaridan kiradi. Atrofda kitoblar, daftар va yana allaqanday qog'ozlar sochilib yotibdi. Men esa yozishdan to'xtamayman. Narigi xonaga olib kiruvchi eshikdan g'arib bir kulgingining qo'rg'o-shinday og'ir saslari eshitiladi... Hech qanday maqsadsiz, orzu-umidlarsiz ayollarning qahqaxasi... Kulgi saslari tobora balandlaydi, to'lqin-to'lqin bo'lib xonamga yoyiladi. Narigi xonadagi ayollarning bir vaqtning o'zida ham kulib, ham kimnidir qarg'ashga, la'natlashga kuch topolgani meni hayron qoldirardi. Yaxlit bir suhbat ichida besh xil mavzu muhokama qilinadi. Dengizdan daryolarga tarqalayotgan suvlar kabi ajralgan mavzu oqimlari bir-biriga qorishib ketardi. Mening xayolimda esa faqat ishq dolg'alanayotir. Tushunyapsanmi, ular shu yerda! Narigi xonada o'tirishibdi. Hech narsadan bexabar g'iybat o'chog'iga o'tin qalashmoqda. Bugun xonimlar kuni bo'lgani uchun kimdir ularni biznikidagi ziyofatga chaqir-

gan. Xolalar, onalar, buvilar tuz yig'ilgan tizzalariiga titroq qo'llarini qo'ygancha nimalarnidir vaysashadi. Ularning atrofida qaysidir qarindoshning o'g'limi yo qizimi aylanadi. Eski gina-kudratlarning badbo'yи havoga yoyiladi.

Uy sohibining kech kelgan mehmonga qilgan ginasi, mehmonlarning bir-biridan qilgan o'tmish ginasi... Bu ginalarning hidi anjir va dolchin tayoqchalari hidiga qo'shilib xonani to'dirib yuborgandi. Ha, havoda yana mening sog'inchimdan tarqalgan ismingdek latif bir is ham bor edi-ki, buni o'sha amma-xolalar sezishga ojiz.

O'rnimdan turib tashqarilayman. Ikki qadam yursam senga, zinalar ostidagi maxfiy xonamga yetaman. Ammo.. men bu ayollarni tashlab keta olarmikanman? Ularsiz yashay oladi, deb o'ylaysanmi meni? Hay mayli...

Bu ayollarga aralashib ketolmayman, ammo uzoqlashish ham qo'lidan kelmaydi.

Kishibilmas bir xotirjamlik ila yerga cho'kaman. Tinglayman. Tinglarkanman, seni eslay boshlayman...

Esingdami, har bir yangi kun eskisini takrorlayverar, biroq u nimasi bilandir o'zining boshqalarga o'xshamasligini bildirib qo'yaverardi. Har bir lahzaning o'ziga xos ohangi bor edi. Narigi xonadagi ayollar ham yashaganmikan shunday kunlarni? Ular ham xonimlar kunida men kabi kimnidir... kimdandir o'zi-da bilmas nenidir kutganmikan? Ularning vaysashlarini ko'p eshitganman. Suhbatlasharkan, o'sha amma-xolalar ming xil mavzuni o'rtaga tashlaydilar. Men esa bu mavzular ichidan uchtagina harfli so'z – ishqni qidi-

rardim. Ilinj bilan boqardim ularning yuzlariga. Hech bir yangi narsani sezmasdim. Bu yerda qay bir ayolni g'iybat qilayotgan xolamni, aniq bila-man, boshqa yerda boshqa xotinlar g'iybat qili shyapti. Boya aytganimdek, bir odam ayni bir odamga bitta voqeani bir xil so'zlar bilan ming martalab aytib berishi va bundan ming martalab zavq ola bilishi mumkinmi? Mumkin ekan. Ular bir-birlariga o'n yil avval o'lgan o'gay tog'a-sining xotini kim bilan ketib qolgani-yu, uch yil oldin ketib qaytmagan qo'shnilar haqida hikoya qilaveradilar. Buni, hatto men yodlab olganman. Birdan ichim to'lib ketadi. Xonimlar kunida ham shunday xotirjam bo'lish mumkinmi? Ularni yaxshi ko'raman, biroq yuragimning tubida naf-ratmi, kuduratmi, qandaydir mendan avval tug'il-gan sezim bor bu ayollarga nisbatan. Xonimlar kunida yig'ilgan bu urug'-aymoqlar bir-birlariga nima uchun talpinishini bilarmikan?

Bola edim. Onam etagi bilan burnimni artib qo'ydi-yu, ayollar orasiga qo'yib yubordi. Men bir chekkada ularning gap-so'zlarini, nigohidan taralayotgan allaqanday hidrlarni va o'zimning feruzarang jimgligimni tomosha qilib o'tirardim. Nima ham der edim ularning orasida? O'z o'rnim bo'limgan joyda o'z so'zim bo'lishi mumkinmi? Kimning qizi to'rda, kimniki poygakda o'tir-ganining menga nima farqi bor? Undan ko'ra tinxmay javrayotgan xolalarimning devorga tushgan soyasiga qarab, soyalar teatridda o'tiribman, deb tasavvur qilib qo'ya qolsam-chi? Ehtimol... ehti-mol, umrimning eng baxtli damlari shu davralar ichra o'tayotgandir? Mayli, nima bo'lganda ham,

meni doim aytilgan emas, balki aytilmagan so'zlar ko'proq qiziqtirgan.

Axir, ko'rmaysizmi, ular xonimlar kunini nishonlashmayapti. Men uni bir billur sukunat bilan qarshi olmoqchi edim. Nima deysiz endi, narigi xonada bazm bo'layotir. Ular baland pardalarda suhbatlashishardi. Bir-birlariga shu qadar ichki nigoh bilan qarashardiki, bilmagan odam bu xotinlar bir-birlarini ilk daf'a ko'rib turishibdi, deb o'yldi. Mayli, menga nima? O'zimni amma-xolalarimning so'zlaridan taralayotgan islar oqimiga otaman. Suzib borarkanman, ichimda kimdir, kun kelib sen ham shu befahm xotinlardan biri bo'lasan, deyotgandek bo'lardi.

O'tirgan yerimdan turib ketaman. Ichkariga kirishni xayolimga ham keltirmayman. Ko'nglim hech nima tilamasdi. Hech narsa yozmoqchi ham emasman. Na o'qish, na qayernidir timirskilash, na o'ylash, na yashash... na o'lish... Hech narsani istamasdim. Ammo... axir, bugun xonimlar kuni-ku! Zinalardan ilgarilayman. K irganimni ko'rib xotinlar bir jim bo'ladi-yu, ichlarida, salom ham bermaydi befarosat, degancha yana vaysashga tushib ketishadi. Xolam va qo'shni ayolning orasiga tiqilaman. Yana xonimlar kuni haqida o'ylay boshlayman. Kimdir bir lagan shirinlik qo'yadi oldimga. Yonimdagilarning gap xaltasi kattaroq ochilib, yuz martalab eshitganim - Rafiqa xonimning kechki sayrda erini begona ayol bilan qanday ushlab olgani haqidagi hikoya boshlanadi. Bu voqeani hali eshitmagan, davraga yangi kelgan kelinlar ham Rafiqa xonim ammasining qiziday oraga luqma tashlab qo'yadi. Men

esa jimman. Faqat jim. Axir, bugun xonimlar kuni ekanini ular bilmasa, men aybdor emas-ku? Og'zimda yetilib pishgan anjirning ta'mini tuygancha ularni tinglab o'tirishdan boshqa ilo-jim yo'q. Men... doimgidek jimman.

*Turk tilidan  
Mirzohid MUZAFFAR tarjimasi*

## MUNDARIJA

Nashriyotdan .....	3
Ibratl tasodif.	
<i>Miad Hakimov tarjimasi</i> .....	5
Masxaraboz.	
<i>Ma'rufjon Yo'ldoshev tarjimasi</i> .....	7
Jo'ravoz bo'lib .....	9
Idol Branski.	
<i>Miad Hakimov tarjimasi</i> .....	11
Agar.	
<i>Mehmon Islomqulov tarjimasi</i> .....	13
Boriga baraka.	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	16
Shafqatli it.....	21
Chegara ustidagi uy.	
<i>Nosir Muhammad tarjimasi</i> .....	23
Yashasin qashshoqlik!	
<i>Miad Hakimov tarjimasi</i> .....	32
O'zing aybdorsan.	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	40
Adabiyot muxlisi.	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	48
Esini kirgizib qo'ydi.	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	55
Odam qanday aqldan ozadi?	
<i>Shodmon Otabek tarjimasi</i> .....	64

Chaqaloq.	
<i>M. Davron tarjimasi</i> .....	73
Issiq kunda.	
<i>M. Davron tarjimasi</i> .....	98
Qush doni.	
<i>Gulbahor Abdulloh qizi tarjimasi</i> .....	108
Samolyot chiptasi .....	112
Otamning ishi.....	127
Kombayn .....	138
Xonimlar kuni	
<i>Mirzohid Muzaffar tarjimasi</i> .....	153

*Adabiy-badiiy nashr*

FAQIR BOYQURT

## **SAMOLYOT CHIPTASI**

*Hikoyalar*

„Ziyo nashr“ nashriyoti  
Toshkent – 2022

Muharrir  
Badiiy muharrir  
Musahhih  
Sahifalovchi

*Malika Kamolova  
Bahodir Ibragimov  
Zikrilla Mamatov  
Surayyo Sunnatullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019  
19.08.2022-yilda bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi  
 $84 \times 108^1 / 32$ . Ofset qog'ozı. „Bookman Old Style“ garniturasida  
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 8,4.

Adadi 1000. Shartnomा № 11-22.  
Buyurtma raqami

„Ziyo nashr“  
Mas'uliyati cheklangan jamiyat  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

„DIZAYN-PRINT“ va „Yangi asr avlodи“  
bosmaxonalarida chop etildi.

„DIZAYN-PRINT“ MCHJ, Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Cho'ponota ko'chasi, 28-a uy.

„Yangi asr avlodи“ MCHJ Toshkent shahar, Chilonzor tumani,  
Qatortol ko'chasi, 60-uy.

TURK YOZUVCHILARINING  
SARA HIKOYALAR TO'PLAMI

# SAMOLYOT CHIPTASI



ZIYO NASHR

[fb.com/zizo.nashr](https://www.facebook.com/zizo.nashr)  
 [zizyonashr@mail.ru](mailto:zizyonashr@mail.ru)



ISBN 978-9943-8520-5-1

9 789943 852051